

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI
Zoologiya kafedrası

Zoologik tadqiqot uslublari

fanidan maruzalar matni

Tuzuvchi: ass. Mamashukurov A.O'.

Samarqand-2015

1 Ma'ruza

Mavzu:

Kirish. Fanning maqsad va vazifalari. Zoologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari. Zoologik tadqiqotlar sohasida o'rganiladigan umurtqasiz hayvonlarning asosiy guruhlari. Umumiy tashkiliy uslubiy ko'rsatmalar

Reja:

1. Zoologik tadqiqot uslublari fanining o'rganadigan obyekti, tarkibi va vazifalari. Zoologik tadqiqot uslublari fanining fanlar sistemasi ekanligi.
2. Zoologik tadqiqot uslublari fanining boshqa biologiya va tabiatshunoslik fanlari, shuningdek tibbiyot va qishloq xo'jaligi bilan aloqadorligi.
3. Antik davrda va O'rta asrlarda hayvonlar haqidagi ilmiy ma'lumotlarning shakllanishi. Yevropa va Rossiyada umurtqasiz hayvonlarni o'rganilish holati.
4. XVIII-XX asrlarda hayvonlarni o'rganishda erishilgan ilmiy muvaffaqiyatlar.
5. O'zbekistonda zoologiya fanining shakllanish bosqichlari.
Hayvonlarni o'rganishda o'zbek zoolog olimlarining xizmatlari.

Zoologik tadqiqot uslublari fanini biologiya fanining ajralmas qismi va nazariyasolaridan birini tashkil qiladi. Bu fan hayvonlarning tuzilishini, sistematikasini, geografik tarqalishini va biologiyasini, hayvonlarning yashash sharoitini bilan uzviy birlikda o'rganadi. Umurtqali hayvonlar umurtqasiz hayvonlar va o'simliklar kabi fanlarga avvaldalafanidir.

Hozirgi vaqtda bu fanlarni o'rganishda ko'proq laboratoriyasharoitidatajribalaro'tkazilib o'rganilsada, dalatadqiqotlari (material to'plash, kuzatish) eng muhim hisoblanadi.

Zoologiya ikkita yunon so'zidan tashkil topgan bo'lib, zoon-hayvon, logos-fan, so'zma'nosi ni anglatadi. Lekin hozirgi vaqtda hayvonlar haqidagi ma'lumotlarning harto monlamakengayib ketganligi tufayli, zoologiya fanini yagona fan emas, balki fanlarni majmuiga aylanib qoldi.

Shunga binoan zoologik fanlarni ikkiguruhga, ya'ni birtomondan hayvonlarni hayot bilan bog'liq bo'lgan ayrim xususiyatlarini o'rganuvchi fanlarga ajratsak, 2-nchitomondan esa amaliy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan, anchayirik ma'lum sistematik guruh hayvonlarini o'rganuvchi zoologik fanlarini ajratish mumkin. Birinchi guruh fanlari qatoriga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

Morfologiya-

hayvonlarni tarixiy va individual rivojlanish jarayonida o'zgaruvchi yashash sharoiti

tita'siridashakllangantashqivaichkiorganlarningshaklivatuzilishinio'rganuvchifandir.

Morfologiyafanitarkibigabirqatorxususiy morfologikfanlarni, jumladan, organlarnituzilishivaularningo'zaronisbatinio'rganuvchianatomiyaning, turli-tumanhayvonlarningorganlarivaularningfunksiyalarinio'zgarishinitaqqoslabo'rganuvchisolishtirmaanatomiyanivanihoyatorganvato'qimalarnimikroskopiktuzilishinio'rganuvchigistologiyakabifanlarnio'zichigaoladi.

Embriologiya-

hayvonlarniindividualtaraqqiyotivauniyuzagakeltiruvchiqonuniyatlarnio'rganadi.

Fiziologiya- hayvonlartanasidasodirbo'libturuvchi (ovqathazmqilish, nafasolish, qonaylanish, ajratish, ta'sirlanuvchanlik, ko'payish) hamdaorganizmbilanunio'rabolgantashqimuhtorasidagimoddalaralmashinuvijarayonlarinio'rganadi.

Organizmbilantashqimuhtorasidagialmashinuvdamoddalarningkimyoviytarkibivaunio'zgarishini**biokimyo**fanio'o'rganadi.

Shungabinoanbiokimyofiziologiyabilanchambarchasbog'liqdir.

Ekologiya-

hayvonlarniatrofmuhitbilanbiotikvaabiotikomillargao'zaromunosabatlarinivao'zgaruvchanmuhitlargamoslashaolishxususiyatlarinio'rganadi.

Sistematika- mavjudhayvonlarniturlitumanligini, ularnitabiiysistemasini (klassifikasiyasini) tuzishbilanshug'ullanuvchifandir.

Zoogeografiya- hayvonlarniyeryuzidageografiktartqalishiqonuniyatlarinio'rganadi.

Paleozoologiya- o'tgandavrlardayashab, o'libketganvahozirgikundayerningturligeologikqatlamlaridanqazilmaholidatopilayotganhayvonlarnituzilishinio'rganadi.

Filogenetika

muayyanguruhlavaularningturlarinitarixiyriyojlanishinihamdaularorasidagioxshliklar, xususiyatlarasosidahayvonlarningo'zaroqon-qardoshliginio'rganadi.

Etologiya- hayvonlarninghulqatvori, odatlari, yurishturishivaturlijinslarhamdaindividlarorasidagimunosabatlarnio'rganadi.

Ikkinchiguruhga, ya'nixususiyzoologikfanlarigaqo'yidagilarnikiritishmumkin:

Protozoologiya- birhujayralihayvonlarhaqidagifanbo'lib, ularnituzilishi, hayotiyyo'nalishlarihamdaerkinyashovchivaparazitlarninghayotsikllarinio'rganadi.

Gelmintologiya- chuvalchamlarnituzilishi, sistematikasi, hayotsiklivaparazitlariiganisbatanprofilaktikchoralariniishlabchiqishbilanshug'ullanadi.

Entomologiya-

hasharotlarhaqidagifandir. Ushbu fan umumiy hasharotlarni tuzilish va hayotini o'rganish bilan birga ularning asosiy mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligiga zararkunandalarini aniqlash bilan ham shug'ullanadi.

Akarologiya-

kanalarhaqidagifan.

Ushbu fan ayniqsa chorvachilik va tibbiyot bilan chambarchas bog'liqdir, chunki parazit va qon so'ranka kanalar uy hayvonlarida odamning qonini so'rishida tashqari, yanaturli-tuman invazion va infeksiyalar kasalliklarni qo'zg'atuvchilarini ham yuqtiradi:

Malakologiya- yumshoq tanli larvalarhaqidagifan bo'lib, ularning faunasi, sistematiikasi va bio-ekologik xususiyatlarini o'rganadi.

Xususiy zoologik fanlar qatorigashuningdek **ixtiologiya** (baliqlarhaqida) **gerpetologiya** (amfibiyalar va reptiliyalarning haqida), **ornitologiya** (qushlarhaqida) va **teriyologiya** (sutemizuvchilarning haqida) kabi fanlarni ham aytib o'tish o'rinlidir.

Zoologiya fanini umumiy biologik fanlar, jumladan botanika, parazitologiya, genetika, biotexnologiya, bionika, kosmik biologiya kabi fanlar bilan, shuningdek tabiat shunoslik fanlari (ximiya, geografiya, geologiya, fizika, matematika, astronomiya), qishloq xo'jaligi fanlari (agronomiya, tuproq shunoslik, dehqonchilik, chorvachilik, zootexnika, veterinariya) hamda tibbiyot fanlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Yer yuzidagi hayvonlar hadda tashqari turli-tumandir, vata ximiyasi hisoblagan ko'ra ularning 2 mln. gacha qimmat mavjud. Lekin Yertarixida o'tgan turlar geologik va davrlar davrida paydo bo'lib, yashab vama'lum o'zgarishlarga uchrashgan hayvonlarning turlari 2,5-3 mln gacha qimmat qayalgan. Anashunda turli-tumanni tuzilishda vama'lum bir rivojlanish bosqichida bo'lgan hayvonlarga Yerdan o'z oqvaqtidan beridavomati kelayotgan tarixiy rivojlanish jarayonining mahsulide qayash kerak.

Tirik organizmlarning o'zgaruvchanlik kamoyilligi tufayli ular dialektik tarzda oddiy tuzilishdan murakkab tuzilishga, miqdori o'zgarishlarining sifati o'zgarishlarga o'tish tomoniga qayab rivojlanib borgan. Bo'

esayoz navbatida anchay uqoritaraqqiyetgan hayvonlar guruhlarini paydo qilishiga olib kelgan. Zoologiya fanida hayvonlarning evolyusiyasini anashun oqta inazarda tahlil qiladi.

Bunday tahlil asosidagi, birinchi navbatda o'quvchidan ariy jihatdan tirik tabiatga nisbatan dialektik-materialistik dunyoqarashni shakllantirishda o'yat katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Zoologiya fanining halq xujaligida ahamiyati juda kattadir. Birinchi navbatda zoologiya biologiya fanining boshqa sohalarini bilan birgalikda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosini tashkil etadi. Qishloq xujaligida juda ko'pgina

hayvonlar xonakilashtirilgan yoki qo'lga o'rgatilgan. Xonakilashtirish natijasida ular juda keskin o'zgarishlarga duchor bo'lib, yangi zotlarni keltirib chiqarishga sabab bo'lgan.

Bundan tashqari juda ko'p hasharotlar va boshqa umurtqasizlar mavjudki, ularni biologiya va ekologiyasini o'rganish nafaqat qishloq xo'jaligi, balki umuman halq xo'jaligi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, turli-tuman madaniy va manzarali o'simliklarning zararkunandalari, chorva hayvonlari va odamda parazitlik qiluvchi umurtqasizlar kabilarni eslab o'tishning o'zi kifoyadir. Shuning bilan birga umurtqasizlar orasida shunday turlar va guruhlar ham mavjudki ular ekologik muhitni tozalashda (biofiltratorlar), madaniy ekinlar va o'rmonlarni himoyalashda (yirtqich va parazit entomofoglar), ovlanadigan va xomashyo beruvchi umurtqasizlar va umurtqalilar (qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar, baliqlar, qushlar, sut emizuvchilar va boshqalar) haqida zoologiya fani zaruriy ilmiy ma'lumotlar beradi.

Yer yuzida yashab o'tgan va hozirgi vaqtda yashayotgan turli-tuman hayvonlarni tabiiy tanlanish jarayonida paydo bo'lganligini isbotlovchi bir qator evolyusion va filogenetik qonuniyatlar mavjudki, bular qo'yidagilardan iborat:

1. Evolyusion o'zgarishlar har doim o'zgaruvchan yashash sharoitiga moslashaolish qobiliyatidan kelib chiqadi. Bunday evolyusion o'zgarish tabiiy tanlanish jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Tirik tabiatda bunday qonuniyatning mavjudligini materialist olimlar (J.B.Lamark, K.F.Rulye va boshqalar) kashf etgan. Lekin uni birinchi bo'lib ingliz olimi Ch. Darvin o'zining "Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning paydo bo'lishi" (1859 y) asarida batafsil isbotlab bergan. Hayvon tanasidagi biror organ yoki umuman organizmning o'zgargan sharoitga moslashaolish qobiliyati shu bilan xarakterlanadiki, u yangi muhitda bimalol yashayoladigan bo'ladi va shunga binoan ma'lum bir organda yoki sistema (oziqlanish organlari, nafas organlari, sezish organlari, asab sistemasi va hokozolar) da sifat o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu o'z navbatida organizmni umumiy tuzilishi hamda hayotiy xususiyatlarini bir pog'ona yuqoriga ko'tarilishiga olib keladi. Buni A.N. Seversov hayvonlar evolyusiyasidagi aromorfozlar bilan ham isbotlab bergan. Aromorfozlar tufayli bir-biridan sifat jihatdan keskin farq qiluvchi yirik taksonomik guruhlar (sinflar, tiplar) shakllanadi.

Lekin ko'p hollarda o'zgaruvchan muhitda organizmda unchalik keskin bo'lmagan ayrim kichik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bunday xususiy o'zgarish shu organizmni kelgusida bo'ladigan evolyusion o'zgarishlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.

Biron-bir substratga yopishib o'troq yashovchi yoki parazitlik bilan hayot kechiruvchi organizmlardagi xususiy moslashish (o'zgaruvchanlik) jarayoni regressiv evolyusion o'zgaruvchanlik (idiadaptasiya) hisoblanib, organizmni

soddalashuvi yoki ayrim organlarni yo'qolishi bilan ifodalansa ham ushbu organizmda boshqa ayrim sistema yoki organning funksional xususiyatlarini rivojlanishi amalga oshadi. Regressiv evolyusion o'zgarishlarni umurtqasizlar orasida sestodalarda aniq ifodalanganligini ko'rish mumkin.

2. Evolyusiya - asosan monofiletik jarayondir, ya'ni rivojlanish bitta umumiy ildizdan (asosdan) boshlangan. Ch. Darvin o'z vaqtida (1859 y) tabiiy guruhlar hisoblanuvchi turlar va avlodlarning bitta umumiy shoxdan belgilarning ajralishi (divergensiyasi) tufayli kelib chiqqanligini isbotlab bergan. Lekin monofiletik evolyusion jarayonda ham o'zgaruvchan yashash muhitiga moslashaolmaganlari esa ulib ketgan, ya'ni tabiiy tanlanish jarayoni to'la hukm surgan va oraliq formalarning ko'pchiligini nobud bo'lishi ko'zatilgan.

Monofiletik rivojlanish jarayoni deganda yangi organizmni paydo bo'lishi qandaydir bir juft ota-ona organizmidan emas, balki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga o'xshash bo'lgan ikkita guruh organizmlaridan kelib chiqqan deb tushunish lozim. Shuni alohida qayd qilish lozimki, biron-bir tur ichidagi evolyusion jarayon birinchi navbatda asta-sekin uning geografik va ekologik formalarga ajralishi bilan boshlanadi. Keyinchalik divergent belgilarning rivojlanishini tobora chuqurlashaborishi natijasida turlar shakllanadi. Bir-biriga o'xshash turlarning tobora ko'payib borishi esa avlodlarni, avlodlar oilalarni va hakozi taksonomik guruhlarni hosil qilaboradi.

Lekin ko'pgina turli guruhlariga mansub bo'lgan hayvonlarda bir xil muhitda va o'xshash tarzda hayot kechirishi, ularda o'xshash (konvergent) belgilarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'zatiladi. Masalan, suvda o'troq hayot kechiruvchi turli sistematik guruhlariga mansub bo'lgan hayvonlarda gidroid poliplar, marjon poliplar, o'troq yashovchi polixetalarda, mshankalarda, pogonoforalarda, jabra qanotlilarda) o'xshash belgilarning paydo bo'lishini aytib o'tish mumkin. Bunday o'xshash belgilarga, og'iz atrofida paypaslagichlarning shakllanishi, ovqatlanishning passiv holda bo'lishi, radial simmetriyaning yuzaga kelishi va hakozi.

3. Hayvon organizmi yaxlit, bir butundir va undagi barcha organlar, qismlar hamda to'qimalar o'zaro chambarchas bog'liqdir. Evolyusion jarayonda ma'lum bir organning tuzilishi va funksiyasi o'zgarsa, u o'z navbatida boshqa organlarning ham korrelyativ o'zgarishiga olib keladi va dastlab o'zgargan organ bilan morfo-fiziologik bog'langan bo'ladi.

Evolyusiya jarayonida organlarning bir-biriga mos ravishda o'zgarishi va rivojlanishi korrelyasiya qonuni deyilib, uni birinchi bo'lib 1812 yilda fransuz olimi J.Kyuvye ochgan. Korrelyativ o'zgaruvchanlikka misol qilib bug'imoyoqlilarda tashqi kutikulyar skeletning hosil bo'lishini olish mumkin.

Bunday tashqi skeletning hosil bo'lishi ayrim ichki organ va to'qimalarning ham o'zgarishiga olib kelgan. Masalan, tashqi kutikulyar

skeletning hosil bo'lishi bilan teri-muskul xaltasi o'z funksiyasini davom ettiraolmagan va natijada u ayrim kundalang targ'il tolalardan iborat bo'lgan muskul tutamlarini hosil qilgan. Ikkilamchi tana bo'shlig'i (selom) o'zining tayanch funksiyasini yo'qotganligi tufayli o'zgarib, trofik vazifani bajaruvchi miksoselga aylangan. Gavda hajmining o'sishi ham davriy xususiyatni egallaydi va u vaqti-vaqti bilan po'st tashlash bilan amalga oshadi. Shuningdek traxeyalar sistemasining rivojlanishi qon tomirlarning kamayishi yoki umuman yo'qolishiga olib kelgan.

4. Evolyusiya har qanday rivojlanish singari qayta takrorlan-maydigan va orqaga qaytmaydigan jarayondir. Evolyusiyaning qaytadan takrorlanmaslik qonunini birinchi bo'lib Belgiyalik paleontolog L.Dallo 1893 yilda kashf etgan. Ushbu qonunga binoan organizmda biron bir organ reduksiyaga uchrasa yoki yo'qolib ketsa u qayta hosil bo'lmaydi. Uning o'rniga aynan shu vazifani bajaruvchi, lekin kelib chiqishi va shakli butunlay boshqacha bo'lgan yangi organ paydo bo'ladi.

5. Organizmlarning evolyusiyasi har doim tana qismlari va organ-larning differensiasiyasi bilan ifodalanadi, ya'ni organizmdagi biron-bir qism yoki organ har xil sabablarga ko'ra sekin-asta o'z vazifasini o'zgartiraborib, oxir oqibatda dastlabki funksiyasini unitib, butunlay boshqa funktsiyani bajaradigan bo'ladi. Bunday sharoitda organizm qismlarining ishi bir-biriga juda ham bog'liq bo'lib qoladi. Differensiasiya jarayoni nafaqat organizmni murakkablashuviga olib keladi, balki yana undagi qismlarning ishi bir-biriga juda ham bog'liq bo'lib qoladi.

6. Hayvonlar evolyusiyasi jarayonida gomologik organlarning oligomerizatsiyasi (kamayishi) sodir bo'ladi. Bunday o'zgarishlarni 1-nchi bo'lib V.A.Dogel (1936, 1954) aniqlagan.

Gomologik organlarning kamayishi har doim ularning morfologik va funksional tabaqalanishi bilan amalga oshadi.

Evolyusiya jarayonida ancha katta guruh hayvonlarini shakllanishida ularning tuzilishida birqator o'zgarishlar, jumladan yangi organlarning paydo bo'lishi ko'zatiladi. Bu o'zgarishlar birinchi navbatda hayvonlarning yashash tarzini o'zgarishi, ya'ni o'troq hayot kechirishdan aktiv harakat qilish tarziga yoki suv muhitidan quruqlik muhitiga o'tish va hokozolar bilan ifodalanadi.

Masalan, halqali chuvalchangelardan bug'imoyoqlilarning kelib chiqishi jarayonida gavda segmentlarining kamayishi, gomologik organlarning qisqarib geteronomlanishi, gavda bo'limlarini (bosh, ko'krak, qorin) shakllanishi hamda ularning har biri alohida ma'lum funksiyalarni bajarishga moslashaborganligini ko'rsatish mumkin.

7. Turli guruh va tiplarga kiruvchi hayvonlar orasidagi qon-qardoshlik munosabatlarini aniqlashda biogenetik qonunning ahamiyati kattadir. Bunda ontogenez bilan filogenez orasida bog'lanish mavjudligini olimlardan F.

Myuller (1864), E.Gekkel (1866) va A.N.Seversov (1939) aniqlashgan. Biogenetik qonunga binoan ma'lum bir hayvon o'z ontogenezida (individual taraqqiyotida) o'tmish ajdodlari uchun xos bo'lgan ayrim belgi va xususiyatlarini takrorlaydi. Bu jarayon rekapitulyasiya deyiladi.

Turli-tuman hayvonlarni ontogenezini ko'zlash bilan uning turli bosqichlarda ajdodlarining ayrim belgi va xususiyatlarini namoyon bo'lishini qayd qilib shu organizmni hayvonlar olamidagi sistematik o'rnini aniqlash mumkin bo'ladi.

Zoologiya fanining rivojlanish bosqichlari. Ibtidoiy jamoa davrida kishilar hayvonlarni ovlash va uni iste'mol qilish, terisidan kiyim-kechak, suyaklaridan qurol sifatida foydalanishi jarayonida ular haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'laborishgan va uni avloddan-avlodga og'zaki qoldirib kelishgan. Lekin bu ma'lumotlar hali ilmiy zoologiya faniga asos bo'lgan deb hisoblash qiyin. Zoologiya faniga eramizdan ancha oldin yashab o'tgan Xitoy, Hindiston va Yunoniston mutafakkirlari qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirishgan. Bu sohada yunon olimi Arestotelni (eramizgacha 384-322 yillar) xizmati g'oyat kattadir.

U o'zining "Hayvonlar ta'rixi" va "Hayvonlarning kelib chiqishi" kabi asarlarida o'ziga ma'lum bo'lgan 500 turdan ortiq umurtqasiz va umurtqali hayvonlar haqidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Arestotel barcha hayvonlarni 2 ta katta guruhga, ya'ni qonli va qonsiz hayvonlarga ajratgan. Har bir katta guruhni o'z navbatida yana bir necha guruhlarga ajratgan. Masalan: qonli hayvonlarni 5ta guruhga, ya'ni

1. Bola to'g'uvchi to'rt oyoqli, tanasi jun bilan qoplangan hayvonlar (sut emizuvchilar)

2. Tuxum quyuvchi ikki oyoqli patli hayvonlar (qushlar)

3. Tirik to'g'uvchi oyoqsiz, suvda yashovchi, o'pka bilan nafas oluvchilar (kitsimonlar)

4. Tuxum quyuvchi oyoqsiz va to'rt oyoqlilar, o'pka bilan nafas oluvchilar (amfibiylar va reptiliylar)

5. Tuxum quyuvchi, terisi tangachali, jabra bilan nafas oluvchilar(baliqlar)

Qonsiz hayvonlar katta guruhini ham o'z navbatida qo'yidagi 4 guruhga ajratgan.

1. Boshida oyoqlari bo'lgan yumshoq tanlilar (bosh oyoqli mollyuskalar)

2. Shilimshiq tanlilar (mollyuskalarni boshqa barcha turlari)

3. Yumshoq po'stlilar (qisqichbaqasimonlar)

4. Hasharotlar (hasharotlar, o'rgimchaksimonlar, chuvalchanglar)

Aristotelning hayvonlarni guruhlarga ajratishi, ayniqsa qonli hayvonlarni guruhlari hozirgi zamon umurtqalilarining ayrim sinflariga juda mos keladi. Lekin turlarga juda boy bo'lgan turli-tuman umurtqasizlarni guruhlarga

ajratilishi esa juda ham yuzaki va sun'iy bo'lgan. Bundan qat'iy nazar shu narsa e'tiborga sazovorki, u o'zining hayvonlar haqidagi asarlarida tana qismlarining korrelyasiyasi (organizm organlari va qismlarining funksiyalarini bir-biriga munosibligi) haqida muhim mulohazalarni yozib qoldiradi.

Eramizning birinchi asridan boshlab o'rta asrlargacha (14-15 asrlargacha) hayvonlarni o'rganish va bu sohada biron-bir ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy yangiliklar deyarli bo'lmadi. Hatto antik davrda ko'lga kiritilgan zoologik ilmiy asarlar unitilib, yo'q qilib tashlandi. Umuman bu davrda dinning hukmronligi tufayli tirik organizmlarga diniy nuqtai nazardan yondoshish natijasida nafaqat zoologiyaning rivojlanishi, balki antik davrda qo'lga kiritilgan ilmiy-materialistik dunyoqarashlar ham kuchli ta'qib ostiga olindi.

Faqat XV-XVI asrlardan boshlab, ya'ni O'yg'onish davrida boshqa tabiatshunoslik fanlari singari zoologiya fani sohasida ham ilmiy izlanishlar boshlandi. XVI-XVII asrlar davomida hayvonlarning turli-tumanliligi, ularning tuzilishi, hayot kechirish tarzi haqida qimmatli ilmiy-nazariy ma'lumotlar paydo bo'ladi. Bu vaqtda shveysariyalik K. Gesner, fransuz olimlari G. Rondele va P. Belonlarning xizmatlari e'tiborga sazovordir.

K. Gesner o'zining «Hayvonlar tarixi» nomli asarini 1551 yildan chop qila boshladi. U ilmiy asarlarida hayvonlarni tashqi tuzilishi, tarqalishi, hayot tarzi va foydasi haqidagi ma'lumotlarni batafsil yozadi. Uning bu kitobi o'z zamonasida zoologiyaning ilmiy asosiga aylandi.

XVII asrning ikkinchi yarmida mikroskopning kashf qilinishi ilgari ma'lum bo'lmagan bir hujayralilar haqida ma'lumotlar paydo bo'ldi. Shuningdek, hayvonlarning tana qismlarini mikroskopik tuzilishi va ularning embrional rivojlanishi bo'yicha ayrim ma'lumotlar e'lon qilindi. Bu ishlarda gollandiyalik A. van Levenguk, italiyalik M. Malpigi, angliyalik U. Garveylarning xizmatlari kattadir.

A. van Levenguk o'zi mikroskop yasab, uning yordamida birinchi bo'lib infuzoriyalarni, qizil qon tarkibida eritositlarni va urug' suyuqligida spermatozoidlarni kashf etadi.

M. Malpigi kattalashtiruvchi linzalar yordamida tuxum ichida jo'janing rivojlanishi, hasharotlarning anatomiyasi hamda tut ipak qurtining tuzilishini o'rganish sohasida qimmatli ishlarni amalga oshirdi. Bundan tashqari u hayvonlar terisining mikroskopik tuzilishi, umurtqalilarning qon aylanish sistemasida kapillyar tomirlarni tuzilishini ham birinchi bo'lib o'rgandi.

Hayvonlar morfologiyasi, anatomiyasi va embriologiyasi bilan bir qatorda, hayvonlar sistematikasi faniga ham asos solinabordi. Ingliz olimi Djon Rey (1623-1705) tur haqidagi tushunchani kashf etdi. Mashhur shved olimi Karl Linney 1735 yilda nashr qilgan «Tabiat sistemasini» asarida hayvonlar sistematikasini tuzar ekan, tur taksonomik birligidan tashqari yana avlod, turkum va sinf kabi birliklarga ham asos soldi. Uning hayvonlar bo'yicha

tuzgan klassifikasiyasida bir-biriga yaqin bo'lgan turlar avlodga, avlodlar turkumga, turkumlar sinfga birlashtiriladi.

Sinf eng yuqori taksonomik birlikdir. K. Linney o'ziga ma'lum bo'lgan barcha umurtqasiz va umurtqali hayvonlarni 6 ta sinfga ajratadi. Shundan 4 tasi (sut emizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar, baliqlar) umurtqalilardan iborat bo'lsa, 2 tasigina (hasharotlar, chuvalchanglar) umurtqasizlarni o'z ichiga oladi.

K. Linneyning xizmatlaridan yana biri shu bo'ldiki, u hayvonlarni lotin tilida nomlashda binar nomenklatura prinsipini joriy qildi, ya'ni har bir hayvon (shuningdek o'simlikning ham) turini qo'shaloq nom bilan atashni tavsiya etdi. K. Linney asarining birinchi nashrida 4200 tur hayvonlar haqida, ikkinchi nashrida esa (1758 y) 20000 dan ortiq hayvon turlari haqida ilmiy ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Lekin K. Linney sistemasi sun'iy sistema edi, chunki hayvonlarni taksonomik birliklarga ajratishda ularni tashqi, ko'zga tashlanadigan morfologik belgilarini asos qilib olgan edi. Shunday bo'lsa ham zoologiyaning rivojlanishida K. Linneyning xizmatlari alohida o'rin egallaydi.

K. Linney XVP asr oxiri va XVIII asrda yashab, ijod etgan ko'pgina boshqa tabiatshunoslar singari (Djon Rey, M. Malpigi, Yan. Svammerdam, Antonio Vallisneri va boshqalar) turlar o'zgarmaydi, ilohiy kuch organik formalarni avvaldan qancha qilib yaratgan bo'lsa ular hozir ham shuncha deb tushuntirgan. Lekin u o'zining so'nggi asarlarida ilgari idealistik qarashlarini bir muncha o'zgartirib, hayvon turlari evolyusiya jarayonida ko'payib borgan bo'lishi mumkin, degan fikrlarni ham aytib o'tgan.

K. Linney zamondoshi fransuz Jorj Lui Byuffon (1707-1786) o'zining ilmiy faoliyatini tabiatdagi o'zgarishlar, jumladan hayvonlarni Yer yuzida paydo bo'lishi, tarqalishi, muhit ta'sirida ularning o'zgarish sabablari bo'yicha birinchilar qatorida materialistik dunyoqarashini aytib o'tdi. Ma'lum bir oilaga mansub bo'lgan turlar bir ajdoddan kelib chiqqan bo'lishi kerak deb taxmin qiladi.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida zoologiyada hayvonlarning anatomiyasi va sistematikasi yo'nalishlari ancha olg'a qarab ketdi. Bu sohada bir qator mashhur fransuz olimlarining xizmatlari katta bo'ldi. Shulardan biri Jorj Kyuvye (1769-1832) hayvonlarning bir qancha xususiyatlariga asoslanib, yanada yirikroq taksonomik birlik-**tip** taksonini tavsiya etdi va barcha hayvonlarni 4 tipga, ya'ni umurtqalilar, bo'g'imlilar, mollyuskalar va nurlilarga hamda ularni 19 sinfga ajratdi.

Zoologiyada tip taksonini tavsiya etilishi hayvonlarni tabiiy sistemasini tuzishga ancha yaqinlashtirdi. J. Kyuvye qazilma holdagi hayvon qoldiqlarini o'rganish va uning tirikligida tuzilishi va hayot tarzi qanday bo'lganligini ilmiy asoslab beradigan uslublarni kashf etdi. U paleontologiya faniga asos solishi bilan bir qatorda solishtirma anatomiya sohasida organizmdagi turli organlarning o'zaro bog'liqligi prinsipiga asoslanib, organlar korrelyasiyasi haqidagi nazariyasini olg'a surdi.

J. Kyuvye vatandoshi Joffrua Sent-Iler (1772-1844) ishlari tufayli zoologiyada hayvonlar olamining tarixiy rivojlanish tushunchasi yuzaga keladi. Bu fikrga binoan turlarning o'zgarishida muhit omillarining roli katta ekanligi tan olinadi. Sent-Iler dunyoqarashi jihatidan J. Kyuvyega qarshi bo'lib, materialist olim sifatida hayvonlar dunyosining barchasi, umumiy ajdoddan kelib chiqqan turlar bir-biriga bog'langan degan fikrni olg'a surdi.

XIX asrda tirik tabiatga nisbatan metafizik qarashning asta-sekin materialistik qarash bilan almashinish tendensiyasi ko'zatiladi. Bu jarayonda birinchi bo'lib evolyusion ta'limotni yaratgan va zoologiya fanining rivodlanishiga katta hissa qo'shgan fransuz olimi J. B. Lamarkning (1744-1824) xizmati kattadir. J.B. Lamark birinchidan barcha hayvonlarni umurtqasiz va umurtqalilarga ajratib o'rganishni tavsiya etdi. U o'zining 1809 yili nashr etilgan «Zoologiya falsafasi» asarida barcha hayvonlarni 14 ta sinfga ajratib, shundan 10 tasi umurtqasizlardan iborat bo'lgan. Lamark asarida o'zining hayvonlar haqidagi evoliyusion nazariyasining negizlarini bayon qilar ekan, hayvonot dunyosining tabiiy sistemasini tuzish asosida tirik organizmlarning tarixiy taraqqiyoti ilgarilama jarayondir degan genial fikrni e'lon qiladi, ya'ni tirik mavjudot shakllari oddiydan murakkablik tomon rivojlanib borgan va hozir ham rivojlanib kelmoqda deydi. Uning fikricha organik dunyoda ham, anorganik dunyoda ham barcha o'zgarishlar tabiat qonunlari asosida ro'y beradi. Hozirgi organik tabiat, jumladan hayvonlar olami ham uzoq davom etgan tarixiy rivojlanish jarayoni natijasi ekanini tushuntirib berishga harakat qildi. Bu dunyoqarash birinchi evolyusion nazariyani ro'yobga chiqishiga asos bo'ldi.

XIX asr o'rtalarida zoologiya fanining rivojlanishida nemis olimlari M. Shleyden (1804-1881) va T. Shvani (1810-1882), rus olimlari K.F. Rulye (1814-1858) va K.M. Ber (1792-1876)ning xizmatlari salmoqlidir.

M. Shleyden va T. Shvani o'zlarining «Hayvonlarning tarixiy taraqqiyoti» asarida hujayra nazariyasini asosiy qoidalarini bayon qildilar. Ular ko'pgina olimlarning o'simlik va hayvon tanalari hujayralardan iborat ekanligi haqidagi fikrlarini umumlashtirdi. Bu esa o'z navbatida organik materiyaning evolyusion taraqqiyoti haqidagi muammoni hal qilishga yordam berdi.

K.F. Rulyening organik tabiatning tarixiy taraqqiyoti to'g'risidagi fikrlari «Umumiy zoologiya» asarida bayon qilingan. Uning tushuntirishicha hayvonlarni tirik tabiatdan ajratib o'rganish mumkin emas. Har qanday hayvon tashqi sharoitlarga, ya'ni havo, suv, iqlim omillari, tuproq, o'simliklar, boshqa hayvonlar va nihoyat odamga bog'liqdir deydi.

K.M. Ber esa ikki jildlik «Hayvonlarning tarixiy taraqqiyoti» asarida o'zining solishtirma embriologiya sohasida olib borgan tadqiqotlari natijalarini umumlashtirdi.

Zoologiya fani rivojlanishining yangi bosqichi mashhur ingliz olimi Ch. Darvinning (1809-1882) «Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning paydo bo'lishi» asari e'lon qilingandan keyin boshlandi. Ch. Darvin tomonidan yaratilgan

evolyusion nazariya biologiyani yanada rivojlanishida, metafizika va teliologiyaga qarshi kurash, organik tabiatga tarixiy nuqtai nazardan qarash uchun prinsipial ahamiyatga ega bo'ldi. Darvinning evolyusion nazariyasi ikki muammoni, ya'ni bir organik formaning boshqasiga aylanish muammosini hamda organik formalarining maqsadga muvofiqligi muammosini juda aniq dalillar bilan hal qilib berdi.

Evolyusion nazariyaga asoslangan zoologiya tez sur'atlar bilan rivojlanib yangi ixtisosliklar va bo'limlar shakllanabordi. Zoologiyaning rivojlanish tarixida mashhur rus olimlarining xizmatlari katta o'rin egallaydi. Masalan, A.O. Kovalevskiy (1840-1901), I.I. Mechnikov (1845-1950) va V.V. Zalenskiy (1845-1900) ning ilmiy tadqiqotlari tufayli hayvonlar morfologiyasi va embriologiyasi sohaları tez rivojlantirildi.

Ular umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning embrional rivojlanishini dastlabki bosqichlarida bir qator o'xshashliklar mavjudligini aniqlaydi.

V.O. Kovalevskiy (1842-1883) tuyoqli sut emizuvchilarning qazilma holda topilgan suyaklarini o'rganib, evolyusion paleontologiyaga, M.M. Sechenov (1829-1905) esa hayvonlar fiziologiyasi fanlariga asos soldilar.

XIX asr oxirilariga kelib chet el olimlarining ishlari tufayli zoologiyada sistematika va zoogeografiya bo'limlari ancha olg'a qarab rivojlandi, chunki usha paytda qariyb 400 ming turga yaqin umurtqasiz va umurtqali hayvonlar haqida ma'lumotlar to'plandi.

XX asrga kelib zoologiya fani o'z rivojlanishining yangi bosqichiga o'tadi. Hayvonlar faunasini o'rganish davom ettiriladi. Olimlarning «Vityaz» (rus-sovet) va «Galateya» (Daniya) kemalarida Dunyo okeani bo'ylab amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiyalari tufayli ilgari fanga ma'lum bo'lmagan va okeanning juda chuqur zonalarida yashovchi hayvonlar guruhi kashf qilindi. Bu hayvonlarni rus olimi L.V. Ivanov batafsil o'rganib, ularning yangi tipga mansub ekanligi aniqlanadi. Bunday hayvonlarga pogonoforalar deb nom berildi. XX asrning birinchi yarmi davomida hayvonlar evolyusiyasi (filogenetika) muammasini materialistik nuqtai nazaridan hal qilishda olimlardan B. Reni, V.I. Beklemishev, A.A. Zaxvatkin, V.A. Dogel, V.M. Shimkevich, N.A. Livanov va boshqalarning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Aynan bir vaqtda zoologiyada parazit (tekinxo'r) va kasallik tarqatuvchi umurtqasizlarni o'rganish bo'yicha juda katta va amaliy jihatdan ahamiyatga molik bo'lgan ishlar amalga oshirildi.

Shunday ishlardan biri gelmintologiya fanining shakllanishi va turli-tuman umurtqasiz hamda umurtqali hayvonlarda yashovchi (jumladan, odamning ham) gelmintlarni o'rganishda va ularga nisbatan profilaktik choralarni ishlab chiqishda akademik K. I. Skryabnning ilmiy maktabini xizmati katta bo'ldi.

Akademik Ye.N. Pavlovskiy rahbarligidagi ilmiy maktab umumiy va xususiy parazitologiya fanining rivojlanigiga hissa qo'shdi. Ye. N. Pavlovskiy

fanda birinchi bo'lib transmissiv kasalliklarining tabiiy manbai haqidagi nazariyaning kashfiyotchisi hamdir.

V.A. Dogel bir hujayrali hayvonlarni o'rganib protozoologiya fanini asoslanishida, shuningdek, parazitologiyada ekologik parazitologiya yo'nalishini shakllanishi o'zining bebaho hissasini qo'shdi.

XX asrning 30-60 nchi yillarida zoologiyada entomologiya sohasi tez sur'atlar bilan rivojlandi. Bu muvaffaqiyatlarda G.Ya. Bey-biyenko, A.A. Shtahyelberg, A.S. Monchadskiy, V.V. Yaxontov va boshqalarni nomini hurmat bilan tilga olish mumkin.

O'rta Osiyoda zoologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi o'z tarixiga ega. Bu tarixni aslida XI asrning boshlaridan deb bilish kerak. Usha davrning buyuk va mashhur allomalari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinolarning ilmiy faoliyati va asarlarida ushbu fan o'z aksini topgan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1043) o'zining «Hindiston» nomli asarida 100 turdan ortiq umurtqali va umurtqasiz hayvonlar haqida ma'lumotlarni yozib, ularning yashash va tarqalish xususiyatlarini hamda ahamiyatini alohida qayd qilgan.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) «Kitob al qonun fit-tibb» (Tibbiyot qonunlari) asarida esa odamning ovqat hazm qilish va ba'zi bir boshqa organlarida parazitlik qiluvchi qoramol gijjasi, askarida, ostrisa va rishta kabi chuvalchaglarning tuzilishi, organizmga zararli ta'siri, ularni organizmdan chiqarish (haydash) yo'llari va nihoyat bunday gelmintoz kasalliklarini oldini olish choralarini yozib qoldirgan.

Ibn Sino umurtqali hayvonlarni ayniqsa sut emizuvchilarni ichki organlari tuzilishini va bu organlarning funksiyalarini juda yaxshi bilgan.

O'rta Osiyo hayvonlari faunasini o'rganishda rus olimlarining xizmatlari salmoqlidir.

XIX asrning ikkinchi yarmida N.A. Seversov (1827-1885) o'zining ilmiy ekspeditsiyasi jarayonida Orol dengizi atrofi, Ustyurt, shimoliy Qizilqum, Pomir va Tyanshan tog'larida yashovchi umurtqali hayvonlarni, A.P. Fedchenko (1844-1873) esa Zarafshon va Oloy vohalarida uchrovchi umurtqasizlar faunasini o'rganish bilan bir qatorda, Samarqandda birinchi bo'lib rishta parazit nematodasini biologik xususiyatlarini ham o'rgangan. Ushbu olimlarning O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hayvonlari dunyosini o'rganishga asos solinishi va rivojlanishiga katta hissa bo'ldi. XX asr boshlariga kelib O'rta Osiyoda tarqalgan umurtqali va umurtqasizlarning 500 dan ortiq turi bo'yicha ilmiy ma'lumotlar to'plangan edi.

XX asr boshlarida O'zbekiston hayvonlari faunasini, shuningdek, amaliy jihatdan diqqatga sazovor bo'lgan turlarini biologik xususiyatlarini o'rganishda olimlardan V.F. Oshanin (1844-1945) entomologiya sohasida qandalalar va teng qanotli hasharotlarni, I.I. Xodukin (1896-1957) bezgak kasalligi va leyshmaniozni qo'zg'atuvchi parazitlarni o'rgandilar.

Shuningdek, A.L. Brodskiy (1882-1943), (protozoologiya), D.N. Qashqarov (1878-1941), (umurtqalilar zoologiyasi), L.M. Isayev (1868-1954), (parazit umurtqasizlar) va boshqalarni xizmatlari beqiyosdir.

O'zbekistonda zoolog olimlarning yetishib chiqishida akademiklar K.I. Skryabin va Ye.N. Pavlovskiyning, professorlar V.A. Dogel va A.A. Paramonovlarning ilmiy maktablarini roli katta bo'ldi.

O'zbek olimlarining to'ng'ich vakili akademik T.Z. Zohidov (1906-1979) O'zbekistonning umurtqali hayvonlarini o'rganish, ularning faunasini shakllanishi hamda atrof-muhitning turli omillariga moslashish qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha muhim ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdi.

Uning 3 jildidan iborat «Zoologiya ensiklopediyasi» (1951-1969), 2 jildlik «O'rta Osiyo tabiati va hayvonlar olami» (1969-1971) nomli asarlari zoologiya fani uchun katta hissa qo'shdi.

Umurtqasiz hayvonlarni turli guruhlarini sistematikasi faunasi, tarqalish qonuniyatlari, ularning amaliy ahamiyatini o'rganish bo'yicha akademik A.T. To'laganovning (1908-1990) xizmatlari kattadir. A.T. To'laganov O'zbekistonning madaniy va yovvayi o'simliklarning nematodofaunalarini o'rganishi jarayonida o'simlik va uning tuprog'ida 700 turdan ortiq nematodalar tarqalganligini aniqlaydi. U o'z shogirdlari bilan birga O'zbekistonning turli-tuman agrosenozlari va biogeosenozlarda 20 turdan ko'proq parazit nematodalar bo'lishini isbotlab beradi.

O'zbekistonda zoologiya fanini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan A.M. Muhammadiyev (gidrobiologiya), R.A. Olimjonov (entomologiya), M.A. Sultonov (gelmintologiya) va boshqalarni ilmiy tadqiqot ishlarini alohida qayd qilib o'tish o'rinli.

Hozirgi vaqtda umurtqasiz hayvonlarni o'rganishda O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Zoologiya ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent va Samarqand davlat universitetlaridagi umurtqasizlar zoologiyasi kafedralarida ushbu yo'nalishda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

2 Ma'ruza

Mavzu: Turli sinflarga mansub bir hujayrali hayvonlarni o'rganish uslublari

Reja:

1. Birhujayrali hayvonlarni tabiatdan yig'ish va laboratoriyada ko'paytirish usullari. Umurtqasiz hayvonlarni ochish va o'rganish usullari.
2. Bir hujayrali hayvonlarning gavda shakllari va o'lchami. Tuzilishxususiyatlari. Tarqalishi.
3. Birhujayrali hayvonlarning oziqlanish va uning asosiy usullari. Avtotrof, geterotrof va miksotrof.

4. Birhujayralihayvonlarningko'payishivauningshakllari.
Jinssizvajinsiyko'payishi.
Infuzoriyalarningkon'yugasiyausulidajinsiyko'payishi.
5. Birhujayralihayvonlarningsistahosilqilishivauningahamiyati.
6. Sarkomastigaforalar tipining tavsifi va klassifikasiyasi
7. Sarkodalilarsinfi. Tavsifivaklassifikasiyasi. Kenjasinflarvaturkumlar.
8. Sarkodalilarning amaliy ahamiyati.

Birhujayralihayvondegandatanasibirdonahujayradaniboratbo'lganorganizmlartushuniladi.

Buhayvonmorfologikjihatdanko'phujayralihayvonlarnitanasinitashkiletuvchihujayralarningbittasinituzilishigao'xshashdir, lekinfiziologikjihatdanesauyaxlitorganizmdir. Agardako'phujayraliorganizmninghujayralarima'lumto'qimalartarkibigakirib, muayyanvazifanibajarishgaixtisoslashganbo'lsa, birhujayralihayvontanasinitashkiletuvchiyagonahujayraesashuhayvonuchunzarurbo'lganbarchahayotiyjarayonlarnio'zibajarishgamoslashgan.

Birhujayrali hayvonlarni tabiatdan yig'ish va laboratoriyada ko'paytirish usullari

Bir hujayrali hayvonlarning anchagina turlari chuchuk suv havzalarida erkin hayot kechiradi, lekin bu havzalarning hammasidan ham kerakli materialni olib bo'lmaydi. Erkin yashovchi bir hujayralilarning ko'pgina keng tarqalgan turlarini (yalang'och va chig'anoqli amyobalar, ayrim xivchinlilar va infuzoriyalarning har xil turlarini) oqmas suv havzalarida, ayniqsa, kichik ko'llar, hovuzlar, yoki sekin oquvchi ariqlarda hamda ko'lmak va sholipoyalarda topish mumkin. Ayniqsa, o'simlik chirindisiga boy bo'lgan ko'lmak yoki hovuz suvlarida amyobalar, chig'anoqli amyobalar va infuzoriyalar ko'p bo'ladi. Suv o'tlariga boy bo'lgan, yorug'lik tushib turuvchi va kislorodga nisbatan to'yingan hovuz suvlarida evglenasimonlar va fitomonadalarni (gonium, evdorina, pandorina, volvokslar) hamda oddiy amyobalarni ko'plab topish mumkin. Nisbatan yirikroq bo'lgan suv havzalarining ma'lum bir qismiga ko'proq soya tushib turadigan joyida o'ziga xos mikrofauna shakllanishi mumkin. Bunday joyning suvida va uning tubida chig'anoqli amyobalardan arsellar va difflyugiyalarni topish mumkin.

Bir hujayrali hayvonlarning chuchuk suvlarda yashovchi guruh turlarini laboratoriya sharoitida ko'paytirish va ulardan amaliyot darslarida foydalanish uchun eng avvalo ushbu bir hujayralilarni tabiatdan yig'ib kelish lozim. Buning uchun 3-4 ta baland silindr shaklidagi shisha banka yoki murabbodan bo'shagan va tozalab yuvilgan oddiy shisha bankalar qopqog'i bilan tayyorlanishi kerak. Bunday turdagi bankalardan faqat tabiiy suv havzasidan dastlabki material olib kelish uchun foydalaniladi.

Oqmas tabiiy suv havzasiga borgach, undan qulayroq sayoz joyni tanlab, o'sha joyning tubiga yaqin joydan yarim banka suv va unga suv tubidagi chiriyotgan barglar, o'simlik qismlari hamda suv tubi loyqasi ham solinadi. Havzaning boshqa bir joyidan ham yuqoridagi usulda ikkinchi bankaga suv olinib, ichiga havzada o'sadigan suv o'tlari ham solinadi. Uchinchi bankaga suv havzasining sayoz joyidan suv va suv tubi loyqasi olinadi. Uchala bankalarga ham namunalar olingandan so'ng, ularni yorug'likka (quyoshga) qaratib, ko'zdan kechirish lozim. Bankalardagi suvda dafniya, siklop va suv hasharotlarining lichinkalari bo'lsa, bunday namunalar to'kib tashlanadi, chunki bunday hayvonlarning asosiy oziqasi bir hujayrali hayvonlar hisoblanadi. Shunga binoan suv havzasining boshqa, nisbatan qulayroq joylaridan qayta yangi namunalar olinadi.

Bir hujayrali hayvonlarning namunalarini suvi yaqinda qurib qolgan havzalardan ham olish mumkin. Buning uchun havzaning tubidan bir qism loy, chiriyotgan barglar va chirindi olinib, bankaga solib, ustiga toza ariq yoki yomg'ir suvi quyiladi. Ushbu ishni qilishdan oldin shu narsani e'tiborga olish lozimki, suvi qurib qolgan havzada bir hujayralilarning deyarli barchasi sista holatiga o'tgan bo'ladi. Ushbu sistalar esa qulay sharoitga o'tkazilganda, sistadan ajralib, faol hayotini yana davom ettirishi mumkin.

Tabiatdagi suv havzalaridan olib kelingan namunalar, laboratoriyada kichikroq shisha idishlarga (kimyoviy stakanlarga) bo'linadi. Namunalar quyilgan har bir idishga yana suv tubi loyqasi, chiriyotgan barg, chirindi va suv o'simliklari ham solinadi. Shundan keyin idishlarni usti shisha plastinkasi bilan yopiladi va deraza oldiga yoki deraza oldiga qo'yilgan stol ustiga joylashtiriladi. Namunalarga quyosh nuri tik tushmasligi lozim, aks holda idish ichidagi suv haddan tashqari isib ketib, mikroorganizmlarni halok qilishi mumkin.

Bir hujayrali hayvonlarni aksariyati $+8^{\circ}$ - $+10^{\circ}$ issiqda ham bemalol yashashi mumkin, lekin ushbu haroratda ular ko'paymaydi. Ularning shiddat bilan ko'payishi optimal ($+14^{\circ}$ - $+20^{\circ}$ S) haroratda boradi.

Tabiatdan olib kelingan va laboratoriyada shisha stakanlarga bo'linib, deraza oldiga qo'yilgan namunalarni 3-4 kun davomida qo'l lupalari yordamida ko'rib, bir hujayralilarning borligiga ishonch hosil qilish lozim. Agarda idishdagi namunalarda bir hujayralilarning dushmanlari (yirtqichlari) hisoblanmish siklop, dafniya yoki to'garak chuvalchaglardan og'izaylang'ichli (kolovratka) ko'p bo'lsa, bunday namuna to'kib tashlanadi. Ayrim hollarda tomizg'ich (pipetka) bilan namunadan $1-2\text{ sm}^3$ hajmda suv soat oynachasiga o'tkazilib, binokulyar (MBS-1) mikroskopda ko'riladi. Agar namunada bir hujayrali hayvonlar kam yoki juda siyrak bo'lsa, bunday namunali idishga 5-6 tomchi qaynatilmagan sut tomiziladi. Sutni har hafta bir marta yoki oyiga 3-4 marta tomizish tavsiya etiladi. Sut o'rniga 2-3 g kraxmal (kartoshka uni) sepilsa ham bo'ladi. Bundan tashqari sut yoki kraxmal o'rniga sulii, guruch, bug'doy yoki tariq qaynatmasi ishlatilsa ham yaxshi natija beradi. Qaynatmani tayyorlash uchun yuqorida aytilgan donlarning birontasidan 50 g o'lchab olinib,

bir litr suvda 15-30 minut qaynatiladi va sovutilib, shishaga solib, og'zi mahkamlanadi. Ushbu qaynatmadan har 15 kunda bir marta 5-10 sm³ hajmda idishdagi namunaga qo'shiladi.

Umurtqasiz hayvonlarni ochish va o'rganish usullari

Umurtqasiz hayvonlar anatomiyasini o'rganish ichini ochish orqali bajariladi. Ushbu turdagi ishlar nisbatan yirik va gavda bo'shlig'iga ega bo'lgan hayvonlarda, jumladan chuvalchanglarda (nematodalar, ko'ptukli va kamtukli halqalilar, zuluklar), yumshoqtanlilar, qisqichbaqasimonlar, o'rgimchaksimonlar, ko'poyoqlilar, hasharotlar kabilar bilan olib borilishi ancha qulay, lekin ancha murakkab ish hisoblanadi. Bunday ishni amalga oshirishdan asosiy maqsad hayvonlar teri-muskul xaltasi ichidagi yoki teri qoplag'ichi ostidagi organ va sistemalarining turi, joylashishi, ularning morfologik hamda anatomik tuzilishi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishdan iboratdir.

Talabalar hayvonlarni ichini ochishga kirishishidan oldin talab etiladigan barcha qoida va usullarni bilish hamda ishni bajarish uchun kerak bo'lgan zaruriy jihoz va asboblarni, jumladan, turli katta-kichiklikdagi jarrohlik va anatomik pichoq (skalpel)lar, qisqich (pinset)lar, turli uchli va kattalikdagi qaychilar, qo'l va stol lupalari, Petri idishlari, parafinli idishlar (vannochkalar), preporaval (to'g'rilagich) va entomologik ignalar, suvli idishlar, tomizgichlar, paxta, filtr qog'ozi, buyum va qoplag'ich shishalar kabilar tayyorlab qo'yilgan bo'lishi lozim.

Talaba aytilgan asbob va jihozlarning qaysi biridan qachon va qanday qilib foydalanish qoidalaridan xabardor bo'lishi kerak. Ichi ochilishi kerak bo'lgan hayvon tirik holda tabiatdan yoki laboratoriyada saqlanadiganlaridan olinadi va u efir, spirt yoki xloroformda jonsizlantiriladi hamda parafinli idishga (vannochkaga) qorin tomoni bilan yotqizilib, ignalar bilan qadaladi. Igna qiya holda qadalishiga e'tibor berish kerak. Agarda igna tik qadalsa, hayvonni ochishda u xalaqit berishi mumkin. Umurtqasiz hayvonlarni aksariyatida (halqali chuvalchanglar, qisqichbaqasimonlar, o'rgimchaksimonlar, ko'poyoqlilar, hasharotlar) nerv sistemasi qorin tomonida joylashganligi hisobga olinadigan bo'lsa, qorin tomondan ochilsa, nerv sistemasi shikastlanishi mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, yangidan o'ldirilgan hayvonning ichki organlari ochilib o'rganilsa, undagi organ va to'qimalar hali qotmagan bo'ladi. Bu esa ularni ko'rish va o'rganishni ancha osonlashtiradi. Bordiyu ochish uchun tirik obekt (hayvon) bo'lmasa, uning o'rniga 4-5% li formalin yoki 70⁰ li spirtida fiksatsiyalangan materialdan (hayvondan) foydalanish mumkin.

Hayvonni parafinli idishga qorin tomoni bilan yotqizib, qadagandan so'ng o'tkir uchli mayda qaychi bilan gavda qoplag'ichi (terisi) gavdaning orqa uchidan oldingi uchiga qarab bo'ylama kesim bilan ochiladi. Ba'zan o'ldirilgan hayvon (qisqichbaqa, ko'poyoq, hasharot kabilar) qo'lda ushlab kesish ancha

qulay bo'ladi. Kesilgan teri yon tomonlarga qisqich bilan ohista tortilib igna bilan qadaladi. Ochilgan hayvon ustidan toza suv solinib, vaqti-vaqti bilan tozalanib turiladi, chunki toza suvli muhitda ichki organlarni o'rganish ancha qulay bo'ladi. Agarda suv ifloslanib qolsa, uni to'kib, yangidan tozasi solinadi.

Ichki ochilgan hayvon qo'l lupasi ($10\times, 20\times$) bilan kuzatilib, ichki organ va sistemalari o'rganiladi. Agar qo'l lupasi bilan ushbu ishni davom ettirish imkoniyati bo'lmasa, o'rganishni stol lupasi yoki binokulyar mikroskopda olib borish mumkin.

Umurtqasizlar zoologiyasining laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida o'rganiladigan hayvonni shakli, tashqi organlarining tanadagi joylashishi hamda ichki organ va sistemalarining tuzilishi maxsus tutilgan daftarga (rasm daftari tutilishi kerak) chizilib, yozuvlar bilan ifodalab boriladi. Daftarga chizilgan hayvonning tuzilish rasmi, undagi organ va qismlarining gavdaga nisbati to'g'ri aks ettirilishi kerak. Rasm zoologik jihatdan texnik ish ekanligini aks ettirishi kerak. Rasmni juda chiroyli va badiiylashtirishga urinmaslik kerak. Bunday ishni talabga javob bermasligini talabalar e'tiboriga oldindan yetkazib qo'yish lozim. O'rganilgan hayvonning tuzilishi, gavda qismlari, shakli, ichki organlarining tuzilishi, joylashgan joyi va hakovolar to'la bajarilgandan keyin, ushbu qism va organlar hamda sistemalar raqam va yozuvlar bilan ifodalanishi kerak.

Bir hujayrali hayvonlar kichik olami evolyusion jarayonning ma'lum bir nuqtasigacha rivojlanib kelgan guruhi sifatida zoologiya faniga dastlabki ma'lumotlar XVII asrning 70 - chi yillarida, mikroskop kashf qilingandan keyingina ma'lum bo'ldi.

Tuzilishi. Bir hujayrali hayvonlarning kattaligi o'rtacha 50-100 mikronga teng. Bu hayvonlar orasida juda mayda (2-5 mikron) turlari bilan birga, o'lchami 3-5 mm, hatto 2-5 sm keladiganlari ham bordir. Gavda shakli ham turli-tuman, ya'ni yumaloq, ovalsimon, duksimon, ipsimon, yulduzsimon va boshqa shakllarda bo'ladi.

Bir hujayralilarning tanasi ikki asosiy qismdan, ya'ni sitoplazma va yadro dan iborat. Sitoplazma tashqi tomondan nozik elastik parda - pellikula (membrana) bilan o'ralgan. Bu pardaning qalinligi o'rtacha $75 \text{ \AA}^0$ (angestrem) ga teng. Parda uch qavatdan tashkil topgan bo'lib, ikki chetdagilari oqsillardan, o'rtadagisi esa lipid (yog'simon moddalar) dan iborat.

Sitoplazma o'z navbatida ikki qavatdan, ya'ni parda ostida joylashgan ancha quyuq, tiniq ekto plazmadan va donador, ancha suyuq endoplazmadan iborat. Sitoplazmada xilma - xil organoidlar, jumladan metaxondriylar, endoplazmatik to'r, ribosomalar, Goldji apparati, lizasomalar, hujayra markazi va boshqalar bo'ladi. Sitoplazmada shuningdek, bir hujayrali hayvonlar uchun xos bo'lgan ixtisoslashgan turli shakldagi maxsus organoidlar, jumladan tayanch va qisqaruvchi tolachalar, ovqat hazm qiluvchi vakuolalar, qisqaruvchi va ajratish vakuollari bo'ladi. Yuqorida qayd qilingan organoidlar bir hujayrali hayvon hayotida ma'lum bir vazifani bajaradi. Masalan, mitoxondriylar

energiya bilan ta'minlaydi, endoplazmatik to'r yog' tomchilarini hosil qilish va tanadan zaharli birikmalarni tashqariga chiqarishni amalga oshiradi; Goldji apparati esa lizosomalarni hosil bo'lishida, organik birikmalarni to'plash va hujayradan tashqariga chiqarish vazifasini utaydi.

Qisqaruvchi vakuol bitta yoki ikkita bo'lib, moddalar almashinuvida hosil bo'lgan ortiqcha birikmalarni suv bilan birga qo'shib, tashqariga chiqarib, hujayra ichida osmotik bosimni tartibga solib turadi.

Bir hujayrali hayvonlarda yadro bitta, ikkita, ayrim hollarda esa ko'p, ba'zan yuztagacha bo'ladi. U struktur va biokimyoviy jihatdan ko'p hujayrali organizmlarning hujayra yadrosiga o'xshash; lekin yadro suyuqligi (karioplazma) miqdori, shakli, katta-kichikligi, yadrochalarning soni va joylashishi bilan farqlanadi. Yadro ikki qavat nozik pardadan iborat membrana (kariolemma) bilan o'ralgan. Membranada sitoplazma bilan aloqalar bog'lash uchun juda ko'p sonda teshikchalar bo'ladi.

Yadro hayvonning barcha hayotiy funksiyalarida faol ishtirok etuvchi muhim qismlardan biri hisoblanadi.

Bir hujayralilarning maxsus organoidlari qatoriga harakatlanish organellalari ham kiradi. Bu harakatlanish organellalarini uch xili farqlanadi, ya'ni yolg'on oyoqlar (psevdopodiyalar), xivchinlar va kiprikchalar. Harakatlanish organellalari protoplazmatik o'simtalar hisoblanib, murakkab tuzilishga egadir.

Oziqlanishi. Bir hujayralilar oziqlanish usuliga qarab autot-roflar va geterotroflarga bo'linadi. Autotrof usulda oziqlanuvchi bir hujayralilarning tanasida yashil rangli xlorofill donalariga ega bo'lgan xromotoforalar yordamida yorug'lik ishtirokida anorganik birikmalardan organik birikmalarni sintezlaydi (fotosintez). Masalan, yashil rangli o'simliksimon xivchinlilar avtotrof bir hujayralilar hisoblanadi. Bir hujayralilarning aksariyati geterotrof usulda: ya'ni tayyor oziqani qabul qilish bilan oziqlanadi. Geterotrof oziqlanish saprofit va parazit xillarga bo'linadi. Ayrim bir hujayralilar haqiqiy hayvon singari gozozoy usulda, ya'ni bakteriyalar, mayda suv o'tlari va boshqa mikroorganizmlar bilan oziqlanadi. Gozozoy usulda ovqatlanadigan bir hujayralilarda ovqatlanish organellalari: og'iz, halqum va hazm qilish vakuollari bo'ladi. Oziqa zarrasi shu ovqat hazm qilish vakuollari ichida parchalanadi va so'riladi. Ayrim yashil bir hujayralilar (masalan, yashil evglena) yorug'likda haqiqiy o'simlik singari avtotrof oziqlansa, qorong'i joyda esa yashil rangini yo'qotib, saprofit usulda ovqatlanishga o'tadi. Lekin tajribalarda shu narsa aniqlanganki, yashil evglena ba'zan yorug'da ham organik moddalar bilan oziqlanadi. Bunday aralash oziqlanish usuli **miksotrof** deyiladi.

Ko'payishi. Bir hujayrali hayvonlarda ko'payishning xilma-xil shakllarini ko'rish mumkin. Bular orasida eng oddiy va qadimiy ko'payish usuli ikkiga bo'linish yo'li bilan amalga oshirishdir. Ikkiga bo'linish yoki jinssiz ko'payishda avval yadro ikkiga bo'linadi, keyin butun tana ham ikkiga bo'linib, bitta ona individdan ikki yosh (qiz) individ hosil bo'ladi. Ikkiga bo'linish yo'li

bilan jinssiz ko'payish haqida gap borar ekan, shuni qayd etish lozimki, ko'pchilik bir hujayralilar bo'yiga qarab ikkiga ajralsa, ayrimlari esa (infuzoriyalar) ko'ndalangiga bo'linadi. Ba'zi bir hujayralilar kurtaklanish yo'li bilan jinssiz ko'payadi. Buning uchun yadro ikkiga ajraladi, keyin tananing bir qismi bo'rtib chiqadi va kurtakka aylanadi, yadroning bir qismi esa bo'rtib chiqqan kurtak ichiga kelib joylashadi. Shundan so'ng kurtak ona tanadan uzilib, yosh individga aylanadi.

Bir hujayralilarda jinssiz ko'payishning yana bir usuli bo'lib, u **shizogoniya** deb ataladi. Shizogoniya jinssiz ko'payishda yadro bir necha bo'laklarga (ba'zan 32 va undan ko'pga) parchalanadi va har bir yadro bo'lakchasi o'z atrofiga ma'lum miqdorda sitoplazmani olib, pardaga o'ralib, yosh individlarga aylanadi.

Shizogoniya yo'li bilan jinssiz ko'payish bir hujayralilar orasida sarkodalilar va sporallilarda uchraydi. Bu usulda jinssiz ko'payish qisqa vaqt davomida individlarning sonini haddan tashqari tez ortib borishini ta'minlaydi.

Bir hujayralilarda jinsiy ko'payish usuli ham turli ko'rinishlarda bo'ladi. Eng qadimiy jinsiy ko'payish usuli gametalarni hosil bo'lishi va ularni o'zaro qo'shilishi (kopulyasiyasi) bilan amalga oshadi. Kopulyasiyada qatnashuvchi urg'ochi va erkak gametalarning katta-kichikligi, tuzilishi va tabiatiga qarab izogam, anizogam va oogam kopulyasiyalar farq qilinadi.

Katta-kichikligi bir xil bo'lgan gametalarning qo'shilishi izogam kopulyasiya deyiladi. Masalan, xivchinlilardan politoma turida jinsiy qo'payish bir-biriga teng bo'lgan gametalarning hosil bo'lishi va qo'shilishi bilan sodir bo'ladi. Ayrim bir hujayralilarda, masalan sporallilarning qon sporallilar turkumidagi turlar jinsiy ko'payishda bir-biriga teng bo'lmagan, har xil katta-kichiklikdagi gametalarning hosil bo'lishi va qo'shilishi bilan amalga oshadi. Qo'shilishda qatnashuvchi gametalarning biri yirikroq va kam harakat bo'lib, u makrogameta (urg'ochi gameta) deyilsa, boshqa biri kichikroq va harakatchandir. U mikrogameta (erkaklik gametasi) deyiladi. Bunday gametalarning qo'shilishi anizogamiya kopulyasiya deyiladi.

Nihoyat bir hujayralilarning jinsiy qo'payishida oogamiya kopulyasiya ham mavjud bo'lib, xivchinlilarning koloniya (to'p) bo'lib hayot kechiruvchi volvokssimonlar oilasida uchraydi. Volvoksning ba'zi koloniyalarida tuxum hujayrasi, ba'zi koloniyalarida esa urug'don bo'lib, unda spermatozoidlar hosil bo'ladi yoki ayrim turlarida bitta koloniyaning o'zida ham tuxum va ham spermatozoidlari yetishadi. Bunday jinsiy hujayralarning o'zaro qo'shilishi oogamiya kopulyasiya deyiladi. Umuman olganda gametalar qanday usulida qo'shilishidan qat'iy nazar oqibatda zigota hosil bo'ladi. Zigotadan esa yangi yosh individ rivojlanadi. Bir hujayrali hayvonlar orasida ayrim guruhlar (infuzoriyalar) jinsiy ko'payishni kon'yugasiya usuli bilan amalga oshiradi.

Bir hujayrali hayvonlarning biologik xususiyatlaridan biri ularning sistaga (qalin po'stga) o'ralish qobiliyatidir.

Hayvon uchun noqulay sharoit yuzaga kelganda, ya'ni suv havzasining qurib qolishi, muhit temperaturasining keskin pasayishi, kimyoviy zaharli mahsulotlar va hakovzalar ta'sirida sistaga o'ralib, tinch davrga o'tib oladi. Buning uchun hayvon yumaloqlanadi, harakatlanish organellalarini yig'ib, tanani tashqi yuzasiga sitoplazma hisobidan suyuqlik ajratadi. Bu suyuqlik yuzaga chiqishi bilanoq qotib, po'st hosil qiladi. Qalin po'stga o'ralgan hayvon atrof muhitning noqulay sharoitlariga chidamli bo'ladi va ma'lum davr davomida o'zining tiriklik qobiliyatini saqlab qoladi.

Ko'pgina bir hujayralilar sista holatida passiv ravishda suv va shamol yordamida, xilma-xil o'simlik va hayvonlar bilan hamda tuproq bilan o'zoq masofalarga tarqalishi mumkin. Sistaga o'ralgan hayvon qo'lay sharoitga tushishi bilanoq po'stini tashlab, yana aktiv hayot kechirishga o'tadi.

Bir hujayrali hayvonlarning sistaga o'ralish qobiliyatining mavjudligi shu hayvonlar uchun juda katta biologik ahamiyatga ega, chunki yuzaga kelgan noqulay sharoitlar ta'sirida qirilib ketmasligi uchun **sista** ularni tiriklik qobiliyatini saqlab qoladi va turni tur sifatida mavjud bo'lib qolishi imkonini beradi. Bu jarayon bir hujayrali hayvonlar evolyusiyasida shakllangan muhim belgi hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, ba'zi bir hujayrali hayvonlarning sistaga o'ralishi ularning ko'payishi va hayot sikli bilan bog'liqdir. Masalan, odam ichagida yashovchi ayrim amyobalarning (ichburug' amyobasi, ichak amyobasi) tashqi muhitga chiqishi oldidan sistaga o'ralishini ko'rsatib o'tish mumkin.

Tarqalishi. Hozirgi kunda bir hujayrali hayvonlarning 30 mingdan ortiq turlari mavjud bo'lib, ular dengiz va okean suvlarida, xilma-xil chuchuk suv havzalarida hamda nam tuproqda keng tarqalgan. Erkin yashovchi bir hujayralilar dengiz suvining turli chuqurligida yashaydi, Ular qirg'oq (litoral) zonadan tortib, juda chuqur qatlamlarda (abissal zonada) ham bemalol yashay oladi. Bunday bir hujayralilarga nursimonlar, xivchinlilar va infuzoriyalarning ayrim vakillarini ko'rsatish mumkin. Ko'pchilik bir hujayralilar suv havzasining planktoni va bentosi ko'rinishida hayot kechiradi. Nihoyat bir hujayralilarning 7 mingga yaqin turlari parazitlik bilan hayot kechirishga moslashgan bo'lib, xilma-xil umurtqasiz va umurtqali hayvonlarda, shuningdek odamlarda xavfli kasalliklarni kelib chiqishiga sababchi bo'ladilar.

SARKOMASTIGOFORALAR TIPI - SARCOMASTIGOPHORA.

Sarkomastigoforalar bir hujayrali hayvonlarning 20 mingga yaqin turini o'z ichiga oladi. Bu hayvonlarning xarakatlanish organellalari yolg'on oyoqlar (pseudopodiylar) yoki xivchinlardan iborat. Ba'zi turlarida ham yolg'on oyoqlar va ham xivchinlar bo'ladi. Ayrim turlarida esa hayotining ma'lum davrida yolg'on oyoq bo'lsa, ma'lum davrida xivchin hosil qiladi.

Sarkomastigoforalar tabiatda ancha keng tarqalgan, lekin aksariyati dengiz va okeanlarda, daryo va ko'llarda, ariq va hovuz suvlarida yashaydi. Shuningdek bu tip bir hujayralilarining ayrim turlari ba'zi umurtqasiz va

umurtqali hayvonlar bilan simbioz holda, anchagina turlari esa parazitlik bilan hayot kechirishga moslashgan.. Sarkomastigoforalar tipi ikkita sinfga bo'linadi, ya'ni Sarkodalilar - **Sarcodina**. Xivchinlilar - **Mastigophora**.

Sarkodalilar yoki yolg'on oyoqlilar sinfi – Sarcodina. Sarkodalilar uchun xos belgilardan biri ularda yolg'on oyoqlarning bo'lishidir. Bu organellalar harakatlanish va oziq zarrasini tutib (ba'zilarida qamrab) oluvchi har xil shakldagi muvaqqat protoplazmatik o'simalardir.

Sarkodalilarning tanasi nozik membrana bilan qoplangan yalong'och bo'ladi, lekin anchagina turlari tarkibi anorganik va organik birikmalardan tashkil topgan, har xil shakldagi chig'anoqlar bilan o'ralgan. Bu sinfga xilma-xil tarzda hayot kechirishga moslashgan bir hujayralilarning 11 mingdan ortiq turi kiradi. Ko'pchiligi erkin yashovchi bo'lib, dengiz va okeanlarda, daryo va ko'llarda, hovuz va ariq suvlarida, sholipoyalarda, shuningdek nam tuproqda uchraydi.

Sarkodalilar sinfi ildizoyoqlilar, nurlilar va quyoshlilar kenja sinflariga bo'linadi.

Ildizoyoqlilar kenja sinfi – Rhizopoda. Bu kenja sinfga kiruvchi sarkodalilar tanasining turli-tuman shakllarda bo'lishi, yolg'on oyoqlarining harakatchanligi va sitoplazmasining zonalarga (qatlamlarga) ancha kam ixtisoslashgani bilan xarakterlanadi. Bu kenja sinf qo'yidagi turkumlardan iborat.

Amyobalar turkumi – Amoebina. Amyobalar ancha sodda tuzilgan, yalong'och sarkodalilarni o'z ichiga oladi. Amyobalarning asosiy ko'pchiligi chuchuk suv havzalarida, ayrimlari dengizlarda va nam tuproqda yashaydi. O'lchami 10-15 mkm dan 2-3 mm gacha. Biroz turlari parazitlik bilan hayot kechirib xavfli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Chuchuk suv amyobalari orasida ancha yirik, kattaligi 0,4-0,5 mm keladigan oddiy amyoba - **Amoeba proteus** keng tarqalgan. Oddiy amyobaning hosil qilgan yolg'on oyoqlari normal sharoitda kalta va keng bo'ladi. Lekin turli ta'sirlar (taksislar) natijasida hosil bo'lib turadigan oyoqlar turli xil shakl va uzunlikda bo'lishi mumkin.

Amyobaning sitoplazmasi aniq ikki qavatdan, ya'ni tashqi qavat - ektoplazmadan va ichki qavat - endoplazmadan iborat. Ektoplazma tiniq, shaffof, ancha quyuq plazmadan iborat bo'lsa, endoplazma ancha suyuq va donadordir. Tirik amyoba mikroskopda ko'zatilganda sitoplazmasida bir dona ovalsimon yadro, qisqaruvchi vakuol va bir nechta ovqat hazm qilish vakuollari aniq ko'rinib turadi. Shuning bilan birga amyoba tanasi siljib (oqib) borayotgan tomonda sitoplazmasining harakatlanishi tufayli, yangidan-yangi yolg'on oyoqlarning paydo bo'layotganini ko'rish mumkin. Bu yolg'on oyoqlar harakatlanish va oziq zarralarini qamrab olish organellalari hisoblanadi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, chuchuk suvda hayot kechiruvchi amyobalarda qisqaruvchi vakuol albatta bo'ladi, chunki uning asosiy vazifalaridan biri tanada moddalar almashinuvi jarayonida hosil bo'lgan ortiqcha keraksiz suyuqliklar (ekskret) ni vaqti-vaqti bilan (har 3-5 minutda bir

marta) qisqarib tashqariga chiqarib turishdan iborat va shu asosda sitoplazmadagi osmotik bosimni tana atrofida bosim bilan muvozanatlashtirib turadi. Aks holda sitoplazma konsentrasiyasi oshib, ichki bosim ko'tarilib tana shishadi va amyobani halok bo'lishiga olib keladi.

Ovqat hazm qilish vakuollari amyoba tanasida bir vaqtning o'zida bir nechta bo'lishi mumkin. Uning soni qabul qilingan oziqa zarralarining soniga bog'liqdir. Amyoba o'zidan ancha kichik bo'lgan bir hujayrali hayvonlar, bakteriyalar, suv o'tlari, shuningdek o'lgan to'qima zarralari (detrit) bilan oziqlanadi. Oziqlanish qo'yidagicha, ya'ni siljib borayotgan tomon, amyoba birorta oziqa zarrasiga yoki mikroorganizmga duch kelsa, uni psevdopodiylari bilan o'rab, qamrab oladi va zarracha sitoplazma ichiga kirib qoladi. Shu paytning o'zida zarra atrofida vakuol hosil bo'ladi va vakuol ichiga endoplazma hisobidan ovqatni parchalovchi va qayta ishlovchi fermentlar oqib keladi. So'rilishga tayyor bo'lgan oziqa tanaga so'riladi, hazm bo'lmay qolgan qismi esa vakuol bilan birga tananing biror chetiga kelib tashqariga chiqarib tashlanadi.

Amyobalarda doimiy og'iz va chiqarish teshigi bo'lmaydi, balki ular tananing istagan joyida paydo bo'lishi mumkin.

Elektron mikroskop yordamida olib borilgan tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, amyobalar ikkinchi usulda ham, ya'ni tayyor oziqa moddalarini butun tana sathi bilan (pinositoz usulda) so'rib oziqlanishi ham mumkin ekan.

Amyobalar ikkiga bo'linish yo'li bilan jinssiz ko'payadi. Bu jarayonda birinchi navbatda yadro mitoz yo'li bilan ikkiga bo'linadi. Keyin tana ham cho'zila borib, ikkiga ajralib bitta ona amyobadan ikkita yosh amyoba hosil bo'ladi. Jinssiz bo'linish jarayoni qariyb bir soatda amalga oshadi. Amyobalarda jinsiy ko'payish usuli bo'lmaydi.

Amyobalar noqulay sharoitda, ya'ni suv havzasining qurishi, tuproqda namning keskin pasayishi va boshqa birqancha sabablar ta'sirida sistaga o'raladi. Buning uchun u yolg'on oyoqlarini yig'ib oladi, yumaloqlashadi va sitoplazma hisobidan tashqi yuzasiga suyuqlik ajratib chiqaradi. Bu suyuqlik qotib, mustahkam ikki qavatdan iborat po'stni hosil qiladi. Sista holatida amyobalar uzoq vaqtlar davomida o'z tiriklik xususiyatlarini saqlab qoladi va normal sharoit yuzaga kelganda, sistadan ajralib, yana faol hayot kechirishni davom ettiradi.

Amyobalar turkumining ayrim vakillari odam va ba'zi umurtqali hayvonlarning ovqat hazm qilish organlarida yashaydi. Masalan odamda 7 tur amyoba uchraydi, ya'ni og'iz amyobasi, Gartmann amyobasi, mitti amyoba Buyuchli yodamyobasi, dientamyoba, ichak amyobasi va dizenteriya (ichburug') amyobasi.

Bular orasida eng xavfli dizenteriya amyobasi (*Entamoeba histolytica*) hisoblanib, kattaligi 20-40 mikron keladi. U odamda ichburug' kasalligini keltirib chiqaradi. Amyobiaz ancha og'ir kechadigan, ba'zan esa bemorni o'limga duchor qiluvchi kasallikdir. Dizenteriya amyobasi odamda uch shaklda

bo'ladi, ya'ni yirik vegetativ shakli, kichik vegetativ shakli va sista shakli. Yirik vegetativ shakli yo'g'on ichak devorida yashab, o'zidan har xil oqsillarni erituvchi proteolitik fermentlar ajratib, ichak devori to'qimasini yemiradi, yaralar hosil qiladi, ichak devoridagi qon tomirlarini ham buzadi. Natijada ichak bo'shlig'iga qon oqib tushadi. Parazit amyoba qon tarkibidagi eritrositlar bilan oziqlanadi. Yirik vegetativ shakldagi amyobalarning ayrimlari qon tomirlari ichiga kirib, qon oqimi bilan turli ichki organlarga, ko'pincha jigarga borib, unda ham yiringli yaralar paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Yo'g'on ichak devoridagi amyobalarning bir qismi ichak bo'shlig'iga tushib, o'lchami o'rtacha 10-20 mikron keladigan kichik vegetativ shakllarga aylanadi. Ular zararsizdir va qoldiq mahsulotlar bilan oziqlanib, oxiri sistalarni hosil qilib tashqariga odam najasi bilan chiqariladi. Amyobiaz bilan kasallangan bemor bir sutkada 300 mln ga yaqin sistani tashqariga chiqarib turadi. Ichburug' amyobasining xarakterli belgisi shundan iboratki, uning sistalari to'rt yadroli bo'ladi. Bu belgi kasallikni aniqlashda juda muhim hisoblanadi. Shuningdek bemorning najasi suyuq hamda qon va yiringli bo'ladi. Ichburug' amyobasi Yer yuzida keng tarqalgan, ayniqsa issiq iqlimli kengliklarda ancha ko'p uchraydi.

Odamning yo'g'on ichagida ichak amyobasi (**Entamoeba coli**) ham bo'lib, u parazitlik qilmaydi va kasallik ham keltirib chiqarmaydi, balki zamburug'lar, qoldiq mahsulotlar bilan oziqlanadi. Bu amyobaning xarakterli belgisi shuki, tashqariga chiqarilgan sistalari aksariyat hollarda 8 yadroli, ba'zan esa 16-32 yadroli bo'ladi.

Chig'anoqli amyobalar turkumi – Testacea. Chig'anoqli amyobalar turkumining vakillari chuchuk suv havzalarida, ya'ni ko'l, hovuz, ariq va sholipoya suvlarida ko'p uchraydi. Ba'zan torfli botqoqliklarda ham topiladi. Chig'anoqli amyobalar suv tubida o'rmlab, bentos usulda hayot kechiradi. Tuzilishi jihatdan yalang'och amyobalarga o'xshash, lekin tanasi turli xil organik va anorganik birikmalardan tashkil topgan xilma-xil shakldagi chig'anoqlar bilan o'ralgan. Chig'anoq ichida gavda joylashib, psevdopodiylar chig'anoqning ma'lum joylarida ochilgan teshikchalar orqali tashqariga chiqib turadi. Bizning sharoitimizda bu turkumning arsell (Arcella), difflugiya (Diffugia) va euglifa (Euglipha) degan avlod turlari ancha ko'p uchraydi.

Foraminiferalar turkumi – Foraminifera. Foraminiferalar nazariy va amaliy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan bir hujayralilar guruhidir. Bular qariyb 1000 turni tashkil etib, dengizlarning turli chuqurliklarida yashashga moslashgan. Foraminiferalar boshqa sarkodalilardan chig'anoqlarining tuzilishi va shakli, psevdopodiylarning shakli hamda ko'payish usuli bilan farqlanadi. Chig'anoq tarkibi ohakdan, ba'zilarida esa organik moddadan iborat. Ular bir kamerali va ko'p kamerali (ba'zan 100 dan ortiq) bo'ladi. Chig'anoq atrofida juda ko'p teshikchalar bo'lib, (foraminifera degan nom ham shundan kelib chiqqan) ular orqali psevdopodiylar tashqariga chiqib turadi. Bu psevdopodiylar ingichka, uzun ipsimon va bir-biriga qo'shilib keng tutqich hosil qiladi. Psevdopodiylar ichida sitoplazmaning har doim harakatlanib turishini ko'rish

mumkin. Foraminiferalarning psevdopodiylari **rizopodiylar** deyilib, ular harakatlanish, oziqani tutib olish va qisman ovqatni hazm qilishda qatnashadi.

Foraminiferalar ikki yo'l bilan, ya'ni jinsiz va jinsiy ko'payadilar. Jinsiz ko'payish bo'linish yo'li bilan amalga oshsa, jinsiy ko'payish esa gametalar hosil qilish va ularning o'zaro qo'shilib zigotaga va nihoyat zigotadan yosh individ hosil bo'lishi bilan ifodalanadi.

Shuni aytish lozimki, ba'zi foraminiferalar masalan, **Elphidium crista** turida jinsiz va jinsiy ko'payish gallanadi.

Foraminiferalar juda qadimgi bir hujayralilardir. Ular kembriy va silur davrlarida (paleozoy erasi) paydo bo'lgan cho'kmalardan ma'lum. Ohaktosh va yashil qumtoshlarning ko'pgina qatlamlari asosan foraminiferalar qoldiqlaridan iborat. Bunday qatlamlar Yer yuzida juda keng tarqalgan. Markaziy Osiyo, Kavkaz, Himolay tog'lari ham foraminiferalar chig'anog'idan hosil bo'lgan ohaktoshlar bilan qoplangan. Bunday qatlamlar geolog va arxeologlarga yerning ma'lum qatlami yoshini, aniqlashda hamda neft konlarini izlab topishda yordam beradi.

Nurlilar kenja sinfi – Radiolaria. Nurlilar sarkodalilarning o'ziga xos guruhi hisoblanib, faqat dengizlarda plankton usulda, ayrimlari suvning ancha chuqur (5000-8000 metr) qatlamlarida hayot kechiruvchi hayvonlardir. Hozirgi vaqtda nurlilar kenja sinfi 8 mingga yaqin turni o'z ichiga oladi.

Nurlilarning tuzili- shidagi xarakterli belgi shuki, gavda o'rtasida organik moddadan iborat markaziy kapsula bo'ladi. Kapsula plazmasida yadro 1 ta, 2 ta, ba'zan ko'p bo'lishi mumkin. Kapsula membranasida poralar bo'lib, uning yordamida ichki plazma kapsula atrofini o'rab olgan plazma bilan aloqa bog'lab turadi. Shuni aytish kerakki tashqi plazma juda kuchli vakuollashgan bo'ladi. Bu xususiyat hayvonni suvda plankton holda saqlanishiga imkon tug'diradi. Nurlilarning ko'pchiligi bir hujayrali mayda yashil suv o'tlari bilan simbioz yashashga moslashgan. Shunga binoan ularning tashqi plazmasida, ba'zan kapsula ichidagi plazmada ham ko'p sonda yashil suv o'tlari (zooksantellalar) uchraydi. Bu suv o'tlari nurlilarni nafas olishi uchun yordam beradi. Nurlilarda foraminiferalardagidek qisqaruvchi vakuol bo'lmaydi. Bu esa aksariyat dengiz bir hujayralilari uchun xos xususiyatdir.

Nurlilarning yolg'on oyoqlari gavdasining atrofidan har tamonga nurga o'xshab tarqalib turadi. Bu yolg'on oyoqlar foraminiferalarning yolg'on oyoqlariga o'xshash ipsimon shaklda va oziq zarralarini tutib turish yoki oziqlanishda ishtirok etadi. Bunday yolg'on oyoqlar rizopodiylar yoki **filopodiylar** deyiladi. Nurlilarning ko'pchiligida xilma-xil tuzilgan va ancha murakkab tarkibdagi skeletlari bo'ladi. Skeleti tarkibidagi moddalar orasida kremniy yoki stronsiy sulfat ko'p bo'lganligi sababli, shakllari uzoq vaqt davomida bo'zilmasdan saqlanadi.

Nurlilarning skeletlari foraminiferalar singari dengiz tubida cho'kindi jinslar hosil qiladi. Bu jinslar "tog' uni" (trepel) deyilib, sanoatda metallarni silliqlashda ishlatiladi. Bundan tashqari nurlilarning skeletidan iborat qatlamlar

yordamida cho'kindi jinslarning yoshini aniqlash usuli amalda keng qo'llaniladi. Suvi iliq bo'lgan dengizlarda nurlilarning vakillari ancha ko'p uchraydi. Bu turlarga **Thalassophysa pelagica**, **Acanthometra elastica** kabilarni ko'rsatish mumkin.

Quyoshlilar kenja sinfi – Heliozoa. Quyoshlilar ko'rinishi jihatidan nurlilarga o'xshash, lekin markaziy kapsula bo'lmaydi va ko'pchiligi chuchuk suvda yashaydi. Bundan tashqari quyoshlilarning tanasi sharsimon atrofi bo'ylab psevdopodiylar nurga o'xshab tarqalib turadi. Quyoshlilarning psevdopodiylari bo'ylab o'rtasidan nozik ip o'tadi. Bunday psevdopodiylar **aksopodiylar** deyilib, ular uzayish yoki qisqarish xususiyatiga ega. Shuningdek ular bir-biriga tutashib tur hosil qilishi ham mumkin.

Quyoshlilarning yana bir xarakterli xususiyati shuki, ularning tanasi endoplazma va ektoplazmaga aniq chegaralangan. Ektoplazmasida 1-2 ta qisqaruvchi vakuol joylashgan. Endoplazma donador bo'ladi va unda 1-ta yoki bir necha yadro bo'ladi. **Vakil Actinosphaerium eichhorni**

2 Ma'ruza

Mavzu: Ohakli bulutlar, shishasimon bulutlar va oddiy bulutlarni o'rganish uslublari

Reja:

1. Ko'p hujayrali hayvonlarning xususiyatlari. Ko'p hujayrali hayvonlarning kelib chiqishini isbotlovchi nazariyalar.
2. G'ovaktanlilar tipining tavsifi, ko'payishi va klassifikatsiyasi.
3. Ohakli bulutsimonlar sinfi
4. Shishasimon (kremniyli) bulutsimonlar sinfi
5. Oddiy bulutsimonlar sinfi

Hozirgi zamon zoologiya fanida eng yuqori taksonomik birlik hisoblangan turli-tuman tiplarni umumiy belgi va xususiyatlariga binoan guruhlariga ajratish zaruriyati sezilib turibdi. Bunday sistema shu hayvonlarni kelib chiqishi jarayonining umumiy yo'nalishdagi xususiyatlarini hamda ularni o'zaro filogenetik munosabatlarini aks ettirish lozim.

Barcha ko'p hujayrali hayvonlar (**Metazoa**) birinchi navbatda uchta katta bo'limga - fagositellazoalar (**Phagocytellozoa**), g'ovaklilar yoki parazoalar (**Parazoa**) va haqiqiy ko'p hujayralilar (**Eumetazoa**) ga ajraladi.

Fagositellazoa katta bo'limiga bitta tip, ya'ni plastinkali hayvonlar - (**Placozoa**), g'ovaklilar katta bo'limiga esa bulutsimonlar tipi (**Spongia**) mansubdir.

Plastinkali hayvonlar tipi yaqiningnada fanga ma'lum bo'lib, ular o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan, I.I.Mechnikov ta'riflab o'tgan "**fagositella**" ga o'xshash hayvonlarga yaqin guruh hisoblanadi.

Bulutsimonlar esa tanasining ixtisoslanmaganligi, nerv sistemasining bo'lmasligi va tanasidagi bir necha turdagi hujayralari funksional jihatdan birining ikkinchisiga aylanishi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar bulutsimonlarni ancha past taraqqiy etgan va sodda tuzilgan ko'p hujayralilar ekanligini ko'rsatadi.

Haqiqiy ko'p hujayrali (**Eumetazoa**) hayvonlar aksariyat tiplarni o'z ichiga oladi. Bu hayvonlar tanasining to'qimalardan iborat bo'lishi, nerv sistemasining rivojlanganligi va individlarida aniq ifodalangan xususiy belgilarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ushbu hayvonlar gavda simmetriyasi belgisiga binoan ikki bo'limga ajraladi. Ularning biri nurlilar (**Radiata**) yoki ikki qavatlilar (**Diploblastica**), ikkinchi bo'limi ikki tomonlama simmetriyalilar (**Bilateria**) yoki uch qavatlilar (**Triploblastica**). Nurli simmetriyalil hayvon gavdasi orqali simmetriya o'qiga mos keladigan bir nechta (ba'zan ko'p) tekisliklar o'tkazish mumkin va har safar o'tkazilgan ko'ndalang chiziq hayvon gavdasini simmetrik qismlarga bo'ladi. Nurli simmetriyalil hayvonlarda tananing markaziy o'qi atrofida ichki organlar ham nurli simmetriya usulda joylashgan. Bu ichki organlar 4 ta, 6 ta, 8 ta va ko'p sonda takrorlangan bo'lishi mumkin. Nurli simmetriyalil hayvonlarga kovakichlilar va taroqlilar kiradi. Bu hayvonlarda nurli simmetriya belgisining bo'lishi bilan birga, ularning ontogenezida aniq shakllangan ikki qavat, ya'ni ektoderma va entoderma bo'ladi. Mezoderma rivojlanmagan.

Ikki tomonlama simmetriyalilarda tananing bo'ylama o'qi orqali o'tadigan ko'ndalang chiziq, tanani ikkita bir-biriga o'xshash (chap va o'ng) bo'laklarga ajratadi. Bu bo'limga kiruvchi hayvonlarning ontogenezida uch qavat, ya'ni ektoderma, entoderma va ular orasida mezoderma shakllanadi. Ushbu bo'limga yassi chuvalchanglardan boshlab barcha tip hayvonlari kiradi. Lekin ikki tomonlama simmetriyalil tuzilish belgisi ayrim ko'p hujayralilarda, jumladan qorin oyoqli mollyuskalarda va ignatanlilarda bo'zilib yo asimmetrik belgini yoki 5 nurli simmetriya belgisini hosil qiladi. Aslida esa bu hayvonlarning tuzilishidagi bu belgi ikkilamchi xarakterda bo'lib, ularning filogenezida ham, ontogenezida ham nurli simmetriya belgisi ikki tomonlama simmetriya asosida paydo bo'lgandir.

Ikki tomonlama simmetriyalil hayvonlarni klassifikasiyalashda yana ularni gavda bo'shlig'ining bo'lish-bo'lmasligiga ham e'tibor beriladi. Gavda bo'shlig'i deganda tana devori bilan ichki organlar orasidagi bo'shliqqa aytiladi. Shunday bo'shliq yassi chuvalchanglar bilan nemertinalarda bo'lmaydi va u birlashtiruvchi to'qima hisoblanuvchi parenxima suyuqligi bilan to'lgan bo'ladi. Yumaloq chuvalchanglar bilan tikanboshlilarda birlashtiruvchi gavda bo'shlig'i hosil bo'lib, undagi suyuqlik gavdaning tayanch hamda boshqa muhim fiziologik funksiyalarni bajaradi.

Ikki toonlama simmetriyalilar yana ikkilamchi gavda bo'shliqli (selom) guruhni ham hosil qiladi. Bularga halqali chuvalchanglar, ignatanlilar, yarimxordalilar va xordalilar kiradi. Selom ontogeneza mezodermadan hosil bo'lib, u o'zining haqiqiy devoriga ega va bu epitelial hujayralardan iborat devori selomni hayvonning ichki organlari hamda tana devoridan ajratib turadi. Selomda jinsiy hujayralarning o'sishi va yetilishi sodir bo'ladi. Shuningdek selom ichidagi suyuqlik hayvonning ichki tayanchini hosil qiladi hamda u nafas olish va ajratish jarayonlarida ham ishtirok etadi.

Gavda bo'shlig'iga ega bo'lgan (**Coelomata**) barcha hayvonlar ikkita katta guruhga - birlamchi og'izlilar (**Protostomia**) va ikkilamchi og'izlilarga (**Deuterostomia**) ajratiladi. Birlamchi og'izlilarga halqali chuvalchanglar, mollyuskalar, bug'imoyoqlilar va onixoforalar kiradi. Ularning embrional rivojlanishi davrida hosil bo'lgan birlamchi og'iz yoki blastopor, voyaga yetgan davrda ham og'iz teshigi bo'lib qoladi. Ikkilamchi og'izlilarda esa embrional rivojlanish davrida hosil bo'lgan birlamchi og'iz (blastopor) voyaga yetgan hayvonning chiqarish teshigiga aylanadi, haqiqiy og'iz esa keyinchalik chiqarish teshigi joylashgan qarama-qarshi qutbda hosil bo'ladi. Bu guruhga ignatanlilar, yarim xordalilar va xordalilar kiradi. Lekin ayrim hayvonlarni xususan pogonoforalar (**Pogonophora**), qiljag'lilar (**Chaetognatha**) va paypaslagichlilar (**Tentaculata**) ning tuzilishidagi ayrim xususiyatlar va embrional rivojlanishining ba'zi belgilari ikkala guruh belgilaridan chetga chiqadi.

Ehtimol keyingi uch tip hayvonlarining evolyusion rivojlanishi o'ziga xos yo'l bilan boradi. Bu yo'l birlamchi og'izlilar va ikkilamchi og'izlilarga nisbatan mustaqil rivojlanish yo'li bo'lishi mumkindir.

Bulutsimonlar yoki g'ovaktanlilar tipi- Spongiya et Porifera

Bulutsimonlarga mansub bo'lgan ko'p hujayralilarni zoologlar uzoq vaqtlargacha hayvonlar olamiga qo'shmagan va faqatgina 1825 yilda ularni haqiqiy hayvon ekanligi tan olindi.

Bulutsimonlar past taraqqiy etgan ko'p hujayralilar bo'lib, aksariyati dengizlarda, ayrimlari chuchuk suvlarda o'troq hayot kechirishga moslashgan. Shuni xarakterlik, ular umr bo'yi harakatlanmasdan suv tubidagi biron-bir narsaga yopishib, passiv hayot kechiradi. Bulutsimonlarning aksariyati koloniya hosil qilib, ba'zilar yakka-yakka holda yashaydi. Gavdasi simmetrik tuzilish xususiyatiga ega emas, lekin ayrim yakka yashovchilarida qisman nurli (radial) simmetriya tuzilish alomatlari namoyon bo'ladi. Ularda organ va to'qimalar juda ham past ixtisoslashgan. Nerv sistemasi umuman bo'lmaydi. Bulutsimonlarning tana skeletini hosil qiluvchi birikmalardan CaSO_3 , SiO_2 ko'p bo'ladi. Ba'zilarida esa organik birikmadan (spongin) iborat skelet elementlari mavjud.

Bulutsimonlar tipiga 5000 ga yaqin tur kiradi.

Tuzilishi. Koloniya holida yashovchilarida tana aniq bir shaklga ega emas. Yakka holdagi turlarining gavda shakli ko'zachasimon, sharsimon, xaltachasimon yoki chuqur bokalsimon bo'ladi. Tananing substratga yopishib turgan pastki qismi tovon, unga qarama-qarshi ustki ochiq tomoni oskulum deyiladi. Yakka holdagi bulutsimonlarning tanasini morfologik tuzilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, ular askon, sikon va leykon xillarda bo'ladi. Bu xillarni tuzilishini bir-biriga taqqoslasak, ularni oddiy tuzilishdan murakkablashish tomonga qarab borganligini aniq ko'rish mumkin. Masalan, askon tuzilishdagi hayvon turini olsak, uning tanasi ikki qavat hujayralardan, ya'ni tashqi-dermal (entoderma) va ichki-gastral (endoderma) qavatlardan iborat. Bu ikkala qavat orasida strukturasiz suyuqlik hisoblanuvchi mezogleya joylashgan. Dermal qavat yassi epiteliy hujayralaridan (pinakositlardan) iborat bo'lsa, gastral qavat yuzasi esa yoqachali xivchinli hujayralardan, ya'ni xoanositlardan iborat. Bunday xoanositlar ko'p hujayralilar orasida faqat bulutsimonlarda uchraydi. Bir hujayralilardan esa zoomastiginalarning xoanoflagellata (yoqachali xivchinlilar) turkumi vakillarida uchraydi. Bunday o'xshashlik bulutsimonlarni koloniya bo'lib yashovchi yoqachali xivchinlilar bilan filogenetik munosabati mavjudligidan dalolat beradi.

Bulutsimonlar tanasida juda ko'p teshikchalar (poralar) bo'lib, ular o'z kanallari yordamida suvni paragastral bo'shliqqa olib kirganda xoanasitli qavat bilan aloqada bo'ladi. Bunday tuzilish askon tipidagi bulutsimonda uchrasa, sikon va leykon tipidagi bulutsimonlarda esa tuzilishi ancha murakkablashadi, ya'ni xoanositli kameralar mezogleyaga bir qator yoki 2-3 qator bo'lib botib kirgan yoki joylashgan bo'ladi. Shunday tuzilishda bulutsimonning dermal (ektoderma) qavati paragastral bo'shliqning ichki devori yuzasini qoplaydigan bo'ladi.

Bulutsimonlarning hujayra elementlari. Tananing mezoglyasida har xil hujayralar tarqoq va tartibsiz joylashgan. Bunday hujayralarning bir guruhi kollensitlar deyilib, tayanch-biriktiruvchi to'qima elementlari hisoblanadi. Ikkinchi guruh hujayralari skleroblastlar tananing skeletini hosil qiladi.

Mezogleyada anchagina miqdorda harakatchan amyobasitlar ham bo'lib, ularning ba'zilar xoanositlardan kelgan oziqni hazm qilishda ishtirok etadi. Amyobasitlarning bir qismi jinsiy hujayralarni hosil qiluvchi arxeositlarga yoki boshqa turdagi hujayralarga aylanishi mumkin. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki bulutsimonlarning mezogleyasida bir tur hujayralar boshqa turdagi hujayralarga aylanish qobiliyati ancha rivojlangan ekan. Masalan, endodermadagi xoanosit o'z xivchinini tashlab, mezogleyaga o'tib amyobasitga aylanishi yoki aksincha amyobasit xoanositni hosil qilishi mumkin. Xuddi shuningdek dermal (ektoderma) qavatdagi yassi epiteliy (pinakosit) hujayrasi mezogleyaga o'tib amyobasitga aylanishi mumkin. Bunday jarayon bir guruh bulutsimonlari (ohakli bulutsimonlar) da uchraydi, ularda ixtisoslashgan to'qimalarning bo'lmasligi va umuman ushbu hayvonlarning ancha sodda to'zilganligini ko'rsatadi.

Bulutsimonlarda nerv sistemasi rivojlanmagan. Lekin ayrim zoolog olimlarning tasdiqlashicha mezogleyada o'simtali yulduzsimon hujayralar bo'lib, ularning o'simtalarini bir qismi ektodermaga, ba'zilar xoanositli kameralarga borib tutashadi. Bunday hujayralar ta'sirni o'tkazishda ishtirok etsa kerak deb faraz qilishadi. Lekin bu xususiyat fiziologik jihatdan haligacha isbotlanmagan.

Skeleti. Bulutsimonlarning skeleti tananing ichki tayanchini bajarib, tarkibi jihatdan ohak yoki kremniy yoki kremniy bilan shox (organik) moddaning aralashmasi yoki faqat organik (spongin) moddadan iborat bo'ladi. Skelet mezogleyada joylashib, u mikroskopik tanachalar yoki ignalar (spikulalar) dan iborat. Bunday ignalar skleroblastlar ichida shakllanadi. Spikulalar har xil geometrik shakllarda bo'ladi, lekin ularni 4 guruhga ajratish mumkin:

1. Bir o'qli - tayoqchasimon, ignasimon, bukilgan va hakoza.
2. Uch o'qli - spikulalar o'zaro to'g'ri burchak hosil qilib kesishadi.
3. Turt o'qli - bir necha spikula o'zaro 120^0 burchak hosil qilib kesishadi.
4. Ko'p o'qli - sharsimon yoki kichik yulduzsimon shaklda bo'ladi.

Ma'lum bir hayvon tanasida bir vaqtning o'zida har xil shakldagi spikulalarni uchratish mumkin. Spikulalar bir-biri bilan tutashib, hayvon skeletini hosil qiladi.

Shox moddadan (spongindan) iborat bo'lgan skelet mezogleyada ko'p tarmoqlangan sarg'ish rangdagi spongin tolalaridan iboratdir. Bu tolalarning kimyoviy tarkibi ipak tolasi tarkibiga yaqin, lekin iod elementi 14% gacha bo'ladi.

Ko'payishi va rivojlanishi. Bulutsimonlar jinssiz va jinsiy usulda ko'payadi. Jinssiz ko'payish kurtaklanish bilan amalga oshadi. Kurtaklanish tashqi va ichki bo'ladi. Tashqi kurtaklanishda gavdaning sirtida ikki qavat va paragastral bo'shliqqa ega bo'lgan kichik shish (kurtak) hosil bo'ladi. U o'sib, oskulum hosil qiladi va ko'p hollarda ona tanadan ajralmay shu joyning o'zida yashab qolaveradi. Bunday kurtaklanish koloniya hosil bo'lishiga olib keladi. Ba'zi hollarda yakka yashovchi turlarida hosil bo'lgan yosh individ ona tanasidan ajralib mustaqil hayot kechiradi. Ichki kurtaklanish chuchuk suv badyagasi va ayrim dengiz bulutsimonlarida uchraydi. Bunday kurtaklanish aksariyat kuz fasli kelishi bilan boshlanadi. Bunda mezogleyadagi arxeositlar (amyobasitlar) to'planib umumiy po'stga o'raladi va gemmulaga aylanadi. Ona bulut tanasi yemiriladi. Gemmulalar suv tubiga cho'kib, qishlaydi. Erta bahorda esa gemmula po'sti yorilib, arxeositlardan yangi yosh badyagalar hosil bo'ladi. Shuni aytish kerakki chuchuk suv badyagasi yoz oylarida oddiy tashqi kurtaklanish va jinsiy usulda ko'payadi.

Jinsiy ko'payish. Bulutsimonlarning ko'pchiligi germafrodit, ba'zilar ayrim jinsli bo'ladi. Mezogleyadagi arxeositlardan jinsiy hujayralar yetishadi. Bunday jinsiy hujayralar endodermada xoanositli kameralar tagida (yaqinida) joylashgan bo'ladi. Yetilgan spermatozoidlar kanalchalar orqali paragastral

bo'shliqqa, undan oskulum orqali suvga chiqariladi va boshqa bulutsimon tanasiga kirib, endodermadagi tuxum hujayrasini urug'lantiradi.

Urug'langan tuxumning dastlabki rivojlanish bosqichlari ona bulut tanasida o'tadi va **amfiblastula** lichinkasini hosil qiladi. U kanallar orqali suvga chiqadi va ma'lum vaqt suzib, keyinchalik substratga yopishib, o'sib, yangi individga aylanadi.

Bulutsimonlarning kremniy shox moddali guruh vakillarida jinsiy ko'payishda **parenximula** lichinkasini hosil qiladi.

Bulutsimonlar tipi 3 ta sinfga bo'linadi.

Ohakli bulutsimonlar sinfi - Calsarea et Salsispongia

Ushbu bulutsimonlarning skeletini tarkibi ohakdan iborat. Spikulalari bir o'qli, uch o'qli yoki to'rt o'qli. Ohakli bulutsimonlar aksariyat dengizlarning ancha sayoz joylarida yashaydi. Tanalari morfologik jihatdan askon, sikon yoki leykon tuzilishda. Keng tarqalgan turlaridan **Sycon raphanus** va **Leuconia aspera**.

Shishasimon (kremniyli) bulutsimonlar sinfi - Hyalospongia

Dengizlarning ancha chuqur joylarida yashovchi 50 sm gacha kattalikka ega bo'lgan bulutsimonlar kiradi. Gavda shakli naysimon, xaltasimon, ba'zan bokalsimon. aksariyati sikonoid tuzilishdagi yakka holda yashovchi turlarni o'z ichiga oladi. Shishasimon bulutsimonlarni xarakterli belgisi, spikulalari asosan uch o'qli, mezogleyasi ancha past taraqqiy etgan.

Masalan, **Euplectella aspergillum** da shunday.

Ayrim turlarining tanasi silindrsimon shaklda va 1 metr kattalikda bo'ladi. Ularning suv tubida qumga botib kirib turadigan spikulasining ayrimlarini uzunligi 3 m ga teng bo'ladi.

Oddiy bulutsimonlar sinfi - Demospongia

Hozirgi zamon bulutsimonlarining aksariyati shu sinfga mansubdir. Skeleti turt o'qli va bir o'qli spikulalar aralashmasidan iborat. Keng tarqalgan vakillari yirik sharsimon **Geodia**, och qizg'ish rangli dengiz buluti **Tethya** kabilar. Ushbu bulutsimonlarning skeletini tashkil etuvchi spongin elastik va qayishqoq tolalardan iborat. Bu sinfdan chuchuk suvda yashovchi **Spongilla** ham keng tarqalgan.

Ahamiyati. Bulutsimonlarning xilma-xil turlari tropik va subtropik dengiz va okeanlarda keng tarqalgan. Ularning aksariyati suvning ancha sayoz (500 m gacha) joylarida, lekin ayrim turlarini hatto 11 km chuqurlikda ham yashashi aniqlangan.

Bulutsimonlar tabiatda va insonning xo'jalik faoliyatida amaliy ahamiyatga egadir. Ular o'z tanasi orqali juda ko'p miqdorda suvni o'tkazishi hamda uni mexanik va organik qismlardan tozalab turishi tufayli biofiltratorlik funksiyasini bajaradi. Bulutsimonlar suv havzasining ko'pgina jismlarin, ya'ni o'simliklar tanasini, toshlarni, suv osti qoyalarini, ba'zan mollyuskalar chig'anoqlariga yopishib oladi. Yirik bulutsimonlarning poralari suv hasharotlari, qisqichbaqasimonlar, chuvalchanglar uchun himoya sifatida

boshpana bo'lib xizmat qiladi. Ayrim hollarda gidrotexnik qurilmalari va yirik trubalarga kirib, ularni ifloslantiradi.

Bulutsimonlarning ayrim turlari kishilar tomonidan ishlatiladi. Masalan, chuchuk suv badyagasi tibbiyotda ba'zan revmatizm (bod) kasalligini davolashda, O'rta Yer dengizida ko'p uchrovchi gresiya buluti esa yuvinish uchun mochalka sifatida ishlatiladi. Shishasimon bulutsimonlarning ayrimlarini skeletlaridan chiroyli bezgak va o'yinchoqlar tayyorlanadi. Bunday bulutsimonlar Hind okeanida, Avstraliya qirg'oqlarida, Qizil dengizda, Meksika ko'rfazida keng tarqalgan.

Bulutsimonlarning kelib chiqishi

Bulutsimonlar o'z tuzilishi va rivojlanish xususiyatlariga ko'ra boshqa ko'p hujayralilardan farq qiluvchi eng qadimgi hayvonlar hisoblanadi. Ular paleozoy erasining kembriy davri qazilmalaridan ma'lum. Ba'zi ma'lumotlarga binoan ular hatto proterozoy erasi qatlamlaridan ham ma'lumdur. Zoologlarning farazlariga muvofiq bulutsimonlar bir hujayrali yoqachali xivchinlilarning kolonial formalaridan kelib chiqqan deyishadi. Lekin boshqa fikrlarga binoan bulutsimonlar kovakichlilar bilan bir ajdoddan kelib chiqqan va alohida tarmoqni hosil qilib, o'zlaridan kelgusida boshqa ko'p hujayralilarni kelib chiqishiga hyech qanday rol o'ynamagan. Bulutsimonlarni kovakichlilar bilan birga bir ajdoddan kelib chiqqan deyilishiga sabab, ularning parenximula lichinkasi kovakichlilarning planula lichinkasiga o'xshashdir.

4 Ma'ruza

Mavzu: Lentali chuvalchaglarni o'rganish uslublari. Yumaloq chuvalchaglarni o'rganish uslublari. Halqali chuvalchaglarni o'rganish uslublari

Reja:

1. Lentali chuvalchaglarning tashqi va ichki tuzilish xususiyatlari.
2. Lentali chuvalchaglarning jinsiy sistemasi.
3. Ko'payishi va rivojlanishi.
4. Lentali chuvalchaglar biogelmintlar sifatida xo'jayin almashtirish xususiyatlari.
5. Lentali chuvalchaglarning keng tarqalgan turlarivaularning keltirib chiqaradigan sestodoz kasalliklari. Profilaktikasi.
6. Yassi chuvalchaglarning filogeneyasi va parazitizmning kelib chiqishi.

Buchuvalchaglarni tanasitasma'gao'xshaydi. Uzunligi xar xil, ya'ni 3-4 mm dan tortib, ba'zi turlari 25-30 metr ga teng buladi. Tana uch qismdan iborat, ya'ni bosh, bo'yin va bo'g'imli gavadan iborat. Boshi skoleks deyilib, unda

xujayinning ichki organlariga yopishish uchun turli xil moslamalari buladi. Bo'yin qismi kaltagina bo'lib, u yangi (yosh) bug'implarni hosil qiluvchi joydir.

Lentali chuvalchaglarning tanasi strobila deyilib, u har xil sondagi bug'implardan (proglottidlardan) iborat. Ayrimturlaridanabug'implariningsoni 3-4 tabo'lsa, ba'zilaridaesa 4000 tagacha.

Lentalichuvalchanglarqo'yidagixususiyatlaribilanxarakterlanadi:

1. Skoleksdagi yopishish organlarimuskulliso'rg'ichlar, tirqishlar (botriylar), chuqurchalar, ilgakvailgakchalarko'rinishidabo'ladi.

2. Ovqathazmqilishsistemasiyo'qolgan (reduksiyalangan). Buholatbiologikregress (chekinish) xisoblanib, shuchuvalchaglarningxo'jayininiichkiorganlaridayayoroziqaichidayashab, ovqatnibutuntanasathiorqalidiffuziyo'libilanso'ribolishgamoslanganligidankelibchiqqan.

3. Lentalichuvalchaglarningharqaysibo'g'imidamustaqiltakrorlanuvchigermafroditjinsiyorganlaririvojlangan.

4. Rivojlanishsiklianachamurakkablashganvaxo'jayinalmashtirishbilanamalgaoshadi.

5. Barchaturlariendoparazitlarbo'lib, turlixilumurtqali hayvonlarvaodamningichkiorganlaridayashaydi.

6. Lentalichuvalchaglarnixoyatdaserpo'shtvabehisobsondanaslqoldirishxususiyatigaega.

7. Rivojlanishningbarchabosqichlarixo'jayintanasidaamalgaoshishitufayli, buchuvalchanglarbiogelmintlarhisoblanadi.

Lentalichuvalchaglarningtanasinitashkiletuvchiproglottidlarniuchxili, ya'niyosh, germafroditvayetilganbug'implarfarqqilinadi.

Bo'yinqismigayaqinjoylashganbo'g'imhaliyoshbo'lib, undajinsiyorganlarsistemasi shakllanmaganvabo'yindanuzoqlashgansarijinsiy sistemamashakllanaboradi.

Chuvalchaggavdasiningo'rtaqismlaridagermafroditbug'implarbulib, ularningharbiridamustaqilerkaklikvaurgochilikjinsiya'zolarbo'ladi.

Jinsiy sistemasi.

Erkaklikjinsiyorganlariproglottidningusttomonparenximasidajoylashganbirnech ayuzpufakchasimonurug'donlardan, ularningharbiridanboshlanuvchinoxikvaingichkakanalchalardaniborat.

Kanalchalarbir-biribilanqo'shiburug'yo'linihosilkiladi. Urug'yo'liproglottidningyontomonidaqo'shilishorganihisoblangansirrusgakiradi. Sirrusjinsiykloakaorqalitashqariga ochiladi.

Urg'ochilikjinsiyorganlaribirjufttuxumdonlardan, tuxumyo'li, ootip, bachadon, Melistanachasi, sariqlik, qinvakloakaga ochiluvchiurg'ochilikjinsiyteshigidaniborat.

Ootipurg'ochijinsiy sistemasining markaziy organi hisoblanadi, chunki tuxum yo'li, sariqlik yo'lishu joyga ochiladi. Shuningdek, bachadon ham ootpidan boshlanadi. Nihoyat tuxum bilan spermatozoidlaraynanshu ootipgakelibo'zaroqo'shiladi.

Urug'langan tuxum o'zigama'lum qism sariqlikni olib, Melistanachasi dan ajralgan suyuqlik hisobidan po'stgao'ralib, bachadonga qarab siljibboradi.

Lentalichuval changlarning rivojlanishi ancha murakkab bo'lib, bujarayonni qoramolsolityori (gijjasi) misolidako'ribchiqamiz.

Qoramolsolityori (**Taeniarhynchussaginatus**) odamning ichka ichagida parazitlik qiladi. Uzunligi o'rtacha 6-10 metr, ba'zan 15 metrga yetadi. Boshida 4 taso'rg'ichibo'ladi. Bo'yinkaltavanozik, gavdasi (strobilasi) 2000 gayaqinbo'g'implardan iborat. Gavdaning har xil joyida gibo'g'implarning bo'yivaeniturlichadir. Masalan, bo'yindan keyin joylashgan bo'g'implar kalta, yosh vajinsiy organlarishakllanmagan.

Gavdaning o'rtaqismlarida gibo'g'implarning bo'yi 8-10 mm, eni 12-14 mm ga teng bo'lsa, oxirgi qismdagiyetilgan bo'g'implar bo'yi 15-20 mm, eni esa 6-9 mm ga teng. Shuningdek, yetilgan bo'g'imdagibachadonning yonshoxchalari 17-35 tabo'ladi. Aytilgan belgilariga qarab qoramolsolityori boshqa lentalichuval changlardan farqqiladi.

Qoramolsolityorining yetilgan bo'g'implari asosiy tanadan uzilib, odam najasibilantashqarigachiqariladi.

Ba'zanesa yetilgan bo'g'implari asosiy tanadan bittadan uzilib, mustaqil harakat qilib, odamning alteshigiorqalihatashqarigachiqishim mumkin.

Tashqarigachiqarilgan bo'g'implar har xil ta'sirlar natijasida yorilib, ichida gituxumlaratrofgakengtarqaladi. Tuxum ichida 6 tailmoqchaga egabo'lgan **onkosferalichinka** sirivojlanadi. Uning kattaligi 15-20 mikronga teng.

Ichida lichinka shakllangan tuxumlar oraliq xo'jayin hisoblangan qoramol (shuningdek, zebu, qutosvabuyvollar) oshqozoniga oziqabilan birgatushadi. Oshqozonda onkosferatuxumlikqobig'idana ajralib, ingichka ichak kao'tibepiteliyorqaliquantomirlarigao'tadivaqonoqimibilanjigar, yurak, o'pkavaboshka ichki organlarga ham damuskuellarorasi gajoylashiboladi.

Onkosferabujoylardailmoqlarinitashlab, o'sadiva 2,5-4 oymobaynida **finna** debataluvchi, kattaligimoshdonichakeladigan pufakchastadiyasiga aylanadi.

Finna ichida bo'lajak gijjaning to'rtso'rg'ichliboshchasivakaltaginabo'yinqismishakllanadi. Bunday tuzilishga egabo'lgan lichinka **sistiserk** deyiladi.

U qoramoltanasida (go'shtvaboshqa organlarning to'qimalarorasi) tinchiyotaveradi. Sistiserkning o'lchamlari: bo'yi 5-13 mm, eni esa 3-8 mm.

Odamchalapishirilgan yoki yomon qovirilgan finnozlimolgo'shtini iste'mol qilganda sistiserklarni o'zigayuqtiradi.

Odamning oshqozoniga tushgansisterkovqathazmkilishsuyuqliklari ta'sirida bosh chasinipufakcha ichidanchiqarib, so'rg'ichlari yordamida ichak devoriga mahkam yopishib oladi va bo'yinchahisobida nyangidan-yangibo'g'implar paydoqilaboshlaydi. Qoramolsolityori, odamda 10-15 yildavomidayashab, parazitlik qiladi.

Uo'zumridavomidajudako'pnaslqoldirishgamoslashgan.

Unibirdonayetilganbo'g'imida o'rtacha 175

mingdonatuxumbo'ladi yoki ba'zan bemor najas bilan birsutkada tashqariga 1-1,5 mln. tagacha tuxum larchiqariladi. Agarda odam ichagida parazitning 15

yildavomidayashayolishini va uzluksiz ravishda yangidan-

yangibo'g'implarini hosilbo'lib turishini hisobga oladiganbo'lsak,

parazitumridavomida

10-11

mlrddona urug'langan tuxumlarni tashqarigachiqaradi.

Qoramolgijjasiodamda teniarinxozdebatiluvchika sallikni keltiribchiqaradi.

Bukasallikancha og'irkechadivaodam salomatligigajudakattazararkeltiradi.

Gijjaodamningingichkaichagidayashab,

organizmgaso'rilishilo zimbo'lganoziqalarniko'pqisminio'zigaso'riboladi.

Natijada odam gazarum mahsulotlari yetishmay qoladi va u o'z kamqon,

boshi aylanib, ko'zini adiganbo'lib qoladi. Ba'zanesako'ngliaynib, qayd qilish, ichketish kabihollar hambo'ladi.

Teniarinxozning profilaktik choralarishundan iboratki, qoramol- larboqiladigan maydonlari odam najas bilan ifloslantirmaslik,

so'yilgan molnigo'shtini veterinariya ko'rigidan o'tkazish,

go'shtni yaxshi pishirib iste'mol qilish, bemorlarni davolashdan iboratdir.

Yassichuvalchamlarning filogeniyasi va parazitizmining kelib chiqishi

Yassichuvalchamlar kelib chiqishiga binoan kovakichlilarning qadimgi ajdodlar bilan bog'liq.

Ushbu chuvalchamlarning shajarasini tasodifiy ravishda joylashgan.

Lekin yassichuvalchamlar filogeniyasini haletishdan azariy jihatdan dastlab kito'g'r

iichaklilar turkumining turlariko'proqe'tiborgasazovordir,

chunki ushbu turkumga kiruvchi yassichuvalchamlarning ichki organlarini tuzilishibo

shqaguruhlardagi yassichuvalchamlarning ichki organlarini tuzilishiga prototip

(qiyosiy) bo'lishi mumkin. Jumladan, oddiy to'g'ri ichakning bo'lishi,

boshqangliy (boshmiya) ning 2-6 ta bo'yli manervtolalari, juft protonefridiy,

juft gonadalar va itinlashgan kopulyativ organikabilarningo'xshashligini asosqilib

olish mumkin.

Hozirgi zamon barcha parazit yassichuvalchang-

lari ehtimolan shuto'g'ri ichaklilarning qadimgi ajdodlaridan kelib chiqqanbo'lishi

mumkin. Qadimgi to'g'ri ichaklilaro'zevolyusiyasida uch tarmoqni hosil qilgan.

Ulardan biri hozirgi to'g'ri ichaklilarni hosil qilganbo'lsa,

qolgan ikki tarmoq chuvalchamlar parazitlik bilan hayot kechirishgamoslashishyo'l

ibilan borganbo'lishi mumkin.

Erkin yashovchi chuvalchamlarning parazitizmga moslashib borish jarayonini bir nech

ayo'nalishdaborganbo'lishimumkin.

Buyo'nalishningengasosiylaridanorganizmlarningo'zarosimbiozyokikvartirant (ijarachi) bo'libyashashidanboshlangandebqarashlozim.

Ushbuyo'lbilandastlabkimonogenoidlarkelibchiqqan, chunkiularningdastlabkiajdodlaribaliqlarningjabrasi, terisivaso'zgichqanotlarigayopishibolib, kvartirantsifatidabaliqtanasidanajralibchiquvchishilimshiqbilanyokiboshqamayd aumurtqasizlarbilanoziqlangan.

Lekinayrimlaribundayoziqabilanqanoatlanmasdan, baliqterisiniteshibuningsshirasibilanoziqlanishgao'tganvahaqiqiyektoparazitlarga aylanishigaolibkelgan.

Ektoparazitlarningayrimlariba'zanxo'jayinningichkiorganlarigakiribuyerdaham oziqlanishgamoslashaborgan. Masalan,

Nerv sistemasi. Qisqichbaqasimonlarning nerv sistemasining umumiy tuzilish plani halqali chuvalchaglarnikiga o'xshash, lekin turli guruhlarida turlicha bo'ladi. Ulardagi nerv sistemalarining eng oddiy tuzilishi bir juft bosh gangliylari, halqum atrofi konnektivalar, tananing qorin tomonida yirik nerv tolalari va ular ustidagi har bir segmentda bir juftdan nerv gangliylaridan iborat. Yuzaki qaraganda bunday nerv sistemasi ko'ndalang komissuralar yordamida qo'shilib norvon shaklidagi sistemani hosil qiladi. Bunday ko'rinishdagi nerv sistemaning keyingi evolyusiyasi ikki yo'nalish bo'yicha borgan. Birinchi yo'nalishda ikkala bo'ylama qorin nerv tomirlari bir-biri bilan yaqinlashib, nerv tugunlari yordamida qo'shilib, qorin nerv zanjirini hosil qilgan. Bunda ko'ndalang komissuralar qisqarib ketgan. Ikkinchi yo'nalishda esa ayrim tana bo'g'imlarining o'zaro qo'shilib ketishi munosabati bilan, ulardagi nerv tugunlari ham birlashib ketadi va qorin bo'ylab ketuvchi zanjir tugunlari soni qisqaradi.

Masalan, daryo qisqichbaqasida tana segmenti 18 ta bo'lsa ham nerv zanjiri 12 ta tugundan iborat. Krablarda esa nerv tugunlari konsentra-iyasi yana ham davom etib, qorin nerv tugunlari ko'krak tomon siljib o'zaro qo'shilib bitta yirik ko'krak nerv tugunini hosil qiladi. Bunday holni yana kurakoyoqlilar va chig'anoqli qisqichbaqasimonlarda ham ko'rish mumkin.

Sezgi organlari. Qisqichbaqasimonlarda tuyg'u organlari, ximiyaviy sezuv organlari, muvozanat saqlash organlari va ko'rish organlari bor. Tuyg'u organlari oyoqlarda, antenna va antenullalarda, shuningdek tananing har xil joylarida sezuv tuklari ko'rinishida bo'ladi. Ba'zida bu tuklar kimyoviy sezish jarayonida ham ishtirok etadi.

O'n oyoqli qisqichbaqalarda muvozanat saqlash organlari-statosistlar bor. Ular antenullalarning asosiy bo'g'inida joylashgan chuqurchadan iborat. Bu chuqurcha ichiga qum zarralari tushadi. Bu zarralar "muvozanat toshchalari" vazifasini bajaradi.

Ko'rish organlari ko'zlar bo'lib, ular ikki xil: oddiy yoki nauplius ko'z va ikkinchisi murakkab yoki fasetkali ko'zlar.

Oddiy ko'z chuqurcha shaklidagi 2 yoki 4 ta qadaxchalardan tashkil topgan. CHuqurchalar devorida qora pigment bilan qoplangan bir qavat sezgir (retinal) hujayralar joylashgan. CHuqurchalarning tashqi botiq tomonida nurni sindiradigan gavhar joylashgan. Nerv tolalari sezgir hujayralarning orqa tomonidan chiqadi.

Ko'pchilik qisqichbaqalarda oddiy ko'zlar yo'qolib ketgan va ularda bir juft murakkab (fasetkali) ko'zlar bo'ladi. Har bir murakkab ko'z ma'lum sondagi ayrim oddiy ko'zchalardan (ommatidiylardan) tuzilgan bo'ladi. Masalan, daryo qisqichbaqasining bitta murakkab ko'zida 3000 ta ommatidiy bo'ladi. Ushbu ommatidiylar murakkab ko'zda bir-biridan yupqa pigmentli parda orqali ajralib turadi. Har bir ommatidiy yorug'lik nurini sindiruvchi va sezuvchi elementlarga ega bo'lgan mustaqil ko'zcha hisoblanadi. Ommatidiyda yana bir qancha retinal hujayralar bo'ladi. Bu hujayralardan ko'rish nervlari ketadi. Ommatidiyning shoxsimon sirtqi yuzasi juda kichik prizma shakliga ega. Bu yuzaga buyumning kichik bir qismini tasviri tushadi. Shunday minglab kichik bo'lakchalardan umumiy tasvir hosil bo'ladi. Tasvirning bo'nday hosil bo'lishi **mozaik** ko'rinish deyiladi.

Jinsiy organlar va urchish. Ko'pchilik qisqichbaqasimonlar ayrim jinsli va jinsiy dimorfizm ma'lum darajada aniq ifodalangan. Masalan, daryo qisqichbaqasining o'rg'ochisi qornining bir muncha kengligi hamda 2-nchi juft qorinoyoqlarining shakli va funksiyasi boshqacha, 1-nchi juft qorinoyoqlar rudimentga aylangan. Ko'pgina tuban qisqichbaqasimonlarning erkagi o'rg'ochisidan biroz kichik bo'ladi.

Qisqichbaqasimonlar aksariyat jinsiy usulda urchiydi. Ayrimlarida esa (asosan tuban qisqichbaqasimonlarda) partenogenez va partenogenetik hamda ikki jinsli avlodlarning gallanishi ko'zatiladi. Bunday sikl jarayoni mavsumiy xarakterga ega. Qisqichbaqasimonlarda erkaklik va urg'ochilik jinsiy organlar sodda tuzilgan. Ular juft gonadalar va ulardan boshlanuvchi chiqarish yo'llaridan iborat.

Daryo qisqichbaqasida urug'donlardan juft urug' yo'llari chiqadi. Bu yo'llar birmuncha uzun va buralma bo'ladi. Erkaklarida jinsiy teshiklar 5-nchi juft ko'krak oyoqlarining asosida joylashgan bo'lsa, urg'ochilarining jinsiy teshiklari 3-nchi juft yurish oyoqlarining asosida joylashgan.

Tuxumlar turlicha urug'lantiriladi. Ba'zi qisqichbaqasimonlarda urug' suyuqligi juftlashish vaqtida urg'ochi qisqichbaqaning jinsiy yo'llariga o'tkaziladi. Bunda avval sperma urg'ochi qisqichbaqaning urug' qabul

qilgichiga borib to'planadi. Ba'zan esa sperma urg'ochi qisqichbaqaning jinsiy teshigi yonidagi teriga yopishtirib qo'yiladi.

Rivojlanishi. Urug'langan tuxumlar har xil yo'l bilan rivojlanadi. Bunday turlicha rivojlanish tuxumdagi sariqlik miqdoriga bog'liq.

Qisqichbaqasimonlarning rivojlanishi ikki xil, ya'ni to'g'ri va metamorfoz yo'l bilan boradi. Tuban qisqichbaqasimonlarning tuxumidan to'liq notekis bo'linish natijasida sodda tuzilgan kichik nauplius lichinkasi chiqadi. Uning bitta toq ko'zi va uch juft ortig'i bo'ladi. Naupliusda ko'krak va qorin segmentlari oxirigacha rivojlanmagan bo'ladi. Gavda faqat antennulyar, antennal va mandibulyar hamda anal segmentlaridan iborat bo'ladi. Nauplius metamorfoz bilan rivojlanib, metanaupliusni hosil qiladi. Unda maksillyar va ko'krak segmentlari aniq ifodalangan bo'ladi. Metanauplius bir necha bor po'st tashlab, voyaga yetadi.

Oliy qisqichbaqasimonlarda to'la ifodalanmagan metamorfoz bo'ladi. Ularda **protozoyea** va **zoyea** bosqichlaridagi lichinkalar bo'ladi. Protozea bosqichidagi lichinkada murakkab fasetkali ko'zlarning paydo bo'lishi, jag'oyoqlarning rivojlanishi, boshko'krak bilan qorinning ro'y-rost ajralib turishligi xarakterlidir. Zoyea bosqichli lichinkada esa keyingi ko'krak oyoqlari boshlang'ichlarining paydo bo'lishi va bosh ko'krak hamda qorin bo'limlarining bir-biridan yanada ko'proq chegaralanganligi bilan protozoyeadan farq qiladi. Krevetkalarda zoyea bosqichli lichinkadan keyin **mizid** lichinkasi shakllanadi. Ushbu lichinkada ikki shoxli ko'krak oyoqlari to'la shakllanadi, qorin oyoqlari paydo bo'ladi. Mizid lichinkasi bir necha bor tullagach, voyaga yetgan qisqichbaqaga aylanadi.

Qisqichbaqasimonlar sinfining sistematikasi

Hozirgi zamon sistematikasiga binoan qisqichbaqasimonlar qo'yidagi kenja sinflarga bo'linadi:

1. Jabraoyoqlilar - **Branchiopoda**.
2. Sefalokaridalar - **Cephalokarida**.
3. Jag'oyoqlilar - **Maxillopoda**.
4. Chig'anoqli qisqichbaqalar - **Ostracoda**.
5. Oliy qisqichbaqalar - **Malacostraca**.

Jabraoyoqlilar kenja sinfi – Branchiopoda. Ushbu kenja sinfiga kiruvchi qisqichbaqasimonlar ancha qadimiy turlarni o'z ichiga olib, tananing geteronom segmentlari doimiy sonda bo'lmasligi, ko'krak oyoqlarining shakli bargsimon bo'lib, ular harakatlanish, nafas olish va oziqani yig'ishga moslashganligi, qorin bo'limining oxirida ayri dumchanning bo'lishi xarakterlidir. Ushbu kenja sinf turlari dengizlarda, aksariyati chuchuk suv havzalarida yashaydi. Jabra oyoqlilar 2 ta turkumga ajraladi.

Bargsimon oyoqli qisqichbaqasimonlar turkumi – Phyllopoda. 560 ga yaqin turi bor. Ancha mayda tuban qisqichbaqasimonlarni o'z ichiga oladi.

Keng tarqalgan turlaridan dafniya (**Daphnia pulex**), limnadiya (**Limnadia lacustris**) chuchuk suv havzalarida ko'p uchraydi.

Jabraoyoqlilar turkumi –Anostraca. Gavda bo'g'imlari gomonom, 180 ga yaqin turi ma'lum, chuchuk suv havzalarida keng tarqalgan. Xarakterli belgilari boshning oldingi qismida antennulalar, antennalar, 1 ta nauplius ko'zi, bir juft fasetkali ko'z; boshning keyingi qismida ikki juft erkin jag'lari bo'ladi. Ko'krak qismi 11-19 ta bo'g'imdan iborat. Har bir bo'g'imda bir juftdan ikki shoxli bargsimon oyoqlari joylashgan. Vakil **Artemea salina** - artemiya.

Sefalokaridalar kenja sinfi – Cephalokarida. Vakillari ancha mayda (2-3 mm) qisqichbaqasimonlar bo'lib, dengiz tubidagi balchiqqa ko'milib hayot kechiradi. Tanasi yaxlit bosh, 10 segmentli ko'krak va 9 segmentli qorin qismidan iborat. Boshda antennula va antenna joylashgan, ko'zi bo'lmaydi. Bu belgi ularni qumda (balchiqqa) ko'milib hayot kechirishidan paydo bo'lgan. Qorning oxirgi uchida uzun ayrisimon qilcha joylashgan. Hozirgi vaqtda 4 ta turi ma'lum. Vakil **Hutchinsoniella**. Bu tur Atlantika okeanida uchraydi.

Jag'oyoqlilar kenja sinfi – Maxillopoda. Bular ancha keng tarqalgan bo'lib, okean va dengizlarda, xilma-xil chuchuk suv havzalarida, hatto yer osti suvlarida ham yashashga moslashgan tuban va mayda qisqichbaqasimonlarning 2000 ga yaqin turini o'z ichiga oladi. Jag'oyoqlilar kenja sinfi kurak oyoqlilar (**Sopepoda**), mo'ylovoyoqlilar (**Sirripedeia**), karpxo'rlar (**Branchiura**) kabi turkumlarni o'z ichiga oladi.

Ko'rak oyoqlilar turkumiga – sikloplar kirib, bosh ko'krak qismini kengligi, qorincha, telson va furkaning ancha uzun bo'lishi, shuningdek bir juft muylovlarining o'rtacha uzunlikda bo'lishi, o'rg'ochisida yaxshi rivojlangan bir juft tuxum qopchig'ini bo'lishi bilan ajralib turadi. Chuchuk suvda yashovchi siklop (**Cyclops strenuus**) hamda diaptomus (**Diaptomus**) va kalanus (**Calanus**) avlodlarining turlari ko'p uchraydi. Siklop odamning ayrim parazit chuvalchanglariga oraliq xo'jayin bo'lishi bilan tibbiyotda amaliy ahamiyatga egadir.

Mo'ylovoyoqlilar turkumiga kiruvchi jag'oyoqlilar tanasi qalin chig'anoq bilan o'ralgan va aksariyati o'troq hayot kechirishga moslashgan. Muylovoyoqlilarning ayrim turlari dengiz va okeanning ancha chuqur (5000-7000 m) joylarida ham yashaydi. Ayrim turlari akula va kitlarning terisiga yopishib, kvartirantlik qilib yashaydi. Sakkulina (**Sacculina**) avlodining turlari esa o'n oyoqli qisqichbaqalarda parazitik qiladi. Erkin yashovchi turlaridan esa dengiz o'rdakchasi (**Lepas**) va dengiz g'o'zasi (**Balanus**) ko'p uchraydi.

Karpxo'rlar turkumi esa 60 ga yaqin turni o'z ichiga oladi va ularning hammasi baliqlarda, ayniqsa karpsimon baliqlarda ektoparazitlik qiladi. Ayrim hollarda bosh oyoqli mollyuskalarda, baqalar va ularning lichinkalarida ham ektoparazitlik qilishi isbotlangan.

Keng tarqalgan turlaridan biri karp baliq'i biti - **Argulus foliaceus** chuchuk suv baliqchiligiga katta ziyon keltiradi.

Chig'anoqli qisqichbaqalar kenja sinfi – Ostracoda. Ancha mayda, ba'zan faqat mikroskopda ko'rinuvchi, dengiz va chuchuk suv havzalarida yashovchi qisqichbaqasimonlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda 2000 ga yaqin turi ma'lum. Chuchuk suvlarda keng tarqalgan turlaridan biri **Cypris pubera**. Bularning tanasi ohakdan iborat ikki pallali chig'anoq ichida joylashgan bo'ladi.

Oliy qisqichbaqalar kenja sinfi – Malacostraca. Eng katta guruh hisoblanib, 14 mingdan ortiq turni o'z ichiga oladi. Ushbu kenja sinf hayvonlarining xarakterli belgilari shuki, gavda segmentlari doimiy bo'lib, bosh 4 ta, ko'krak 8 ta va qorin 6 ta segmentdan iborat. Turlari dengiz va okeanlarda, turli chuchuk suv havzalarida va quruqlikda ham uchraydi. Kenja sinf 14 ta turkumdan iborat bo'lib, ayrimlari bo'yicha qo'yidagilarni aytib o'tish mumkin.

Og'iz oyoqlilar turkumi – Stomatopoda. Gavdasi cho'ziq, ancha yirik, ba'zan 35 sm gacha kattalikdagi hayvonlar kiradi. Qorin qismi ancha yirik va yaxshi rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Protosefalonda yirik poyachali harakatchan murakkab ko'zlar va ikki juft mo'ylovlari joylashgan. Birinchi 4 ta ko'krak segment-lari jag'ko'krak bo'limi tarkibiga kiradi. Keyingi 5 juft ko'krak oyoqlari o'zgarib, ushlash (qamrash) organlariga aylangan.

Og'iz oyoqlilarga 170 ga yaqin tur kiradi. Aksariyat issiq suvli dengizlarda uchraydi. Yirik turlari ovlanadi va oziq-ovqat uchun ishlatiladi.

Vakil **Squilla oratoria** - qisqichbaqa - beshiktervat. Kattaligi 20 sm.

Teng oyoqlilar turkumi – Isopoda. Teng oyoqlilar turli xil suvlarda va ayrimlari quruqlikda yashashga moslashgan qisqichbaqasimonlarning 4500 dan ortiq turini o'z ichiga oladi. Aksariyati erkin yashovchi, ba'zilar baliqlarning parazitlari va ayrim-lari suv inshootlariga zarar keltiruvchilar sifatida ma'lumdir.

Teng oyoqlilarning tanasi orqa-qorin (dorzoventral) tomonga qarab yassilashgan. Boshko'krak qalqoni bo'lmaydi. Ko'zlari va mo'ylovlari yaxshi rivojlangan 7 ta ko'krak segmentlarida bir juftdan, bir xilda tuzilgan oyoqlar joylashgan. Shu sababli teng oyoqlilar degan nom olgan. Gavda o'lchami 1 mm dan 5 sm gacha, ayrim turlari 27 sm ga teng bo'ladi. Keng tarqalgan turlaridan biri "suv hutikchasi" - **Asellus aquaticus**. U Shimoliy va O'rta mintaqali iqlim zonalarida chuchuk suvlarda o'chraydi. O'rta Osiyoda ba'zi g'or suvlarida topilgan. Quruqlikda tarqalgan guruhlaridan zahkashlar (**Oniscoidea** kenja turkumi) ning turlari uchraydi. Masalan, bizning sharoitimizda cho'llarda uchrovchi oddiy zahkash (eshak qurt) **Hemilepistus cristatus** hammaga ma'lumdir. U tuproq tarkibidagi chirindilar bilan oziqlanadi.

Yonso'zarlar yoki harxil oyoqlilar turkumi - Amphipoda. Yonso'zarlar dengiz va chuchuk suvlarda keng tarqalgan qisqichba-qasimonlarning 4500 dan ortiq turini o'z ichiga oladi. Ular ba'zilar suv tubida qumga ko'milib yashovchilari bilan birga plankton turlari ham anchaginadir. Ayrim turlari (kit bitlari - **Cyamidae**) kitlarning terisida parazitlik bilan yashaydi. Yonso'zarlarni tanasi ikki yon tomondan siqilgan. Ko'zlari fasetkali, karapaksi yo'q. Ko'krak oyoqlarining hammasida jabralar joylashgan. Qorin oyoqlari ancha kichik. Ular

so'zishga xizmat qiladi. Chuchuk suvda yashovchi turlaridan kul yon so'zari - **Gammarus lacustris**, oqar suvlarda **G.ulex** va **G.balcanicus** lar uchraydi. Yonso'zarlar ovlanadigan baliqlarning asosiy oziqasi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun joylarda baliqchilikni rivojlantirishda suv havzalarida avval yonso'zarlarni ko'paytirish yaxshi natijalar beradi.

O'n oyoqlilar turkumi – Decapoda. Bularning ko'kragidagi oyoqlarning 5 jufti (10 tasi) yurish oyoqlari sifatida bo'lganligi sababli, o'n oyoqlilar nomini olgan. O'n oyoqlilarga 8500 ga yaqin tur kiradi. O'lchami bir necha sm dan 30-60 sm gacha, ayrimlarining oyoqlari 2-3 m uzunlikda bo'ladi. Ularning bosh qismi protosefalonda ikki juft mo'ylovlari va bir juft poyachali fasetkali ko'zlari joylashgan. Rivojlanishida **zoyea** lichinkasi hosil qiladi. O'n oyoqlilar juda katta xo'jalik ahamiyatiga ega, chunki xilma-xil krablar, qisqichbaqalar, omarlar, krevetkalar, langustlar ko'plab (har yili dunyo bo'yicha qariyb 1 mln tonna) ovlanadi va oziq-ovqatga ishlatiladi. Bizda uchraydigan turlaridan biri daryo qisqichbaqasi - **Potamobius astacus**.

Xeliseralilar asosan quruqlikda yashovchi bug'imoyoqlilarning 40 mingdan ortiq turini o'z ichiga oladi. Ularning ayrim turlarigina suvda yashashga moslashgan. Tanasi boshko'krak va qorin qismlaridan iborat. Boshko'krak 7 ta segmentning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'lgan, lekin ko'pchilik turlarida yettinchi segment deyarli yo'qolib ketish arafasida va u noma'lum. Ayrim turlarida esa qorin bo'limi ikki qismdan, ya'ni oldingi va orqa qismlardan iborat. Boshko'krakda 6 juft bir shoxli oyoqlar bo'lsa, qorin bo'limidagi oyoqlar yoki shakl o'zgartgan yo qisqarib ketgan.

Xeliseralilar uchun xos bo'lgan xususiyatlar yana shundan iboratki, ularning mo'ylovlari va bosh bo'lagi (akron) ning ham qisqarib ketishidir. Shuningdek boshko'krakdagi oyoqlarning birinchi jufti **xeliseralarni** hosil qilgan va ular oziqni maydalash va ezish uchun xizmat qiladi. Boshko'krakning 2-nchi juft oyoqlari esa **pedipalplar** deyilib, ular sezish va ayrim hollarda tutish vazifasini bajaradi.

Xeliseralilar kenja tipi Qilichdumlilar (**Xiphosura**), qisqichbaqa-chayonlar yoki ulkan qalqondorlar (**Euripterida**, **Gigantostaca**) va o'rgimchaksimonlar (**Arachnida**) sinflariga ajraladi.

Qilichdumlilar qadimgi dengiz hayvonlari bo'lib, ular asosan paleozoy erasida yashab, keyinchalik deyarli qirilib ketgan hayvonlar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bu sinfning faqatgina 5 turi ma'lum.

Qisqichbaqachayonlar sinfining turlari ham qilichdumlilar singari asosan paleozoy erasida dengizlarda va qisman chuchuk suvda keng tarqalgan hayvonlar bo'lgan. Hozirgi vaqtda esa ushbu sinfning turlari faqat qazilma holida ma'lumdir.

O'rgimchaksimonlar sinfi - Arachnida

O'rgimchaksimonlar xeliseralilarning yuqori darajada rivojlangan guruhi bo'lib, hayot kechirishi quruqlik muhiti bilan bog'liqdir. O'rgimchaksimonlarning turli-tuman tuzilishga ega bo'lgan guruhlar uchun

umumiy belgilar mavjud bo'lib, ularning hammasida ham murakkab ko'zlar yo'qolib, faqat oddiy ko'zlar rivojlangan. Boshida mo'ylovlari ham bo'lmaydi. Boshko'krakdagi olti juft oyoqlarning oldingi ikki jufti xelisera (paypaslagich jag'lar) va pedipalplar (paypaslagich oyoq) ga aylan-gan. Bu organlar shu hayvonlarning oziqlanishida ishtirok etadi. Qolgan turt juft oyoqlar yurish oyoqlari hisoblanadi.

O'rgimchaksimonlar o'pkalar yo traxeyalar orqali nafas oladi. Ajratish organlari tarkibiga koksar bezlardan tashqari yana qorin bo'limida joylashgan malpigi naylari ham ishtirok etadi.

Tashqi tuzilishi. O'rgimchaksimonlarning tanasi boshko'krak va qorin bo'limlaridan iborat. Boshko'krak akron va 7 ta segmentdan (ba'zan 7-nchi segment taraqqiy etmagan) tashkil topgan. Ayrim guruhlarida (salpuglar va ba'zi tuban taraqqiy etganlarida) oldingi 4 ta segment o'zaro bir-biriga qo'shilib ketgan va 2 tasi esa erkin holda birlashadi. Faqat shu segmentlardan keyingina qorin bo'limi segmentlari boshlanadi. Ko'pgina o'rgimchaksimonlarning qorin bo'g'imlari ham boshko'krak singari qo'shilib ketgan va tana ikkita yaxlit bo'limdan iborat bo'lib qoladi. Shuningdek ayrim guruhlarida bu ikkala bo'lim ham birga qo'shilib, bitta yaxlit tanani hosil qiladi. Bunday holni kanalarda ko'rish mumkin.

O'rgimchaksimonlarning tana o'lchamlari 0,2 mm dan tortib, 20 sm gacha bo'ladi. Xelisera va pedipalplar turli o'rgimchaksimonlarda turlicha bo'ladi. Ko'pgina guruhlarida (chayonlar, soxtachayonlar, solpuglar va pichano'rarlar) xeliseralari ancha kalta bo'lib, og'iz teshigining oldingi tomonida joylashgan. Xelisera uch bo'g'imdan iborat. Eng ustki bug'im harakatchan, o'tkir ilmoqni hosil qiladi. Kanalarda esa xelisera uch o'tkirlashgan, tishchasi ikki bo'g'imli o'simalardan iborat. Pedipalplar bir nechta bo'g'imlardan iborat. Uning asosiy bo'g'imidagi chaynovchi o'simtasi oziqni maydalaydi. Pedipalpning qolgan bo'g'imlari paypaslagich vazifasini bajaradi. Ayrim o'rgimchaksimonlar (chayonlar, soxta chayonlar) da pedipalplar uzun qisqichga aylangan. O'rgimchak va solpuglarda esa pedipalplar yurish oyoqlariga o'xshash bo'lib, sezgi a'zosi vazifasini o'taydi. Boshko'krakning qolgan 4 jufti yurish oyoqlari bo'lib, ularning uchi tirnoqlar bilan ta'minlangan.

O'rgimchaksimonlarning qorin bo'limida oyoqlar rivojlanmagan. Lekin ayrim guruhlarida (chayonlar, soxta chayonlar, o'rgimchaklarda) o'zgargan qorinoyoqlar bo'lib, ular o'pka xaltasi yoki ip o'rovchi bezlarga aylangan.

O'rgimchaksimonlarning gavda qoplag'ichlari boshqa bo'g'imoyoqlilarnikiga o'xshash tuzilgan bo'lib, uch qavatli kutikula va uning ostida yotuvchi gipoderma hamda bazal membranadan iborat. Kutikula ancha yupqa, lekin tanadan suvni bug'lanishiga to'sqinlik qiladi. Bu xususiyat kutikulaning eng tashqi qavati (epikutikula) da mumga o'xshash lipoprotein moddasining mavjudligidadir.

O'rgimchaksimonlarning gavda qoplag'ichlari tarkibiga yana zahar bezlari (chayon va ba'zi o'rgimchaklarda), ip o'rovchi bezlar ham bo'lib, ular teri epiteliysidan hosil bo'ladi.

Ovqat hazm qilish sistemasi. Turli guruhlarida turlicha tuzilish-ga ega. Oldingi ichak kuchli muskullar bilan ta'minlangan va kengaygan tomoq, undan keyin qizilungach va so'ruvchi oshqozon keladi. Tomoqqa oqsillarni eritadigan suyuqlik ajratib chiqaruvchi so'lak bezlari ochiladi. O'rgimchaksimonlar tutgan o'ljasini o'ldirib, uning tanasini teshib, so'lak bezlari suyuqligini to'kadi. Suyuqlik ta'sirida o'ljaning ichki to'qimalari parchalanib, suyuq holatga keladi. O'rgimchak shu suyuq oziqani so'rib oladi. Suyuq oziqa so'ruvchi oshqozondan o'rta ichakka o'tadi va unda hazm bo'ladi. O'rta ichakning oldingi qismi ancha uzun yon o'simalarni hosil qiladi. Bular ichak hajmi va so'rish yuzasini kengaytiradi. O'rta ichakka bir juft jigar yo'llari ham ochiladi. Jigar hazm qilish fermentlari ajratadi va yana oziqani hazm qilishda ham ishtirok etadi.

Ajratish organlari. O'rta va keyingi ichaklarning qo'shilgan joyi-dagi ichak bo'shlig'iga bir juft shoxlangan malpigiya naylari ochiladi. Ushbu naylar traxeyalarnikidan farqli ravishda ontogeneza endoderma-dan shakllangan bo'ladi.

O'rgimchaksimonlarda ajratish mahsulotlari guanin zarrachalaridan iboratdir. Bunday holda ajratish organizmda suvni tejashga yordam beradi. O'rgimchaksimonlarda koksal bezlar ajratish jarayonida ishtirok etadi. Bu bezlar ikki juft (ba'zan bir juft) bo'lib, mezodermadan rivojlanadi. Bu bezlar boshko'krakning 2 ta (ba'zan 1 ta) cyegmentida joylashgan bo'lib, 3-nchi yoki 5-nchi juft oyoqlarning asosida tashqariga ochiladi.

Nafas olish organlari o'pka va traxeyalardan iborat. O'rgimchaksimonlarning ayrimlarida (chayonlar, qiloyoqlar, ayrim o'rgimchaklar) o'pkalar bo'lsa, ayrimlarida (solpuglar, soxta chayonlar, ba'zi kanalar va pichan-o'rarlar) traxeyalar bo'ladi. Ko'pgina o'rgimchaklarda esa ham o'pka va ham traxeyalar bo'ladi.

O'pka gavda bo'shlig'ining qorin bo'limida joylashgan xaltachalardan va gavda sirtidagi nafas olish teshikchalaridan iborat. Xaltachalar bo'shlig'ida juda ko'p bir-biriga parallel joylashgan bargsimon burmalar osilib turadi. Ularda gemolimfa aylanib yuradi. Nafas olish teshikchalari orqali burmalar orasiga havo kiradi. O'rgimchaksimonlarning turli guruhlarida o'pkalar har xil sonda bo'ladi. Masalan, qiloyoq va ba'zi o'rgimchaklarda ikki juft, chayonlarda esa o'pka xaltachalari 4 juft bo'ladi.

Traxeyalar sistemasi qorinning 1-2 segmentlarida joylashgan nafas olish teshiklari yoki **stigmalar** bilan boshlanadi. Har bir stigmadan gavdaning ichiga bir tutam uzun, ingichka, oxirgi uchi berk entodermadan hosil bo'luvchi havo naychalari ketadi.

Soxta chayonlar va kanalarda havo naylari sodda tuzilgan va shoxlanmagan, pichan-o'rarlarda esa bunday havo naylari yon shoxchalar hosil qiladi. O'rgimchaksimonlarda mavjud bo'lgan o'pkalar va traxeyalar bir-

birlariga bog'liq bo'lmagan, mustaqil kelib chiqishi yo'lga ega. O'pka xaltalari traxeyalarga nisbatan ancha qadimiyydir. Ularning evolyusiyasi shakl o'zgartgan qorindagi jabraoyoqlardan paydo bo'lgan. Jabralarga ega bo'lgan har bir bunday oyoq gavdaga botib kirib, o'pka xaltachasiga o'xshash bo'shliq hosil qilgan.

Traxeyalar sistemasi esa butunlay boshqacha yo'l bilan shakllangan va ushbu sistemani quruqlikka ko'proq moslashgan sistema deb hisoblash lozim.

O'rgimchaksimonlarning ancha past taraqqiy etganlarida (asosan juda maydalari) va kanalarining ba'zi guruhlarida nafas olish organlari shakllanmagan. Shunga binoan bunday turlarning nafas olishi gavdaning nozik qoplag'ichlari orqali diffuz usulda amalga oshadi.

Qon aylanish sistemasi. Tanasi aniq metameriyalardan iborat bo'lgan o'rgimchaksimonlarda (chayonlarda) yurak uzun naysimon bo'lib, qorin bo'limining oldingi qismida, ichak ustida joylashgan va ikki yon tomoni 7 juft tirqishsimon ostiyalarga ega. O'rgimchaklarda yurakning tuzilishi biroz soddalashgan va ostiyalar 3-4 juft bo'ladi; pichano'rarlarda ostiyalar 2 yoki 1 juftga kamayadi. Nihoyat kanalarining ayrimlarida yurak kaltagina xaltacha ko'rinishida va bir juft ostiyalarga ega.

Ko'pchilik kanalarda esa, o'lchamlarining mikroskopik kattalikda bo'lishi tufayli, yurak umuman bo'lmaydi.

O'rgimchaksimonlarning qon aylanish sistemasida yurakning oldingi va keyingi uchlaridan (chayonlarda) yoki faqat oldingi uchidan (o'rgimchaklarda) tananing oldingi va keyingi uchiga qarab aorta tomiri chiqadi. Ayrim guruhlarda yurakning har bir kamerasidan juft yon arteriyalar chiqadi. Arteriyalardagi gemolimfa gavda bo'shlig'iga quyiladi. Gemolimfa gavda bo'shlig'idagi lakunalardan yurak oldi bo'shlig'iga va undan ostiyalar orqali yurakka quyiladi. O'rgimchaksimonlarning gemolimfasi tarkibida nafas olish pigmenti-gemosianin bo'ladi.

Nerv sistemasi va sezgi organlari. O'rgimchaksimonlarning nerv sistemasi halqali chuvalchaglarning qorin nerv zanjiri tipidagi tuzilish-ga ega bo'lsa ham bularda ushbu sistemaning markazlashuvi tendensiyasini ko'rish mumkin. Shuningdek ushbu sinf bug'imoyoqlilarida nerv sistemaning ancha yaxshi rivojlanganligini qayd qilish mumkin.

Bosh miya ikki bo'limdan, ya'ni ko'zlarni nerv tolalari bilan ta'min-lovchi oldingi bo'lim-protoserebrumdan va xeliseralarga nerv tolalari beruvchi keyingi bo'lim tritoserebrumdan iborat. O'rgimchaksimonlarda antennulalar (mo'ylovlar) ni yo'qolib ketganligi tufayli ushbu organga nerv beruvchi bosh miyaning o'rta qismi-deytoserebrum rivojlanmagan.

Qorin nerv zanjirining tuzilishi tana bo'g'imlarining rivojlanishiga mos keladi. Chayonlarda nerv zanjirining ko'krak bo'limidagi nerv tugunlari qo'shilib, yirik bosh ko'krak nerv tugunini hosil qiladi. Ushbu tugundan boshko'krakning 2-6 juft oyoqlarga (pedipalp va turt juft yurish oyoqlarga) nervlar chiqadi. Qorin bo'limida esa 7 ta nerv tugunlari joylashgan. Solpuglarda boshko'krakda yirik nerv tugunidan tashqari yana kichik nerv tuguni ham

bo'ladi. Qorin segmentlarining kamayishi tufayli bu bo'limda qorin nerv tugunlari soni ham kamayadi va konsentrsiyalanishi ko'zatiladi. O'rgimchaklarda esa nerv tugunlarining barchasi ko'krak nerv tugunlari bilan qo'shilib ketgan va nihoyat kanalarda tananing hamma bo'limlari qo'shilib ketganligi sababli qorin nerv zanjirining barcha nerv tugunlari (ko'krak nerv tugunlari ham) bosh miya bilan qo'shilib, umumiy halqum atrofi nerv halqasi ko'rinishidagi yaxlit gangliyani hosil qiladi.

O'rgimchaksimonlarda sezgi organlari ham turli-tumandir. Pedipalp-lardagi juda ko'p tukchalar mexanik ta'sirlarni sezadi. Shuningdek ular tuyg'u vazifasini ham bajaradi. Pedipalplar, oyoqlar va tana sirtidagi trixobotriylar deb ataluvchi maxsus tukchalar havo tebranishini qabul qiladi. Kutikulasidagi kichik tirqish ko'rinishidagi lirasimon organlar kimyoviy sezish va hid bilish vazifasini bajaradi. Ushbu organlarning pardasimon asosiga (tubiga) nerv hujayralarining sezuvchi uchlari kelib tutashadi. O'rgimchaksimonlarning ko'rish organlari oddiy ko'zlardan iborat. Bunday ko'zlar boshko'krakning orqa qismida joylashgan bo'lib, 12, 8, 6, hatto 2 ta bo'ladi. Chayonlarda bir juft ko'z biroz yirikroq bo'lib, markazda joylashadi, qolgan 2-5 jufti yon tomonlarda o'rnashadi. O'rgimchaklarda ko'zlar aksariyat 8 ta bo'ladi.

Chayonlar o'ziga o'xshash individni 2-3 sm masofadan ko'radi, ayrim o'rgimchaklar esa 20-30 sm dan ko'ra oladi.

Jinsiy sistemasi. O'rgimchaksimonlar ayrim jinsli va jinsiy dimorfizm o'rgimchaklar bilan kanalarda juda aniq ifodalangan. O'rgim-chaklarning erkaklari biroz kichik va pedipalplari qo'shilish a'zolariga aylangan.

Jinsiy bezlar juft, ba'zan o'zaro qo'shilib, toq organ sifatida qorin bo'limida joylashgan. CHayonlarning erkaklarida ikkita urug'don bo'lsa, urg'ochilarida esa bitta tuxumdon bo'ladi. O'rgimchaklarda esa ayrim hollarda erkak va urg'ochi gonadalar juft bo'lsa, ba'zan urg'ochi gonadalar orqa uchlari bilan o'zaro qo'shilib, toq gonadani hosil qiladi.

Urug'lanish ichki. Jinsiy hujayralarni qo'shilishi maxsus sperma-toforalar orqali sodir bo'ladi. Spermatoforalar urug' bilan to'lgan xaltachadan iborat. Kanalar va soxta chayonlarning erkaklari spermatofora-larini tuproqqa qo'yadi. Urg'ochilari esa uni jinsiy organlari bilan ilib oladi. O'rgimchaklarda erkagining pedipalplarining ichki bo'g'imida qo'shilish o'simtasi bo'ladi. Ushbu organ yordamida urug' suyuqligi urg'ochila-rini jinsiy teshigiga o'tkazadi. Bunday vaqtda urg'ochilarida urug' qabul qilgich rivojlangan bo'ladi.

O'rgimchaksimonlardan chayonlar, soxta chayonlar va ayrim kanalar ti-rik tug'adi. Lekin ko'pchilik boshqa guruhlar tuxum qo'yib ko'payadi. Urug'langan tuxumlar jinsiy bezlar yo'lida rivojlanaboshlaydi. O'rgimchaksimonlar embrioni tanasi voyaga yetgan individga nisbatan ko'p bo'g'imli bo'ladi. Masalan, o'rgimchak embrionini qorin bo'limi 12 ta bo'g'imdan iborat va 4-5 bo'g'implarda oyoqlar bo'ladi. Keyinchalik hamma qorin bo'g'implari qo'shilib ketadi, oyoqlar reduksiyalanadi.

O'rgimchaksimonlarning ko'pchiligi o'zgarishsiz rivojlanadi. O'zgarish bilan rivojlanish yo'li faqat kanalar uchun xosdir.

O'rgimchaksimonlar sinfining klassifikasiyasi

O'rgimchaksimonlar bir nechta turkumlarga bo'linadi. Bu turkumlarning eng asosiylari qo'yidagilardir.

Chayonlar turkumi – Scorpionida. Chayonlar o'rtacha kattalikdagi yoki ancha yirik o'rgimchaksimonlarni va asosan issiq iqlimli hududlarda tarqalgan turlarni o'z ichiga oladi. Ularning ayrim turlarini tanasi 15 sm va undan uzunroq bo'lishi mumkin. Chayonlar tunda faol hayot kechiradi. Kunduzi esa ular toshlar, daraxt po'stlog'i ostida, devorlar kovagida va yoriqlarida yashirilib yotadi. Ularning oziqasi turli hasharotlar hisoblanadi. Chayonlarni ombursimon uzun pedipalplari va segmentlarga aniq bo'lingan uzun qorin bo'limiga qarab ajratish mumkin. Bosh ko'krak yaxlit ustki qalqon bilan qoplangan. Qorning oxirgi bo'g'imi telson deyilib, uning kengaygan ichida bir juft zahar bezlari joylashgan. Telsonning uchi ingichka nayzaga o'xshaydi. Ana shu nayza ichida zahar bezlarining yo'li tashqariga ochiladi. Chayonlarning zahar apparati o'z o'ljasini o'ldirish, oziqlanish va himoyalaniish uchun ishlatiladi. O'ljasiga nisbatan zaharini ishlatish qo'yidagicha bo'ladi, ya'ni chayon pedipalplari yordamida hayvonni mahkam ushlab turib, qorin bo'limini ko'tarib, qayirib, nayzasini sanchiydi va suyuq zaharini tukadi.

Mayda chayonlarning zahari odamga kuchli ta'sir qilmaydi, lekin yirik chayonlarning zahari odam hayotiga xavf tug'diradi.

Ilmiy manbalarda chayon zaharidan odamning halok bo'lganligi haqida ma'lumot mavjuddir.

Hozirgi vaqtda chayonlarning 600 turi ma'lum. Ularning ko'pgina tur-lari tropiklarda tarqalgan. Masalan, uzunligi 17 sm ga teng bo'lgan afrika chayoni (**Pandinus imperator**) tropik hududda ko'p uchraydi.

Markaziy Osiyoda ham chayonlarning anchagina turlari tarqalgan. Shulardan biri chipor chayon - **Buthus eupeus** keng tarqalgan bo'lib, uzunligi 6-6,5 sm ga teng. Bundan tashqari Qrimda sariq tusli, kattaligi 4 sm ga teng bo'lgan qrim chayoni - **Euscorpius tauricus**, Kavkazning Qora dengiz sohillarida **Euscorpius italicus** kabilar ko'p uchraydi.

Qiloyoqlar turkumi – Redipalpi. Ushbu turkum o'rgimchaksimonlari tashqi ko'rinishi bilan chayonlarni eslatadi, lekin qorin bo'limi oldingi va keyingi qismlarga bo'linmagan. Ayrim turlarining qorin bo'limining eng oxirgi uchida uzun va bo'g'imlarga bo'lingan ingichka ipsimon qilcha bo'ladi. Yurish oyoqlarining 1-nchi jufti uzun qilsimon tuyg'u organiga aylangan. Pedipalplari esa qisqichga yoki tutuvchi organiga aylangan.

Qiloyoqlar ham chayonlar singari tunda faol hayot kechiruvchilardir. Yirtqichlik bilan oziqlanadi. Nafas olish organlari o'pkalar bir yoki ikki juft.

Qiloyoqlarning 180 ga yaqin turi bor va aksariyati tropiklarda tarqalgan. Vakil **Telephonus caudatus**.

Soxta chayonlar turkumi - Rseudoscorpionida. Coxta chayonlar tashqi tuzilishi bilan chayonlarga o'xshash, lekin juda kichik (2-3 mm) bo'lishi, qorin bo'limining keng bo'lishi, o'pkalarning bo'lmasligi va nihoyat zahar bezlarining bo'lmasligi bilan chayonlardan farq qiladi.

Soxta chayonlar ham toshlar, daraxtlar va binolar kovagida yashab, mayda hasharotlar bilan oziqlanadi. Ayrim turlari uyda kitob shikaflarida, kolleksiyalarda va gerbariyalarda yashaydi va zararkunanda hasharotlarni yeb foyda keltiradi. Masalan, kitob chayoni **Chelifer cansroides**

Pichano'rarlar turkumi – Opiliones. Ko'rinishi bilan o'rgimchaklarga o'xshash bo'ladi, lekin tanasi bo'g'imlarga bo'linganligi bilan farq qiladi. Qorin bo'limi 9-10 ta bo'g'imlardan iborat va boshko'krakka keng asos bilan tutashgan.

Pichano'rarlarning xeliserasi qisqichga o'xshash oyoqlari uzun va ingichka. Nafas olishi traxeyalar orqali amalga oshadi. Turkumning 3200 dan ortiq turi ma'lum. Keng tarqalgan turlaridan biri, daraxt va devorlarda uchrovchi oddiy pichano'rar **Phalangium opilio** ni ko'rsatish mumkin.

Solpuglar turkumi – Solifugae. Colpuga (falanga) lar ancha yirik o'rgimchaksimonlar bo'lib, uzunligi 5-8 sm, ba'zilar 10 sm gacha, hatto undan ham uzunroq bo'lishi mumkin. Solpugalar ham chayonlar singari janubiy kengliklarda keng tarqalgan. Solpuglar boshqa o'rgimchaksimonlardan bir qator tuzilish belgilari bilan farq qiladi, ya'ni tanasi ko'p sonli bo'g'imlarga bo'linganligi, boshko'krakning ikki qismdan, ya'ni 4 ta segmentning qo'shilishidan hosil bo'lgan oldingi qismida xeliseralari, pedipalplari va ikki juft ko'krak oyoqlari bo'ladi. Boshko'krakning keyingi qismi ikkita erkin bo'g'imlardan hosil bo'lgan va unda ikki juft yurish oyoqlari bo'ladi. Zahar bezlari bo'lmaydi. Solpugalarni pedipalplari oyoqlarga o'xshaydi va yurishda ishtirok etadi. Nafas olish traxeyalar yordamida bo'ladi.

Solpugalarning 600 dan ortiq turi ma'lum. Bizning sharoitimizda oddiy falanga-**Galeodes araneoides** ko'p uchraydi. Ushbu tur yana Qrim, Kavkaz va Markaziy Osiyo cho'llarida keng tarqalgan.

O'rgimchaklar turkumi – Aranei. O'rgimchaklarning boshko'krak va qorin bo'limlari bo'g'imlarga bo'linmagan hamda ushbu ikkala bo'lim ingichka va qisqa poyacha yordamida birlashgan bo'ladi. Ushbu poyacha 7-nchi segment hisobidan hosil bo'lgan.

Pedipalplari paypaslagichlar shaklida. Erkak o'rgimchakda ular qo'shi-lish organi vazifasini bajaradi. Nafas olish organlari bir yoki ikki juft o'pkalardan iborat. Ko'pchiligida yana traxeyalar ham rivojlangan. Qorin bo'limidagi ikkita segmentning oyoqlari to'r hosil qiluvchi so'gallarga aylangan.

O'rgimchaklar evolyusiyasida to'r (ip) hosil qiluvchi bezlarning shakllanishi juda katta ahamiyatga egadir. Bunday bezlar qorin bo'shlig'ida joylashgan. Ushbu bezlar ayrim o'rgimchaklarda 1000 tagacha bo'lishi mumkin. Bezlarning chiqarish yo'llari qornining keyingi qismiga, to'r sugallarining oldidagi plastinkaga ochiladi. Bezlarning suyuqligi havoda qotib,

ip hosil qiladi. Bir necha yuzlab bezlarning ajratgan juda nozik, ingichka ipchalarni umumiy bitta ipga yopishtirib o'rgimchak inini hosil qiladi. Bu iplar har xil, ya'ni quruq, hul, yopishqoq va boshqa xillarda bo'lganligi sababli, o'rgimchak bu iplardan tuzoq qo'yish, tuxumlari uchun pilla o'rash, yashash uchun in qo'rish va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi.

O'rgimchaklar to'rga tushgan hasharotlarni iplar bilan o'rab, so'ngra uning tanasini xeliseralari yordamida yirtib (teshib), so'lagini o'tkazadi. So'lak ta'sirida to'rga tushgan o'ljani ichki organlari parchalanib, suyuq holga keladi va shundan so'ng o'rgimchak uni so'rib oladi.

O'rgimchaklarda jinsiy dimorfizm yaxshi rivojlangan. Erkagi urg'ochisidan biroz kichik bo'ladi, shuningdek pedipalplari uchidagi naysimon o'simta qo'shilish organiga aylangan. Erkak o'rgimchak urug' bilan to'lgan o'simtasini o'rg'ochisini urug' xaltasiga kiritadi. Erkak o'rgimchak jinsiy qo'shilish oldidan raqsga o'xshash tez harakatlarni bajaradi. Ba'zi turlarida esa erkagi o'rg'ochisiga o'ldirilgan o'ljani oziqa sifatida in'om qiladi. Ba'zan esa jinsiy qo'shilishdan so'ng qochishga ulgurmagan erkagi o'rg'ochisi tomonidan yeb qo'yiladi.

O'rgimchaklar foydali hayvonlardir, chunki ular zararkunanda hasharotlarni ko'plab yo'qotadi. Ko'pgina o'rgimchaklarda zaharli bezlar bo'lmaydi. Shuning uchun ularni o'zi boshqa hayvonlar (kemiruvchilar, sudralib yuruvchilar, yirtqich hasharotlar va boshqalar) ga oziqa bo'ladi. O'rgimchaklarning ayrimlari zaharli bo'ladi. Bunday o'rgimchaklar odam va ko'pgina hayvonlar uchun katta xavf tug'diradi. Masalan, Kavkaz Qrim va Markaziy Osiyoning cho'l va dashtli hududlarida tarqalgan qora qurt-**Latrodectus tridecimguttatus** ni ko'rsatish mumkin. Shimoliy Afrika cho'llarida yashovchi "**qora beva**" nomini olgan turi **L. mactans** esa juda zaharli hisoblanadi. Qoraqurtning urg'ochisi 10-20 mm, erkagi esa 5-8 mm kattalikda bo'lib, qorin bo'limining orqasida qizil dog'lari bo'ladi. Uning zahari ancha yirik (tuyalar, otlar) hayvonlarga ta'sir etib, ularni halok qiladi. Zahar odamni ham o'ldirishi mumkin.

Zaharli o'rgimchaklarga yana bizda ko'p o'chrovchi biy (tarantul) **Lycosa singoriensis** ni ko'rsatish mumkin. Zaharsiz o'rgimchaklardan bizda uchrovchi turlaridan butli o'rgimchak-**Araneus diadematus**, uy o'rgimchagi - **Tegenaria domestica** kabilarni ko'rsatish mumkin.

Tropikda uchrovchi to'rt o'pkali Janubiy Amerika qushxo'r o'rgimchagi - **Avecularia avicularia**, uzunligi 9 sm keladigan YAva qushxo'r o'rgimchagi-**Selenocosmia javanensis** ko'p tarqalgan.

Kanalar turkumi – Acari. Kanalar ancha mayda, ba'zi hollarda mikroskopik kattalikka ega bo'lgan o'rgimchaksimonlarning 10000 dan ortiq turini o'z ichiga oladi. Kanalarning ko'pchiligi saprofit va yirtqichlik bilan hayot kechiradi. Lekin ularning orasida hayvonlarda, odamda va o'simliklarda parazitlik qiluvchi turlari ham anchaginadir.

Kanalarning turli guruhlarida tanasi turli darajada bo'g'implarga bo'lingan bo'ladi. Ayrimlarining tanasi ko'p sonli bo'g'implarga bo'lingan bo'lsa, ayrimlarini tana segmentlari yaxlit bo'lib ketgan. Ko'pchilik kanalarning xelisera va pedipalplari harakatchan boshcha yoki xartumchani hosil qiladi. Ayrimlarida xeliseralar qisqichsimon yoki so'ruvchi og'iz organlari tarkibiga kiradi. Kanalarning ko'pchiligi traxeyalar orqali nafas olsa, ayrimlarida nafas olish organlari umuman shakllanmagan. Kanalarning urg'ochilarini urug'lanishi spermatoforalar yordamida amalga oshadi. Bunday spermatoforalar erkak kana tomonidan urug' to'kish organlari yordamida har xil substratlarga yopishtirib qo'yadi. Urg'ochi kana bu spermatoforalarni oyoqchalari yoki maxsus jinsiy organlari yordamida o'ziga oladi. Ayrim kanalarning erkaklarida haqiqiy qo'shilish organi shakllangan. Urug'langan tuxumdan uch juft oyoqlarga ega bo'lgan lichinka chiqadi. U rivojlanib, jinsiy voyaga yetmagan bosqich - nimfaga aylanadi. Uning 4 juft oyoqlari bo'ladi. Nimfa 2 yoki 3 marta po'st tashlab, voyaga yetadi.

Kanalar har xil sharoitlarda yashashga moslashgan. Masalan, **Oribitidae** oilasining vakillari tuproqda, **Gamasoidea** oilasining vakillari ayrimlari erkin hayot kechirsa, ba'zilar parazitlikka moslashgan. Kanalarning gidraxnellalar (**Hydrachnellae**) deb ataluvchi oilasi 2000 ga yaqin turga ega bo'lib, chuchuk suvda yashashga moslashgan. Ular yirtqichlik bilan oziqlanib, tuban qisqichbaqasimonlar va hasharotlar lichinkalarini ko'plab iste'mol qiladi.

Kanalarning anchagina guruhlari amaliy ahamiyatga ega bo'lib, odamda, turli hayvonlarda va madaniy o'simliklarda parazitlik qilish bilan birga xilma-xil kasallik qo'zg'atuvchilarni tarqatadi.

Parazit kanalar o'z xo'jayinining qoni, tana suyuqligi, terisi yoki pati bilan oziqlanadi. Odam va hayvonlar terisida parazitlik qiluvchi turlardan biri qo'tir yoki qichima kanasi-**Sarcoptes scabiei**. U mikroskopik kattalikda (0,3-0,4 mm) bo'lib, terining shox qavatida o'ziga yo'llar ochadi. Kana teri osti nerv uchlariga ta'sir qilib, kuchli qichishni paydo qiladi.

Mikroskopik kattalikdagi parazit kanalardan husnbuzar kana - **Demodex folliculorum** odam terisidagi yog' bezlari va soch xaltasida parazitlik qiladi. Ba'zan u tez ko'payib, yuzda va bo'yin terisida ham ko'plab yaralarni hosil qiladi.

Parazit kanalar orasida **Ixodidae** va **Argasidae** oilalarining ko'pgina turlari harxil yovvoyi va uy hayvonlari orasida tif, tulyaremiya, ensefalit, piroplazmoz kabi ko'pgina infeksiya va invazion kasalliklarni tarqatib yuradi.

Masalan, tayga kanasi - **Ixodes persulcatus** Uzoq Sharqning ko'pgina hududlarida uchrab, o'sha hududlarda tarqalgan yovvoyi hayvonlar va qushlar orasida bahorgi-yozgi ensefalit kasalligini qo'zg'atuvchi viruslarni tarqatadi.

Iksod kanalaridan it kanasi - **I. ricinus** hayvonlar orasida piroplazmoz (qon siyish) kasalligini qo'zg'atuvchi bir hujayrali hayvonlardan (sporalilardan) piroplazmalarni tarqatadi.

Parazit kanalaridan - **Dermacentor**, **Ornithodoros** kabi avlod vakillari ham hayvonlar orasida xavfli kasalliklarni tarqatishda faol ishtirok etishadi. Umuman ektoparazit kanalar ham qon so'ruvchi parazit hasharotlar (bitlar, burgalar, chivinlar, pashshalar va boshqalar) singari transmissiv kasalliklarni tarqatishda muhim zvenolardan hisoblanadi. Bundan tashqari kanalar harxil kasalliklarni qo'zg'atuvchi rikketsiyalar, viruslar, spiroxetalar, bakteriyalar, parazit bir hujayrali hayvonlarni kasal hayvon organizmidan sog'lom organizmga o'tkazishda va shu usul bilan kasallik qo'zg'atuvchilarni tabiatda manba holida uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi.

Kanalarining anchagina turlari o'simliklar va ularning mahsulotlari hisobidan oziqlanishga va shu yo'l bilan o'simliklarga juda katta zarar yetkazishga moslashgan. Bunday kanalaridan oddiy o'rgimchak kana (**Tetranychus telarius**) turli xil madaniy o'simliklarga, jumladan g'o'za, sabzavot va poliz ekinlariga hamda mevali daraxtlarga zarar keltiradi.

O'simliklarning, ayniqsa ko'p yillik daraxtchil o'simliklarining barglarida va boshqa organlarida kattaligi 0,1-0,2 mm keladigan, ikki juft oyoqlarga ega bo'lgan, hamda burtmalar (gallar) hosil qiluvchi **Eriophyidae** oilasining bir qancha turlari e'tiborga sazovordir. Kanalar orasida **tiroglifoidlar** guruhining turlari omborlarda un va donlarga katta zarar keltiradi. Bu borada g'alla kanalarining salbiy roli g'oyat kattadir.

Xeliseralilarning kelib chiqishi

Xeliseralilarning dastlabki guruhlar (qisqichbaqachayonlar) qadimgi trilobitsimonlardan kelib chiqqan, chunki ularning tuzilishi va yashash davri aynan trilobitsimonlarga o'xshash bo'ladi. Xeliseralilarning qilichdumlilar guruhi ham qadimgi hayvonlar hioblanib, silur davrigacha yetib kelgan.

O'rgimchaksimonlarning dastlabki vakillari esa silur davrida paydo bo'lgan va ularning tuzilishi hozirgi zamon chayonlariga o'xshash bo'lgan. Shunday qilib xeliseralilar orasida qisqichbaqachayonlar va qilichdumlilar eng tuban taraqqiy etgan guruhlar hisoblanadi.

O'rgimchaksimonlarning kelib chiqishi esa qisqichbaqachayonlar bilan bog'liqdir, chunki ushbu sinflar vakillarida boshko'krakning o'simalari soni va funksiyasi o'xshashdir.

Tarixiy rivojlanish davomida ba'zi o'rgimchaksimonlarda segmentlar oligomerizatsiyasi ko'zatiladi. Tana bo'lim va bo'g'imlarining o'zaro qo'shilib ketishi aynan ushbu sinf uchun xarakterlidir. Shuningdek o'rgimchaksimonlarning ayrim guruhlarida qorin bo'limi o'simalari (o'pka, jinsiy teshik qapqog'i, taroqsimon o'simta, ip so'gallari) ham kamayib borgan. Masalan, chayonlarda o'pka 4 juft, oliy o'rgimchaklarda esa bir juft bo'ladi. Ayrim guruhlarida esa o'pka butunlay yo'qolib, traxeyalar rivojlangan bo'ladi.

6 Ma'ruza

Mavzu: Hasharotlarni tadqiqot o'tkazish uslublari.

Reja:

1. Hasharotlarning gavda bo'limlari va ularning segmentlari. Segmentlarning tuzilishi.
2. Og'iz organlari va uning turli-tumanliligi.
3. Qanotlar va oyoqlarning tuzilishi.
4. Hasharotlarning tana qoplag'ichlari.
5. Hasharotlarning ichki organlar va sistemalarining tuzilish xususiyatlari. Ovqat hazm qilish organlari.
6. Hasharotlarning traxeyalar sistemasining tuzilishi. Nafas olish xususiyatlari. Ajratish organlari.
7. Hasharotlarning qon aylanish sistemasi. Qonning, yurak, qon tomirlari va gavda bo'shlig'ida harakatlanishi.
8. Nerv sistemasi va sezgi organlarining tuzilishi hamda funksiyalari.
9. Jinsiy sistemasi va ko'payishi. Partenogenez.
10. Hasharotlarning postembrional rivojlanishi. Rivojlanishning asosiy shakllari.

Hayvonlar olamining barcha sinflari orasida hasharotlar eng katta sinf bo'lib, taxminiy hisoblarga ko'ra 1 mln dan ortiq turni o'z ichiga oladi. Bu sinf vakillari shimoliy va janubiy qutblardan tortib, ekvatorgacha bo'lgan turli kengliklardagi quruqlikda yashashga moslashgan hayvonlardir. Shuning bilan birga hasharotlarning ayrim turlari suvda (asosan chuchuk suvda) yashashga moslashgandir.

Tana tuzilishi. Hasharotlar xilma-xil kattalikda bo'lib, ayrimlari mikroskopik o'lchamda (0,2 mm) bo'lsa, eng yiriklarining o'lchami esa 25-30 sm ga teng bo'ladi.

Hasharotlarning tanasi aniq uch bo'limdan, ya'ni bosh (sefalon), ko'krak (toraks) va qorin (abdomen) deb ataluvchi qismlardan iborat. Bosh bir-biri bilan yaxlit bo'lib qo'shilib ketgan 5 ta segmentdan, ko'krak 3 ta segmentdan va qorin esa har xil sonda, ko'p hollarda 11 ta segmentdan iborat. Umuman hasharotlarning tanasi ko'pi bilan 19 ta segmentdan tashkil topgan.

Bosh yaxlit xitin pansiri bilan qoplangan bo'lib, bosh kapsulasini hosil qiladi, va unda "peshona", "bosh tepasi", "ensa", "chakka", "lunj" deb ataluvchi qismlar farq qilinadi.

Boshda bir juft mo'ylovlar, og'iz organlari, murakkab va oddiy ko'zlar joylashgan. Mo'ylovlarda juda ko'p tuklar bo'lib, ular tuyg'u va hid bilish vazifasini o'taydi. Mo'ylovlar bo'g'inlarga bo'lingan va shakl jihatdan xilma-xildir, ya'ni ipsimon, arrasimon, taroqsimon, duksimon, patsimon, plastinkasimon va boshqa shakllarda bo'ladi.

Boshda bir juft murakkab ko'z va bir nechta (har xil hasharotlarda 2 tadan 8-12 tagacha) oddiy ko'zlar bo'ladi. Murakkab ko'zlar juda ko'p sondagi oddiy ko'zchalar (ommatidiy) larning to'plamidan iboratdir va har bir murakkab

ko'zda ularning soni har xil hasharotlarda turlicha sonida (3 mingdan 25 minggacha).

Murakkab ko'zlar boshning ikki yon tomonida, oddiy ko'zlar esa boshning peshona, tepa va ensa qismlarida joylashgan.

Og'iz organlari. Hasharotlarning og'iz organlari uch juft shakl o'zgartgan og'iz oyoqlardan iborat bo'lib, u yuqori lab, bir juft yuqori jag', pastki lab va pastki jag' kabi qismlarni hosil qiladi.

Hasharotlarning og'iz organlari, ovqatlanish usuliga qarab o'zgargandir. Qattiq oziqa bilan oziqlanadigan hasharotlar (suvaraksimonlar, chigirtkasimonlar, qattiq qanotlilar) uchun **kemiruvchi** tipidagi og'iz apparati xosdir. Bunday og'iz oldingi va yuqori tomondan xitinlashgan yuqori lab bilan qoplangan. Bir juft yuqori jag'lar kuchli muskullar bilan ta'minlangan. Juft pastki jag'lar va pastki lab ham oziqani kemirishga moslashgan.

Suyuq oziqa (gul sharbati) bilan oziqlanadigan ko'pchilik parda qanotlilarning (jumladan asalarilar) og'iz organlari kemiruvchi belgilarni saqlab qolgan holda, ayrim o'zgarishlar paydo qilib suyuq oziqani so'rib olishga moslashgan. Bunday og'iz organlari kemiruvchi- so'ruvchi og'iz deb ataladi. Bunday hasharotlarda mandibulalar rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, pastki jag'lar va pastki lab qo'shilib gul sharbatini so'rib olishga moslashgan.

Suyuq ovqat bilan oziqlanadigan ayrim hasharotlarda (kapalaklarda) esa og'iz organlari ancha o'zgarib, yuqori lab, yuqori jag'lar va pastki lab ancha reduksiyanib (qisqarib) pastki jag'lar rivojlanib, tarnovcha shaklini hosil qilgan va xartumchaga aylangan. Bunday xartumcha ba'zan juda uzun bo'lishi mumkin va tinch holatda spiral bo'lib turadi. Ba'zi kapalaklarning (brajniklar) xartumchasini uzunligi 20 sm gacha boradi. Kapalaklar ana shu xartumcha yordamida gul sharbatini bema'lol so'rib oladi.

Bir guruh hasharotlarda (qandalalar, o'simlik bitlari, chivinlar, iskaptoparlar, bitlar, burgalar) sanchuvchi-so'ruvchi og'iz organlari rivojlangan. Bunday og'izda yuqori va pastki jag'larning kuchli o'zgarishi natijasida, to'rtta sanchuvchi qilchaga aylanib, tarnovcha shaklini hosil qilgan pastki lab ichiga kirib turadi. Yuqori lab yetarli darajada rivojlanmagan. Pastki jag'lar o'zaro birlashib ikkita naycha hosil qiladi. Bu naychalarning biridan so'lak suyuqligi oqib chiqadi, ikkinchisi orqali esa suyuq oziqa so'rib olinadi.

Ayrim hasharotlarda (masalan, uy pashshasida) og'iz organlari oziqani yalashga moslashgan. Bunday og'iz apparatida yuqori jag'lar reduksiyanlangan. Pastki lab o'zgarib, uch tomoni yostiqchasimon shish hosil qiladi. Pashsha oziqa zarrasini so'lagi bilan namlaydi va so'ngra suyuq ovqat lab bilan tilchadan hosil bo'lgan nozik naychaga o'tadi.

Ko'krak qismi. Hasharotlarning ko'kragi uch segmentdan, ya'ni ko'krak oldi, ko'krak o'rtasi va ko'krak oxiri qismlardan tashkil topgan. Ko'krakning har bir segmentidan bir juftdan oyoq chiqadi. Hammasi bo'lib uch juft yoki 6 ta oyoq bo'ladi. Barcha hasharotlar uchun xos bo'lgan belgilardan biri

ularning oyoqlarining 6 ta bo'lishidir. Shu sababli hasharotlar sinfini 2-nchi nomi **oltioyoqlilar** deb ham yuritiladi.

Qanotli hasharotlarda ko'krak o'rtasi va ko'krak oxiri segmentlarida bir juftdan qanotlar ham bo'ladi. Shunday qilib, hasharotlarning ko'krak qismi, tanani harakatga keltiruvchi bo'lim yoki lokomotor qism bo'lib hisoblanadi.

Oyoqlar bo'g'imlarga bo'lingan va tosha, o'ynag'ich, son, boldir hamda panjalaridan iborat. Aksariyat hasharotlarning oyoqlari yurish va yugurish vazifasini o'taydi, lekin ularda yashaydigan sharoitlarga moslashgan turlicha oyoqlarni shakllanishini ko'ramiz. Masalan, chigirtkasimonlarda, burgalarda 3-nchi juft oyoqlari sakrashga moslashgan bo'lib, ular ancha uzun va go'shtdor, kuchli bo'ladi. Tuproq orasida yashashga moslashgan hasharot-larning (ayrim qo'ng'izlarda, buzoqboshlarda) oldingi juft oyoqlari yerni kovlashga moslashgan. Bu oyoqlarning boldiri yassilashgan va chetlari arrasimon bo'ladi.

Suvda yashovchi hasharotlarda (suv qandalalari, so'zgichlar va hokazo) keyingi juft oyoqlari eshkak oyoqlarga aylangan. Ular keng bo'ladi va uzun qilchalar bilan qoplangan.

Beshiktervatarning oldingi juft oyoqlari tuzilish jihatdan changallovchi oyoqlarga aylangan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, hasharotlarning ma'lum bir sharoitga moslashuvi, ularning oldingi yoki keyingi juft oyoqlarining o'zgarishiga olib kelgan. O'rta (2-nchi) juft oyoqlar esa o'zgarishga deyarli berilmagan va ular doimo yurish yoki yugurish vazifasini amalga oshirishda qatnashadi.

Qanotli hasharotlarning aksariyat ko'pchiligida ikki juft qanotlar bo'lib, ularning birinchi jufti ko'krak o'rtasi segmentidan, 2-nchi jufti esa ko'krak oxiri segmentidan chiqadi. Ayrim hasharotlarda (ninachilarda ikkala juft qanotlar ham bir xilda rivojlangan bo'lsa, boshqa bir guruhida (tukli arilar, asalarilar, kapalaklar) oldingi juft qanotlar biroz yirikroq va kuchliroq rivojlangan. Ba'zi hasharotlarning (masalan, qo'ng'izlarning) qanotlari bir-biridan katta-kichikligi bilangini emas, balki tuzilishi va bajaradigan vazifasi bilan ham farq qiladi. Qo'ng'izlarning oldingi juft qanotlari juda qalin xitinlashgan bo'lib, qattiq qanotni hosil qilgan va qanot ustiga aylangan. Bunday qanot hasharot uchganda tana tekisligini saqlashda xizmat qilsa, tinch turganda esa tanani har xil ta'sirlardan himoya qilishda asosiy rol o'ynaydi. Qo'sh qanotli hasharotlarda (chivinlar, so'nalar, bo'kalar, pashshalar) birinchi juft qanotlar rivojlangan bo'lib, 2-nchi jufti esa reduksiyalanib, tug'nagich ko'rinishidagi ortiqlarga (rudimentlarga) aylangan. Bu rudimentlar ichida esa muvozanat saqlovchi organlar joylashgan va shuningdek, hasharot uchganda ular vizillagan ovoz chiqaradi.

Qanotlar hamma hasharotlarda ham bo'lavermaydi. Bunday qanotsiz hasharotlarga tuban hasharotlar kiradi. Shuningdek parazitlik bilan hayot kechirishga moslashgan bitlar, burgalar va ayrim qandalalar tekinxo'rlik muhitiga moslashganligi tufayli qanotlarini butunlay yo'qotgan.

Qorin bo'limi. Hasharotlarning qorin bo'limi bir-biridan aniq ajralib turuvchi har xil sondagi, ko'pincha 9-11 ta segmentlardan tashkil topgan. Tuban taraqqiy etgan hasharotlarning qorin bo'limi 11 ta segmentdan iborat bo'lsa, oxiri telson bilan tugaydi. Qorin bo'limida oyoqlar bo'lmaydi, lekin tuban hasharotlar (**Protura** turkumi) ning birinchi uchta qorin bo'g'imlarida juda mayda qorinoyoqlar saqlanib qolgan. Yuqori taraqqiy etgan ayrim hasharotlar (pardaqanotlilar va ikki qanotlilarning ayrim turlarida) qorin bo'limi 4-5 ta segmentdan iborat bo'ladi. Hasharotlarning qildumlilar (**Thysonura**) turkumi vakillarida qorin bo'limi 10 ta segmentdan iborat bo'lib, har biri oyoq rudementlari **grifelchalar** deb ataluvchi maxsus o'simtalar hosil qilgan. Ular harakatlanishga yordam beradi. Suvaraklarda esa qornining eng oxirgi segmentida ham bir juft **grifellar** saqlangan.

Hasharotlarning ayrim guruhlarida (suvaraklarda, chigirtkalarda va boshqalarda) qornining oxirgi bo'g'imida **serkalar** deb ataluvchi shakl o'zgartgan qorinoyoq qoldig'i (rudimenti) bo'ladi. Nihoyat urg'ochi hasharotlarning qorin bo'limining eng oxirgi bo'g'imida uch tavaqali tuxum qo'ygich ham qorin oyoqlarning o'zgargan turidir.

Gavda qoplag'ichlari. Hasharotlarning ham boshqa bug'imoyoqlarniki singari gavda qoplag'ich uch qavatdan, ya'ni kutikula, gipoderma va bazal membranadan iborat. Gipoderma hisobidan hosil bo'luvchi kutikula uch qavatdan iborat. Uning eng ustki qavati epikutikula **lipoprotein** moddalardan iborat bo'lib, suvni organizmdan tashqariga bug'lanishiga yo'l qo'ymaydi. Kutikula tarkibiga kiruvchi oqsil moddalari uni pishiq bo'lishini ta'minlaydi. Kutikula sirtidagi har xil o'simtalar, tuklar va qillar gipodermadan hosil bo'ladi. Ular termoregulyasiya, sezish, muhofaza qilish va boshqa funksiyalarda ishtirok etadi. Hasharotlar gavda qoplag'ichining rangi ko'pincha gipodermadan yoki kutikula tarkibidagi maxsus buyovchi pigmentga bog'liq bo'ladi. Ayrim hasharotlar va ularning qurtlarini rangiga ichki organlari va tana suyuqligini rangi ta'sir qiladi. Masalan, xironomus pashshalari qurtlarining qizil rangi gemolimfa tarkibidagi gemoglobinga bog'liq. Ko'pgina kapalaklarning, qo'ng'izlarning va boshqa hasharotlarning xilma-xil tovlanadigan ranglari pigmentga bog'liq bo'lmaydi, balki ko'p qavatli xitin plastinkalarning tana sirtiga nisbatan burchak hosil qilib joylashishiga bog'liqdir. Ko'pgina hasharotlarda tana rangi ogohlantirish vazifasini bajaradi.

Hasharotlarning gavda qoplag'ichlarida hid tarqatish, mum ishlab chiqarish va tullash bezlari ham bo'ladi. Bu bezlar bir hujayrali yoki ko'p hujayrali bo'lishi mumkin.

Ovqat hazm qilish sistemasi. Hasharotlarning ovqat hazm qilish sistemasi uch bo'limdan, ya'ni oldingi, o'rta va keyingi ichaklardan iborat. Oldingi ichak halqum, qizilo'ngach, jig'ildon va muskulli oshqozondan iborat. Bu qismlarning ichki yuzasi kutikula bilan qoplangan. Bu belgi shu bo'limning embrional rivojlanishida ektodermadan hosil bo'lganligidan dalolat beradi. Halqum bilan qizilo'ngach ovqat o'tkazish, jig'ildon esa qizilo'ngachning

kengaygan qismi hisoblanib, ovqatni to'plab keyinchalik uni qism-qism qilib muskulli oshqozonga (ba'zan o'rta ichakka) o'tkazib turadi. Oldingi ichak bilan so'lak bezlari ham bog'langan, chunki ularni naylari jig'ildonga, ba'zi hasharotlarda esa og'iz bo'shlig'iga ochiladi. Jig'ildonga ochiladigan so'lak bezlari suyuqligi tarkibida amilaza fermenti ko'p bo'lib, u kraxmalni glyukozaga aylantiradi. Bunga asalarilarni jig'ildonida asalning hosil bo'lishini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Kapalaklarning lichinkalarida oldingi ichak bilan bog'langan ikki juft so'lak bezlari bo'lib, ularning bir jufti ovqat hazm qilishda qatnashsa, 2-nchi jufti esa ipak tolasini hosil qiluvchi bezlar hisoblanadi.

Ayrim hasharotlarning (chivinlar, burgalar va hakozolar) so'lak bezlarining suyuqligida terini achishtiradigan fermentlar bo'ladi.

Ayrim hasharotlarda (suvaraksimonlar, qattiq qanotlilar, beshik-tervatsimonlar) jig'ildondan keyin chaynov oshqozoni deb ataluvchi bo'lim bo'ladi. Uning ichki devori xitinli tishlar bilan ta'minlangan.

Hasharotlarning o'rta ichagi ularning ovqatlanish xiliga binoan har xil shaklda bo'ladi, lekin ular qanday shaklda bo'lmasin, u bo'limlarga bo'linmagan va ichki yuzasi bezli epiteliy bilan qoplangan. Ba'zi hasharotlarda (suvaraksimonlar, chigirtkasimonlar) o'rta ichak silindr shaklidagi qisqa naychadan iborat. Bu naychaning boshlang'ich qismida kalta ko'r o'simta bo'lib, u oshqozonning hajmini kengaytirishda ahamiyatlidir. Ko'pgina hasharotlarda (qo'sh qanotlilar) o'rta ichakning boshlang'ich qismida peritrofik membrana(parda) bo'lib, suvni va mineral tuzlarni juda yaxshi o'tkazadi, lekin ovqat hazm qilish fermentlarini esa faqat bir tomonlama o'tkazish xususiyatiga ega. Umuman o'rta ichak qanday tuzilish va shaklda bo'lmasin, unda oziq moddalari fermentlar ta'sirida oddiy organik birikmalarga parchalanadi. Bu mahsulotlar o'rta ichak epiteliysi hujayralari tomondan so'rib olinadi yoki ichak devori orqali mahsulotlar gemolimfaga so'riladi.

Orqa ichak o'rta ichakdan pilorik qapqoq (klapan) bilan ajralgan va u malpigiyo tomirlarining ichakka ochilgan joyidan boshlanadi. Orqa ichakning ichki yuzasi xitindan tashkil topgan parda bilan qoplangan. Orqa ichakda suvdan tashqari boshqa mahsulotlar hazm bo'lmaydi va so'rilmaydi, balki unda axlat to'planadi hamda tashqariga chiqariladi.

Nafas olish sistemasi. Hasharotlarning nafas olish organlari traxeyalar sistemasidan iborat bo'lib, bu sistema embrional rivojlanish jarayonida ektodermadan hosil bo'ladi. Traxeya sistemasining naychalari tananing hamma joyiga kirib boradi. Ayrim hasharotlarda traxeyalar bo'lmaydi va ular havoni butun tana yuzasi orqali diffuziya yo'li bilan qabul qiladi.

Traxeyalar tashqi muhit bilan **stigmalar** deb ataluvchi maxsus nafas teshiklari bilan boshlanadi. Stigmalar ko'pi bilan 11 juft bo'lib, 3 jufti (ba'zan 2 juft) ko'krakda va 8 jufti esa qorin bo'limida joylashgan.

Stigmalar ancha murakkab tuzilgan. Ularning katta-kichikligi va shakli turli-tuman. Stigmalarining havo kiradigan teshigi maxsus moslamalar bilan

bekilgan. Ayrim hasharotlarning stigmalarini havo teshigi xitinli tur bilan tortilgan bo'lsa, ba'zilarida teshik atrofi tuklar bilan qoplangan. Bu moslamalarning asosiy vazifasi ichkariga yot narsalarni kirishiga to'sqinlik qilishdan iboratdir. Stigmaning havo teshigi to'g'ridan-to'g'ri traxeyaga tutashmasdan, avval traxeya oldidagi kameraga tutashadi.

Hasharotlarning traxeya sistemasi ancha murakkab bo'lib, boshlang'ich yirik naylar shoxlanib, tobora maydaroq tarmoqlarga, ular o'z navbatida juda nozik kapillyar traxeolalarga ajraladi. Kapillyar traxeolalar uchki hujayralar bilan tugallanadi. Bu hujayralarning maxsus havo o'siqlari gavdaning barcha to'qima va organlari ichiga havo olib boradi.

Suvda yashaydigan hasharotlarning nafas olish sistemasi boshqacha tuzilgan. Shunga binoan ularni ikki guruhi, ya'ni suvda yashab, atmosfera havosidan nafas oluvchi hasharotlar va suvda erigan kislorod bilan nafas oluvchi hasharotlar farq qilinadi.

Birinchi guruhga suv qo'ng'izlari, qandalalar, chivin lichinkalarini kiritsak, 2-nchi guruhga kunliklar, ninachilarning lichinkalarini kiritish mumkin. Suv qo'ng'izlarining qattiq qanotlari ostida bo'sh joy bo'lib, u har doim havo bilan to'lib turadi. Qo'ng'iz suvda ana shu havodan foydalanadi. Agar bu havo tugab qolsa, qo'ng'iz suv betiga chiqib, bo'shliqni atmosfera havosi bilan to'ldirib, yana suv ichiga kirib ketadi.

Boshqa suv hasharotlari esa suvda erigan kislorodni butun tana yuzasi orqali singdirib oladi yoki ularning ayrim guruhlarida suvdagi erigan kisloroddan foydalanish uchun traxeya jabralari taraqqiy etgan. Bu organlar gavdaning qorin qismini ikki yon tomonida joylashgan va ipsimon yoki bargsimon shaklda bo'ladi.

Qon aylanish sistemasi. Hasharotlarning qon aylanish sistemasi tutash emas. Ularda qon tomirlar yaxshi taraqqiy etmagan. Shunga binoan qon gavda bo'shlig'ini va organlar orasidagi bo'shliqlarni to'ldirib, aylanib turadi.

Qonni gavdaning yelka tomonida joylashgan yelka qon tomiri harakatga keltiradi. Bu qon tomirlarning oldingi qismi aorta, keyingi qisqarib turuvchi qismi esa yurak deb ataladi. Yurak ko'p kamerali (suvaraklarda 13 tagacha) bo'ladi. Yurak kameralari orasida klapanlar bo'lib, bular qonni teskari tomonga oqishiga to'sqinlik qiladi, chunki qon teskari tomon harakat qilganda klapanlar kameralar oralig'ini bekitib qo'yadi. Yurakning orqa tomon uchi berk bo'ladi. Yurakning qisqarishi uning yonida joylashgan uchburchak shakldagi yassi muskullarning harakatiga bog'liqdir. Hasharotlar tanasida qon qo'yidagicha harakatlanadi, ya'ni yurak kameralarining qisqarishi keyingi kameradan boshlanib, oldingi kameralarga birin-ketin o'tadi. Natijada qon kameradan kameraga, shuningdek perikardial sinusdagi qon navbatma-navbat kameralarga o'tib turadi. Kameralarning navbatma-navbat qisqarishi natijasida qon aortaga o'tadi. Aortadan qon bosh bo'shlig'iga, undan gavda sinuslari bo'ylab orqaga qaytib, oyoqlarga tushadi, gavdaning qorin qismida, oldindan orqaga qarab harakatlanib, perikardial sinuslarga o'tadi va yana yurakka tushadi. Shuni qayd

qilish lozimki, qon harakati faqatgina yurakning qisqarishi tufayligina emas, balki tana, ichaklarning harakatlanib turishi va qanotsimon muskullarning qisqarishi natijasida ham qon harakatga kelib turadi. Yuqoridagilardan ma'lum bo'lishicha hasharotlarda qon tomirlar sistemasi ancha sodda tuzilgan ekan. Bu narsa shu hayvonlarda traxeyalar sistemasining kuchli rivojlanganligidan kelib chiqqandir. Natijada qon gazlar almashinuvida qatnashmasdan, balki uning birdan-bir funksiyasi to'qima va organlarga oziq moddalarini olib borish va oksidlanish mahsulotlarini tashqariga chiqarishda qatnashishdan iborat bo'lib qolgandir. Hasharotlarning qoni gemolimfa deyilib, u rangsiz, yoki sariq, ba'zan ko'kimtir bo'ladi. Ayrim guruhlarida esa (chivinlar, pashshalar va boshqalarda) gemolimfada gemoglobin bo'lganligi sababli, rangi qizil bo'ladi.

Ajratish organlari. Hasharotlarning ajratish organlari malpigiylaridan iborat bo'lib, har xil hasharotlarda ikki juftdan bir necha o'nlab, hatto yuzlab juftdan tashkil topgan. Masalan, ninachilar va to'g'ri qanotlilarda 30-tadan 200-tagacha, qandalalar, bitlar, qo'sh qanotlilar va burgalarda 4 ta, qo'ng'izlar va tangacha qanotlilarda 6 ta bo'ladi. Malpigiylarining bir uchi berk, 2-uchi esa o'rta ichak bilan orqa ichakni birlashgan joyidagi ichak bo'shlig'iga ochiladi.

Malpigiylarining gemolimfada to'plangan suyuq mahsulotlarni (siy-dik kislota va boshqa suyuq azotli birikmalarni) olib, kristal holatga keltirib ichakka tushiradi va ichakdagi tezak bilan birga tashqariga chiqariladi.

Malpigiylaridan tashqari hasharotlardagi yog' tanachalari ham ajratish vazifasini o'taydi. Bunday yog' tanachalari organlar orasidagi ayrim bo'sh joylarni to'ldirib turadi. YOg' tanachalari birinchidan ayrim hasharotlarning lichinkalarini metamorfoz yo'li bilan rivojlanishi jarayonida zapas oziqa bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek ular modda almashinuvida hosil bo'lgan dissimilyasiya mahsulotlarini o'zida doimiy to'plab, saqlab turadi. Shu jihatdan yog' tanachalari "to'plovchi buyrak" vazifasini bajaradi.

Ko'pgina hasharotlarda perikardial (yurak oldi) hujayralar ham ajratish vazifasini bajaradi, chunki ular gemolimfada hosil bo'lgan zaharli mahsulotlarni tashqariga chiqarib tashlashda qatnashadi.

Nerv sistemasi. Barcha ko'p hujayrali umurtqasiz hayvonlar orasida hasharotlarning nerv sistemasi eng yuqori darajada taraqqiy etgan bo'lib, bu taraqqiyot shu hayvonlarda nerv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil murakkab instinkt (odat) larni namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi.

Hasharotlarning markaziy nerv sistemasi bosh qismidagi ancha katta tomoq usti nerv tugunidan va biroz kichikroq tomoq osti nerv tugunidan iborat. Bu tugunlar tomoq atrofi nerv xalqasi yordamida o'zaro birlashgan. Ko'krak va qorin bo'ylab joylashgan nerv tugunlari o'zaro bir-biri bilan ko'ndalang va bo'ylama nerv tolalari yordamida qo'shilib qorin nerv zanjirini hosil qiladi. Tomoq usti nerv tuguni bosh miya deb atalib, u yuqori taraqqiy etgan hasharotlarda ancha murakkab tuzilgan va uch bo'lakdan iborat, ya'ni oldingi

qism (protoserebrum), o'rta qismi (deytoserebrum) va keyingi qism (tritocerebrum) larga bo'linadi.

Oldingi qism ikkita yarimsharsimon bo'lakchalardan iborat bo'lib, ulardan chiquvchi yon nerv tolalari murakkab ko'zlarga boradi. Yarimsharsimon bo'lakchalarning ichida zamburug'simon tanachalar joylashgan. Bu tanachalar hasharotlarning murakkab fe'l-atvorini boshqarib turadi. Shu sababli jamoa bo'lib yashovchi hasharotlar (asalarilar, chumolilar) da zamburug'simon tanachalar hammadan ko'ra yaxshi rivojlangan. Oddiy ko'zlar faoliyatini ham oldingi miya boshqaradi. Bosh miyaning o'rta qismidan mo'ylovlarga nerv chiqadi va hidlov jarayonini boshqaradi. Bosh miyaning keyingi bo'lagidan yuqori lablar faoliyatini boshqaruvchi nervlar chiqadi.

Tomoq osti nerv tuguni uch juft kichik tugunchalarning qo'shilishidan hosil bo'lgan va undan yuqori jag' (mandibula), pastki jag' (maksilla) va pastki labga boradigan nerv tolalari chiqadi.

Hasharotlarning qorin nerv zanjiri 3 ta ko'krak va 8 ta qorin nerv tugunlaridan iborat bo'lib, ko'pchilik hasharot guruhlarida qorin nerv tugunlari bir joyga to'planib, o'zaro qo'shilib ketgan bo'ladi. Shunday holni ba'zan ko'krak nerv tugunlarida ham ko'rish mumkin. Natijada qorin nerv zanjirini tashkil etuvchi nerv tugunlarining markazlashishi yuzaga keladi. Nerv tugunlarining bir joyga to'planishi va qo'shilishi shu holga yetib boradiki, qorindagi nerv tugunlari ko'krakdagi nerv tugunlari bilan qo'shilib, hasharotning ko'krak bo'limida yotuvchi bitta katta nerv tugunini hosil bo'lishiga olib keladi. Bunday hol ayniqsa qo'ng'izlar, yarim qattiq qanotlilar va qo'shqanotlilarning ko'pchilik guruhlarida yaxshi ifodalangan. Qorin nerv zanjiri qanday xilda tuzilmagan bo'lsin, undan chiquvchi nerv tolalari hasharotning turli ichki organlar sistemasi (ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas olish, jinsiy sistema va boshqalar) faoliyatini boshqaradi.

Sezish organlari. Hasharotlar nerv sistemasining yuqori darajada rivojlanganligi tufayli ularning sezish jarayoni ham yuksak darajada takomil topgan va u tuyg'u, hidlash, ta'm bilish, ko'rish va eshitish organ-laridan iboratdir.

Tuyg'u organlari vazifasini mo'ylovlarda, jag'ning paypaslagichlarida va oyoqlarda joylashgan tukchalar bajaradi.

Hidlash organlari asosan mo'ylovlarda joylashgan so'rg'ichchalar yoki chuqurchalar ko'rinishidagi hidlov sensillalaridan iborat. Bu sensillalar asosida sezuvchi reseptorlar joylashgandir. Turli hasharotlarda hidlash jarayonini amalga oshiruvchi sensillali chuqurchalar turli sonda bo'ladi. Masalan, o'simlikxo'r hasharotlarda 2-5 ta, ninachining har bir mo'ylovida 10-12 ta, ishchi asalarining har bir mo'ylovida 6 ming, may qo'ng'izining o'rg'ochisida 8 ming, erkagida esa 50 mingga yaqin hidlov chuqurchasi bo'ladi.

Hidlash organlari hasharotlarda ovqat qidirib topish, inini izlash, boshqa jinsni bilish va boshqa vazifalarni amalga oshirishda ahamiyatlidir. Shuni

aytish lozimki, ayrim hasharotlarning hid bilish qobiliyati sut emizuvchi hayvonlarning hid bilish qobiliyatidan ancha ustun turadi.

Masalan, ba'zi kapalaklarning erkagi urg'ochi kapalakni hidini 3-4 km narida turib sezishi mumkin.

Ta'm bilish organlari tuzilishi jihatdan hidlash organlariga o'xshash bo'lib, jag' paypaslagichlarida, pastki labda, mo'ylov uchlarida va oyoq panjalarida joylashgan.

Ta'm bilish organlari ishtirokida hasharot ovqat tarkibidagi shirin, achchiq, nordon va sho'r ta'mlarni ajrata oladi.

Ko'rish vazifasini ikki xil ko'zlar bajaradi. Bulardan biri murakkab yoki fasetkali ko'z va ikkinchisi-oddiy ko'zlardir. Shuni aytish lozimki, doimiy qorong'i joyda (tuproq ositida, g'orlarda) yashovchi hasharotlarda ko'zlar bo'lmaydi. Boshning ikki yon tomonida bir juft murakkab ko'zlar joylashadi, ular oralig'ida ba'zan esa boshning tepasida peshona yoki ensasida oddiy ko'zlar joylashib, har xil hasharotlarda uning soni 2-3 tadan 12- tagacha bo'ladi.

Har bir murakkab ko'z ko'p sondagi ayrim ko'zchalar (ommatidiylar) to'plamidan iborat bo'lib, uning miqdori har xil hasharotlarda turlicha bo'ladi. Masalan, uy pashshasining 1 ta murakkab ko'zi 4600 ta ommatidiy-lardan iborat yoki erkak asalarining 1 ta murakkab ko'zi 13000 ta omma-tidiydan iborat bo'lgani holda, ishchi asalarida esa 6 ming dona bo'ladi. Ayrim qo'ng'izlarning 1 ta murakkab ko'zi 25 mingga yaqin ommatidiydan iborat.

Hasharotlarning murakkab ko'zlari birinchi navbatda atrofdagi buyumlarni ko'rish va uchganda mo'ljal olish uchun xizmat qiladi.

Hasharotlar buyumlar va narsalar rangini yomon ajrataoladi, lekin ularning ko'pchiligi sariq va yashil rangni, ayrim guruh vakillari esa ko'k va qirmizi ranglarni tez ajrataoladi. Aksariyat hamma hasharotlar ultrabinafsha rangni tez ajratadi.

Hasharotlarning oddiy ko'zlari ham murakkab ko'zlari singari ko'rish vazifasini bajaradi. Bu ko'zlar ommatidiylar yig'indisidan iborat bo'lmaydi, balki xitinli tiniq kutikula ostida joylashgan yakka-yaka ko'rish sensillalaridan iboratdir. Oddiy ko'zlar yordamida hasharot yaqin joylashgan narsalarni ko'rishga, shuningdek yorug'lik kuchini va yorug'lik nurlari tushgan tomonni bilish vazifasini bajaradi.

Eshitish organlari ayrim guruh hasharotlarida mavjud bo'lib, ular timpanal va xordotal organlar deb ataladi. Timpanal organlar ovoz chiqaradigan hasharotlarda (chigirtkasimonlar va boshqa to'g'ri qanotlilar) tananing turli joylarida, xususan oldingi oyoq tizzachalarida (chigirtkalar) yoki birinchi qorin bo'g'imining ikki yon tomonida joylashgan. Ovoz chiqaruvchi teshiklar tashqi tomondan parda bilan qoplangan. Teshiklar ichidagi bo'shliqda nog'ora pardasi vazifasini o'taydigan terisimon qavat bilan qoplangan ikkita yirik traxeya bo'ladi. U tovushni qabul qilishda qatnashadi. Timpanal organlar sezuvchi hujayralardan tashkil topgan va ularga oldingi ko'krak nerv tugunidan nerv tolachalari kelib qo'shiladi.

Xordotal organlar ham tovushni qabul qilishda va ovoz chiqarishda qatnashuvchi organlar hisoblanib, u ayrim turdagi hasharotlarning mo'ylovlarida, qo'sh qanotlilarning vizildoqlarida joylashgan. Ayrim suv hasharotlari (karetra) ning lichinkalarida xordotal organlar gavdaning muvozanatini saqlashda qatnashadi. Shuningdek pashshalarning vizillagichlari ichida joylashgan xordotal organlar tovush chiqarishdan tashqari, uchish paytida gavda muvozanatini saqlashda ishtirok etadi.

Jinsiy sistemasi va ko'payishi. Hasharotlar ayrim jinsli hayvonlardir va ularda jinsiy dimorfizm hodisasi aniq ifodalangan, ya'ni bir turga mansub bo'lgan erkak va urg'ochi jinsli hasharotlar orasidagi farqlar, ularning katta-kichikligi, rangi, turli ortiqlarning bor-yo'qligi hamda ichki jinsiy organlarining tuzilishi va vazifasi bilan ifodalanadi. Hasharotlarning ayrim turlarida polimorfizm hodisasi uchraydi. Bu hol jamoa bo'lib yashovchi termitlar, asalarilar, arilar va chumoli kabilarda uchraydi. Bu hasharotlarda urg'ochi va erkaklaridan tashqari, ishchilari, askarlari bo'lib, ota-onalaridan tuzilish va katta-kichikligi bilan farqlanadi.

Urg'ochi jinsiy sistemasining asosiy qismi juft tuxumdonlardan iborat. Har bir tuxumdon ma'lum sondagi naychalardan tashkil topgan va turli hasharotlarda turli sonda bo'ladi. Masalan, o'simlik shiralari (bitlari)da 1 ta tuxumdonda 1 dona, qandalalarda-4ta, suvaraklarda-16 ta, asalarida-200 tagacha va hakoza. Urg'ochi hasharot tomonidan qo'yilgan tuxumlar soni naychalar soniga bog'liqdir. Tuxum naychalari juft tuxum yo'liga ochiladi. Juft tuxum yo'llari qo'shilib, toq tuxum yo'lini hosil qiladi. Ana shu bo'limda tuxumlar urug'lanadi va undagi qo'shimcha bezlarning ishlab chiqargan suyuqliklari hisobida maxsus parda va qobiqlarga o'raladi. Qinga urug' qabul qilgich yo'li ham qo'shiladi. Urug' qabul qiluvchi xaltachada erkak hasharotdan qabul qilingan sperma suyuqligi ba'zan juda uzoq muddat, hatto 4-5 yil (ona asalarida) davomida bo'zilmasdan saqlanishi mumkin. Toq tuxum yo'li davom etib, tuxum qo'ygichga qo'shiladi. Tuxum qo'ygich turli hasharotlarda turlicha shaklda va uzunlikda bo'lib, urg'ochilik jinsiy teshigi nomi bilan tashqariga ochiladi.

Erkaklik jinsiy organlari bir juft urug'donlardan, ulardan chiquvchi 2 ta urug' yo'lidan, ular qo'shilib toq urug' yo'lini hosil qiladi. Ayrim hasharotlarda juft urug' yo'li ba'zan kengayib, urug' pufakchalarini hosil qiladi. Toq urug' yo'li urug' chiqaruvchi kanal bilan qo'shiladi va nihoyat erkaklik jinsiy qo'shilish organi hisoblangan penis orqali tashqariga ochiladi.

Hasharotlarning birdan-bir ko'payish usuli jinsiy yo'l bilan amalga oshadi va rivojlanish jarayoni urug'langan tuxumdan boshlanadi.

Lekin ayrim hasharotlarda partenogenez jarayoni, ya'ni urug'lanmagan tuxumning rivojlanishidan yangi organizm hosil bo'lish usuli ham mavjuddir. Partenogenez usulda ko'payish o'simlik bitlari, parda qanotlilardan yaydoqchilar guruhining ko'pgina turlari, shuningdek palochniklarda sodir bo'lib turadi.

Partenogenez yo'li bilan ko'payuvchi hasharotlarda erkak jinslar bo'lmaydi yoki ular faqat ma'lum bo'g'inlarda paydo bo'lishi ko'zatiladi.

Partenogenez usulda ko'payishni ba'zan sun'iy ravishda amalga oshirish ham mumkin. XIX asrning 80-nchi yillarida Tixomirov A.A. tut ipak qurtining urug'lanmagan tuxumlariga har qanday ta'sirlagichlar (kislota yoki mexanik) ta'sir ettirib, uni rivojlanib, yangi organizm hosil qilishiga erishgan. Keyingi davrlarda turli umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning urug'lanmagan tuxum hujayralariga sun'iy ravishda turli xil tashqi ta'sirlar ishtirokida sun'iy partenogenezni yuzaga keltirish mumkin ekanligi isbotlanmoqda.

Hasharotlarning serpushtligi turlicha bo'ladi. Ko'pchilik hasharotlar yiliga bitta avlod qoldiradi, ba'zilar esa umr bo'yi bir marta avlod beradi. Urg'ochi hasharot tomonidan qo'yilgan tuxumlarning soni ham har xil bo'ladi. Masalan, urg'ochi suvarak jinsiy sistemasi bezlari hisobidan ajralgan suyuqlikdan maxsus xaltacha yasab, uning ichiga 16-ta tuxum qo'yadi. Uy pashshasi bir bora 150-ta, umr bo'yi esa 600 ga yaqin tuxum qo'yadi.

Jamoa bo'lib yashovchi polimorf hasharotlar ayniqsa serpusht bo'ladi. Masalan, ona asalari sutka davomida 1000 ga yaqin, umri davomida esa (4-5 yil) 1,5 mln. dona tuxum qo'yadi. Lekin aksariyat ko'pchilik hasharotlarning urg'ochilari har gal o'rta hisobda 50-150 donadan tuxum qo'yib ko'payadi.

Rivojlanishi. Hasharotlarning postembrional (tuxum ichidan chiqqan lichinkaning) rivojlanishi asosan ikki shaklda bo'ladi. Bu rivojlanishning birinchi xili **anamorfoz** deyilib, tuxumdan chiqqan yosh individ voyaga yetgan ota-onasiga butunlay o'xshaydiyu, lekin o'lcham jihatdan ancha kichik bo'ladi va qorin segmentlarining soni biroz kam bo'ladi. Bunday lichinkalar keyingi rivojlanishi davomida yetishmagan bo'g'imlarni hosil qiladi. Anamorfoz yo'li bilan rivojlanish birlamchi qanotsiz hasharotlar (mo'ylovsizlar, qo'shdumlilar, qildumlilar) da mavjuddir.

Hasharotlarning ko'pchiligida embriondan keyingi davrda rivojlanishi o'zgarish (metamorfoz) yo'li bilan boradi. O'zgarish bilan rivojlanishda lichinka o'z shaklini, biologik xususiyatlarini o'zgartiradi va qayta tiklab, voyaga yetadi.

Metamorfoz bilan rivojlanish chala o'zgarish (hyemimetamorfoz) va to'la o'zgarish bilan rivojlanish (holometamorfoz) xillarga bo'linadi.

Chala o'zgarish bilan rivojlanuvchi hasharotlarda (suvaraklar, chigirtkasimonlar, qandalalar va boshqalar) uchta faza: tuxum, lichinka va imago (voyaga yetgan) davrlari farq qilinadi. Bunday hasharotlarda tuxumdan chiqqan lichinkalari tashqi ko'rinishi og'iz, ko'z va taraqqiy etmagan qanotlarning bo'lishi bilan yetuk ota-onasiga o'xshaydi. Lekin gavdasining kichikligi, jinsiy organlarining yetilmaganligi va qanotlarining rivojlanmaganligi bilan farq qiladi. Bu lichinka rivojlanish jarayonida yetishmagan tana qismlarini hosil qilishi va vaqti-vaqti bilan (ayrim hollarda 20 martagacha) to'llashi bilan o'sib, voyaga yetadi.

Hasharotlarning bir qismi to'liq metamorfoz bilan rivojlanadi. Bunday rivojlanish kapalaklar, qo'ng'izlar, qo'sh qanotlilar, parda qanotlilar kabi guruhlarda aniq namoyon bo'ladi.

To'liq metamorfozda tuxum bosqichidan so'ng bir-birining qo'rinishidan keskin farq qiluvchi uch fazani: lichinka, g'umbak va imago stadiyalari farq qilinadi. Masalan, karam kapalagi lichinkalrining chuvalchangsimon gavdasi kapalakka hyech o'xshamaydi, chunki lichinkaning uch juft kalta ko'krak oyoqlaridan tashqari yana besh juft qorin oyoqlari ham bordir, vaholanki voyaga yetgan kapalakda esa qorin bo'limida oyoqlar umuman bo'lmaydi. Kapalakda so'ruvchi og'iz organi mavjud bo'lsa, lichinkalarida esa og'iz organlari kemirishga moslashgandir. Shuningdek ko'pchilik kapalaklarning lichinkalarini gavda sirtida va terisida teri o'siqlari va tuklar, hamda zahar ishlab chiqaruvchi bezlar bo'ladi. Bundan tashqari lichinkalar yo himoyalanih yoki ogohlantirsh rangida bo'ladi.

Lichinkalar ichki tuzilishi bilan ham voyaga yetgan kapalakdan farq qiladi, ya'ni ularning tola o'rovchi bezlari ham bo'lib, shu bezlar yordamida o'zlari uchun pilla o'raydi.

Shuni qayd qilish lozimki, turli hasharotlarning lichinkalarining tashqi va ichki tuzilishi ular yashaydigan ekologik sharoit bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan lichinkalar tuproqda, daraxtlar po'stlog'i orasida, suvda, o'simliklarning har xil qismlarida, go'nglarda, iflosliklarda hayot kechirishga moslashgan. Ba'zi hasharotlarning lichinkalari uyalarda, kataklarda voyaga yetsa, ayrim turlarining lichinkalar boshqa tirik hayvon tanasida parazitlik qilib yashashga moslashgandir.

Lichinka 4-5 va undan ortiq marta tullagandan so'ng g'umbakka aylanadi. Lichinkalar pana joylarda g'umbakka aylanadi. Qo'ng'izlar va boshqa ko'pgina hasharotlarning g'umbaklarini tuproqdan, daraxt po'stloqlari ostidan topamiz. Ba'zi g'umbaklar pillaga o'ralgan bo'ladi (kapalaklarning ko'pchiligi, chumolilar, arrakashlar va boshqalar). G'umbak to'la metamorfozli hasharotlar uchun xosdir. Bu davrda ular na oziqlanadi va na harakatlanadi, balki gavdadagi zapas yog' tanachalari hisobiga yashaydi. Lekin ba'zi hasharotlar (chivinlar) ning g'umbaklari aktiv harakatchan bo'ladi.

G'umbaklar o'z tuzilishi jihatdan bir necha xilda bo'ladi, lekin ularning asosiy uch xili farq qilinadi.

1. Erkin (ochiq) g'umbak. Bunday g'umbaklarning bosh, ko'krak oyoqlari va qanotlari aniq ko'rinib turadi. Ular tashqi ko'rinishi va belgilari bilan voyaga yetgan hasharotga o'xshaydi. Bu kabi g'umbaklar qo'ng'izlar, parda qanotlilar, pashsha va chivinlarda bo'ladi.

2. Yopiq g'umbaklar. Bu g'umbaklar tashqi tomondan xitin qoplami bilan o'ralgan bo'lib, gavdaning oyoq va qanotlari, shuningdek, mo'ylovlar tanaga jips yopishgan bo'ladi. YOpiq g'umbaklarga kapalaklarning va ba'zi bir boshqa hasharotlarning g'umbaklarini ko'rsatish mumkin.

3. Soxta g'umbaklar. Bu g'umbaklar umuman harakatsiz bo'lib noaniq shaklli yoki bochkasimon bo'ladi. Soxta g'umbaklarni lichinkalarining oxirgi bosqichida tashlab o'lgirmagan qotib qolgan po'sti o'rab olgan bo'ladi va po'st ostidan bo'lajak hasharotning bironta organini ham ko'rib bo'lmaydi. Soxta g'umbaklarga pashshalarning g'umbagini misol qilib ko'rsatish mumkin.

G'umbaklik davrida chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi, ya'ni ichki organlarning ko'p qismi qayta shakllanadi va imaginal organlar paydo bo'ladi. Shuningdek og'iz organlari qayta tuziladi, qorin oyoqlari yo'qoladi.

G'umbaklik davri tamom bo'lgandan so'ng g'umbak po'sti yorilib, undan voyaga yetgan hasharot chiqadi. Ko'pchilik hasharotlarda (birlamchi qanotsiz hasharotlar bundan istisno) g'umbakdan chiqqan imago keyinchalik kattalashmaydi va shu bilan bog'liq ravishda tullamaydi.

Har xil hasharotlar rivojlanish davri turli vaqt davomida o'tadi. Masalan, o'simlik bitlari bir yil davomida 4-5 marta avlod berishga ulguradi. YOz ancha issiq va yog'inli bo'lgan taqdirda, ular bir yoz davomida 8-10 marta avlod qoldirishi mumkin. Ko'pchilik hasharotlar bir yilda 1-2 marta, ayrimlari esa 4-5 marta avlod beraoladi. Masalan, O'zbekiston sharoitida karam kuyasi 10 ta, karadrina 4-5, ko'k qurt to'nami esa 3 marta avlod beradi.

Shuningdek ko'pchilik hasharotlar bir yilda bitta avlod bersa, ayrim hasharotlarning rivojlanish davri 4-5 yil davom etadi. Bunday hasharotlarga may qo'ng'izi, shoxdor qo'ng'izlarni ko'rsatish mumkin.

7 Maruza

Mavzu: Mollyuskalarning tadqiqot uslublari.

Reja:

1. Yumshoqtanlilarning tashqi va ichki tuzilish xususiyatlari.
2. Yumshoqtanlilar tipining sistematikasi. Kenja tiplar va sinflar.
3. Xitonlar yoki qalqondorlar sinfining umumiy tavsifi. Asosiy turlari. Ahamiyati.
4. Qorinoyoqlilar sinfi. Tashqi tuzilishidagi xususiyatlar. Chig'anoqning tuzilishi va gavda bo'limlari.
5. Qorinoyoqlilarning ichki organlari va sistemalarining tuzilishi va funksiyalari.
6. Qorinoyoqlilarning sistematikasi. Asosiy kenja sinflari. Ekologiyasi. Ahamiyati.

Yumshoqtanlilarga asosansuvda,
qismanquruqlikdayashashgamoslashgan hayvonlarkirib,
qo'yidagitashqivaichkixususiyatlaribilan xarakterlanadi.

1. Yumshoqtanlilarikkitomonlama (bilateral) simmetriyalihayvon-lardir. Lekinayrimlaridagavdaorganlariningjoylashishio'zgarib, simmetrikbelgibo'zilib, asimmetriksususiyanihosilqilgan.

2. Yumshoqtanlilarningtanasisegmentlargabo'linmagan, lekinayrimtubantaraqqiyetganguruhlaridametameriyabelgilarinamoyonbo'ladi.

3. Yumshoqtanlilarikkilamchigavdabo'shliqlihayvonlardir. Selomqoldig'isaqlanibqolganvauko'pchiligidafaqatyurakoldixaltasi (perikardiy) vajinsiybezlaribo'shlig'idaniborat.

Qolganbarchaichkiorganlaroralig'ibiriktiruvchito'qimabilanto'libturadi.

4. Yumshoqtanlilarningtanasiaksariyathollardauchbo'limdan, ya'nibosh, gavdavaoyoqdaniborat.

Qorintomondevorimuskullariningbo'rtibo'sibchiqqanqismioyoqnihosilqiladi. vauharakatlanishuchunxizmatqiladi.

5. Barchayumshoqtanlilarningtanasiniasosimantiyadebataluvchiyirikteriburmasibilano'ralgan.

Mantiyabilangavdaoralig'idamantiyabo'shlig'ihosilbo'ladi.

Ushbubo'shliqqajabralarvaayrimsezgiorganlarijoylashgan. Bujoygayanaorqaichak, buyraklarvajinsiyorganlarningchiqarishyo'llarihamochiladi.

Mantiyabo'shlig'idagibuorganlar, uningyonidajoylashganyurakvabuyraklarbilanbirgamantiyaningorganlarmajmuidebataladi.

6.

Tananingorqatomonidamantiyahisobidanhosilbo'lganchig'anoqshakllanadi.

Uyaxlityokiikkitavaqali (pallali) yokibirnechtaplastinka-lardaniboratbo'ladi. Chig'anoqshuhayvonuchunhimoyaorganibo'libhisoblanadi.

7. Ko'pchilikyumshoqtanlilarningtomog'idaoziqmahsulotlarinimaydalashdaxizmatqiluvchimaxsusorgan-qirg'ich (radula) bo'ladi.

8.

Qonaylanishsistemasiningtarkibidaasosiyorganhisoblanuvchiyurakbo'ladivauqorinchavayurakoldibo'lmasidaniborat.

Qonaylanishsistemasiochiq, ya'niqontomirlardaoqishidantashqari, yanalakunavasinuslardebataluvchinaylarorqalihamoqibo'tadi.

9. Nafasolishorganlaridastlabkijabralarko'rinishidagiktenidiylardaniborat. Buxildagiorganlarayrimguruhlaridayo'qolib, boshqashakldaginafasolishorganlarinihosilqiladi.

10.

Ajratisorganlariselomoduktlarningo'zgarishidanhosilbo'lganbirjuftnaysimonbuyraklardaniborat.

Buyraklaryurakoldixaltasidanboshlanib, chiqarishsifoninomibilanmantiyabo'shlig'igaochiladi.

11.

Nervsistemasitubantaraqqiyetganguruhlaridahalqumatrofinervhalqasivato'rtabo'ylamanervtolalaridaniborat.

Yumshoqtanlilarningaksariyatidanervsistematananingharxilqismlaridatarqoqholdajoylashganbirnechajuftnervtugunlaridaniborat.

12. Yumshoqtanlilar jinsiyusuldako'payadi. Rivojlanishipolixetalarining rivojlanishigao'xshash; ko'pchiligidamay dalanish spiralusulda; tubantaraqqiyetgandengizdayashovchilaridatuxumdantroxoforalichinkasichiqadi.

Asosiyko'pchilikguruhlaridaesao'zgargantroxoforasimonyelkanlilichinkaveligerbo'ladi.

Mollyuskalartipi 150
minggayaqinturnio'zichigaoladivaikkitaikenjatipvabirqanchasinflargaajraladi.

Yonboshnervlilar kenjatipi - Amphineura

Ushbu kenjatip gasoddaturzilgan qadimgi yumshoqtanlilar kirib, ta-
nasiorqatomondan 8 taplastinkadaniborat
(ba'zan burtibchiqqankutikulyartishchalardaniborat) chig'anoq bilan qoplangan.

Yonboshnervlilar bilateralsimmetriyaliiyumshoqtanlilardir.
Ichkitanaxaltasibo'lmaydi.

Mantiyakutikulasisirdanohaktangachalar bilan qoplangan.

Nervsistemasitanabo'ylab joylashgan ikki juft tomirlaridanibo-rat.
Ushbu tomirlar halqumatrofidava anal teshigidan keyingijoydao'zarotutashadi.
Boshidako'zlari, paypaslagichlarivastatosistlaribo'l-maydi.

Yonboshnervlilar kenjatipi Qalqondorlaryoki xitonlar (**Loricata et Polyplacophora**)
vaqalqonsizlaryoki egatcha qorinlilar (**Solenogastres et Aplacophora**)
sinflarini o'zichigaoladi.

Qalqondorlaryoki Xitonlarsinfi – Loricata et Polyplacophora

Ushbu sinfga 1000 dan ortiq tur kirib,
asosan dengizlarning suvo'rilib turadigan zonasidatoshlarga tovonqismibilan mahkam
myopishiboluvchi yokisekinsirg'anib harakatlanuvchi hayvonlarkiradi.

Ularning gavdasicho'ziq-ovalsimon, orqa-qorintomonga qarabbiroz siqilgan.
O'lchami harxil, ya'nibir nechamillimetrdantortib 33 smgachabo'ladi.
Tanasibosh, gavdavaoyoqbo'limlaridaniborat. Boshgavdadan sezilar-
sezilmas darajada ajralib turadi. Undasezgi organlaribo'lmaydi.

Boshqorintomonga qarabbiroz egilgan holatdabo'ladi.

Kengvayassioyog'itananiqorintomonidan qoplab turadi.

Xitonlarning teri qoplag'ichitanasininghammatomondanosilib tushib turadiganman
tiyaburmalarini hosil qiladi.

Buburmalar bilantanao'rtasidahalqashaklidagibo'shliqbo'ladi. Bubo'shliqda 4
juftdan 80 juftgachapatsimonjabralari joylashgan.

Bubo'shliqqashuningdek ovqathazmqilish,
jinsiy sistemasiva ajratish organlarining yo'llari hamochiladi.

Xitonlartanasiorqatomondan 8
taplastinkadaniboratchig'anoq bilan qoplangan. Plastinkalar birqator ketma-
ket joylashgan va o'zaroharakatchantutashib turgan itufayli xitonqorintomonigabo'
kilib, yumalashimukin.

Ovqathazmqilish sistemasi.

Og'iz boshning pastki qismida joylashgan va og'izbo'shlig'idan,

undankeyin muskullikengaygan oldingi ichak tomoq keladi.

Tomoq asosidan muskullitilchachiqturadi.

Uning ustidagi xsimon kutikulabilan qoplangan.

Kutikulasirtidako'ndalangvabo'ylamaholdabirnechaqatortishchalar joylashgan.

Bularradulayoki qirg'ich bo'lib, qattiqoziqaniqirib olishda ishti roketadi.

Tomoqdan keyin tomaychashaklidagi qizilo'ngach keladi.

Qizilo'ngach o'rta ichakning xaltasi monkengaygan oldingi qismiosh qozongao'tadi.

Xitonlarning o'rta ichagi uzun bo'lib, ungajigarnaylari yo'lio chiladi.

Orqa ichak mantiyabo'shlig'igaochiladi.

Xitonlartoshlargayopishgansuvo'tlarini qirg'ichlari yordamida qirib oziqlanadi.

Nafas olish organlari. Xitonlarning jabralari 4 juftdan 80 juft gachabo'ladi.

Ulartananing ikki yontomonida mantiya egatchasi ichida joylashgan.

Jabralar patsimon shaklida tuzilgan.

Har qaysi jabranashtarshaklidagi plastinka gao'xshash bo'lib,

uning yuzasida tik joylashgan mayda yaproqchalarikitobvaraqlarisingaribir-birining ustiga taxlangan bo'ladi. Jabralar kiprikli epiteliy bilan qoplangan.

Jabrastinkalarigavena qonikelib SO_2 gazini ichiqarib, O_2 nio'ziga oladi va jabralardani chiqib ketuvchi qontomirlarigao'tadi.

Epiteliy kiprikchalarining doimoharakatlaritufayli jabralardansuv doimoo'tib yuvib turadi.

Qon aylanish sistemasi. Ushbu sistema yurak va qon tomirlaridan iborat. Yurak tananing keyingi qismida ichak ustida joylashgan. Yurak qorinchadan va ikkita yon bo'lmalardan iborat. Qon yurak bo'lmalaridan bir yoki ikki juft klapanli teshiklar orqali qorinchaga tushadi. Qorincha qisqirganda klapanlar qonni bo'lmalarga qayta tushishiga to'sqinlik qiladi. Yurak qorinchasining keyingi uchi berk, oldingi uchidan esa keng aorta tomiri boshlanadi. Aortadan arteriyalar boshlanib, ular qonni ichki organlar va to'qimalar orasida joylashgan lakunalarga olib keladi. Lakunalarda qon tarkibidagi O_2 ni to'qimalarga berib, 2 ta katta tomir bo'lib jabralarga o'tadi, unda qon tomirlar mayda kapillyarlarga bo'linadi. Jabralarda qon O_2 ni biriktirib, mayda tomirchalarga birlashib, 2 ta yirik jabra venalarini hosil qilib, yurak bo'lmalariga qonni qo'yadi. Xitonlarning yuragi yurak oldi xaltasi yoki perikardiy bilan o'ralgan bo'ladi. Yurak bo'g'imoyoqlilarning yuragiga nisbatan murkkabroq tuzilgan bo'lsa ham, qon aylanish sistemasi ochiq.

Ajratish organlari ichakning ikki yonida bukilgan naychalar bo'lib, uning bir uchi yurak oldi bo'lmasi selomi bilan bog'langan, ikkinchi uchi esa ayirish teshigi nomi bilan mantiya egatchasiga ochiladi. Har qaysi naylardan yon tomonga juda ko'p uchi berk naychalar tarqaladi. Naylarning boshlang'ich uchlari hilpillovchi kipriklar bilan ta'minlangan voronka selomdan boshlanganligiga qarab, bularning ajratish organlari yuqori taraqqiy etgan halqali chuvalchaglarning selomoduktlariga o'xshash bo'ladi.

Nerv sistemasi sodda tuzilgan. U halqum atrofi nerv halqasi, uning ustki qismi boshqa mollyuskalardagi serebral gangliysiga mos keladigan bir juft nerv tuguni

bo'ladi. Nerv halqasidan tana bo'ylab ikki juft nerv tomirlari ketadi. Ularning bir jufti pedal nerv tomirlari bo'lib, oyog'ining ichidan, ikkinchi jufti esa plevrovisseral tomirlar hisoblanib, tananing chetlari bo'ylab mantiya egatchalari ostidan o'tadi. Pedal tomirlar ko'ndalang tolalar yordamida tutashadi. Plevrovisseral tomirlar esa parallel joylashgan pedal tomirlar bilan ham ko'ndalang tolalar yordamida birlashadi. Umuman xitonlar nerv sistemasi polixetalar nerv sistemasiga o'xshab ketadi. Halqum atrofi nerv halqasi tananing boshini, pedal tomirlar-oyoqni va plevrovisseral tomirlar qolgan barcha organlarni nervlar bilan ta'minlaydi.

Sezgi organlari ancha past taraqqiy etgan. Tananing ikki yonida jabralar asosida sezuvchi epiteliy hujayralari kimyoviy sezish vazifasini o'taydi. Xitonlarda ko'zlar, muvozanat saqlash organlari-statosistlar, shuningdek bosh paypaslagichlari ham bo'lmaydi. Xitonlarning orqa tomonida sezuvchi mayda organlar yoki estetlar bo'ladi. Ular bir to'p sezgir hujayralardan iborat. Estetlarning bir tomoni chig'anoqning tashqi tomoni, ikkinchi uchi plevrovisseral tolalar bilan bog'langan. Estetlar tuyg'u vazifasini bajaradi. Ayrim estetlar ko'z vazifasini bajaradi.

Jinsiy sistemasi. Xitonlar ayrim jinsli bo'lib, jinsiy bezlar toq va ular ichak ustida joylashgan. Jinsiy bezlari ikkita chiqarish yo'llari orqali mantiya egatchasiga ochiladi. Jinsiy qo'shilish organlari shakllanmagan. Yetilgan jinsiy hujayralar suvga chiqariladi. Urug'lanish suvda.

Tuxumdan chiqqan lichinka halqali chuvalchaglarning troxoforasiga juda ham o'xshab ketadi. Lichinka ma'lum vaqt suvda so'zib yuradi va sekin-asta orqa tomonida chuqurcha paydo bo'ladi. Chuqurcha ustida chig'anoq plastinkalari hosil bo'ldi, qorin tomonida esa bo'rtiqqa o'xshagan oyoq va ikki juft ko'z shakllanadi. Oxiri lichinka kiprikchalari va ko'zlarni tashlab, suv tubiga cho'kib, voyaga yetadi.

Chig'anoqlilar kenja tipi - Conchifera

Ushbu kenja tipga kiruvchi yumshoqtanlilarning tanasi chig'anoq ichida joylashgan bo'ladi. CHig'anog'i yaxlit yoki ikki tavaqali. Gavda qoplag'ichlari kutikulasiz. Nerv sistemasi tarqoq holda joylashgan bir necha juft nerv tugunlaridan iborat. Ko'zlari va paypaslagichlari, shuningdek muvozanat saqlash organlari bo'ladi.

Chig'anoqlilar kenja tipi monoplakoforalar, qorinoyoqlilar, kurakoyoqlilar, plastinka jabralilar va boshoyoqlilar sinflariga bo'linadi. Ushbu sinflarning ayrimlari bilan batafsil tanishib chiqamiz.

Qorinoyoqlilar sinfi - Gastropoda

Qorinoyoqlilar yumshoqtanlilarning eng katta va turlarga boy sinfi hisoblanib, 100000 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Ularning ko'pchiligi dengizlarda yashaydi, lekin anchagina turlari chuchuk suvda va quruqlikda ham uchraydi. Ayrim turlari esa parazitlik bilan hayot kechirishga moslashgan.

Qorinoyoqlilarning o'lchamlari ham turlichadir, ya'ni 2-3 mm dan birnecha o'nlab santimetr gacha, ba'zilar hatto 60 sm gacha bo'ladi. Ushbu sinf vakillarining xarakterli xususiyati gavdaning asimmetrik tuzilishi-dir.

Tashqi tuzilishi. Qorinoyoqlilar tanasi bosh, oyoq va gavda bo'lim-laridan iborat. Boshida bir yoki ikki juft paypaslagichlar va ko'zlari joylashgan. Ko'z aslida paypaslagichlar asosining yonlarida, ba'zan ikkinchi juft paypastlagichlarning uchida bo'ladi. Ko'pgina turlarida boshining oldingi qismi xartumchaga o'xshash tuzilgan va uning uchida esa og'iz joylashgan bo'ladi.

Qorinoyoqlilarning oyog'i qorinning muskulli o'sig'i bo'lib, u kaft shaklida bo'ladi. Oyoq yordamida ular sudralib harakatlanadi, ba'zilar esa suzadi. Ko'pgina turlari oyoqlari yordamida substratga mahkam yopishib olishlari mumkin. Umuman qorinoyoqlilarning harxil guruhlarida yashash tarziga qarab oyoqlar sudraluvchi, yopishib oluvchi, suzuvchi va boshqa turdagi harakatlanish vazifalarini bajaradi. Shunga binoan suzuvchi oyoqning ikkala yon tomoni yassilanib, suzgich kurakka aylangan yoki ba'zi suzuvchilarida keng qanotsimon eshkakni hosil qilgan.

Qorinoyoqlilarning gavdasi oyog'ining ustida joylashgan va spiral chig'anoqning rivojlanganligiga qarab, biroz cho'zilgan bo'ladi. Gavdaning pastki tomoni mantiya burmalarini hosil qiladi. Uning ostida esa mantiya bo'shlig'i joylashadi. Bu bo'shliqda mantiya majmuiga kiruvchi organlar joylashgan. Mantiya chig'anoq hosil qiladi. Bu chig'anoq ko'p hollarda spiral buralgan shaklda bo'ladi. Chig'anoqning ingichka uchki qismi berk, kengaygan qismida teshik bo'ladi. Bu teshikdan molyuskaning boshi va oyog'i chiqib turadi. Xavf tug'ilganida esa mollyuska tanasini chig'anoq ichiga butunlay tortib oladi. Chig'anoq spirali soat strelkasi bo'ylab, yoki unga teskari bo'ralgan bo'lishi mumkin. Bu holatni chig'anoqning ingichka uchi tomondan qaraganda aniqlash mumkin.

Qorinoyoqlilarning chig'anog'i odatda yupqa tashqi organik moddali (konxiolinli) qavatdan va uning ostidan ohak plastinkali (ba'zan chinni hosil qiluvchi) qavatdan iborat. Ayrim guruhlarida yana uchinchi ichki qavat, ya'ni sadaf qavati ham hosil bo'ladi.

Qorinoyoqlilarning hamma guruhlaridagi ayrim turlarida chig'anoq rudiment holida yoki umuman yo'qolib ketgan bo'ladi. Masalan, shilliq qurtlar va yalang'och jabrali mollyuskalar chig'anog'i mantiya ostida joylashgan yupqa plastinka yoki ohak tanachalar shaklida qolgan. Suvda, shuningdek quruqlikda yashovchi ko'pgina turlarda chig'anoq ortiq organ yoki qism sifatida umuman qisqarib ketgan. Parazitlik bilan hayot kechiruvchilarida ham chig'anoq bo'lmaydi.

Ovqat hazm qilish sistemasi. Qorinoyoqlilarning bir guruhi o'simlik bilan oziqlanishga moslashgan bo'lsa, boshqa bir guruhi yirtqichlik bilan oziqlanadi. Shunga binoan ularning ovqat hazm qilish sistemasining tuzilishi ham turlichadir. Masalan, yirtqich qorinoyoq-lilarda boshining oldingi qismi cho'zilib, xartumni hosil qiladi. Og'iz teshigi og'iz bo'shlig'i orqali halqumga o'tadi. Halqumda bitta yoki ikkita jag'lar hamda plastinkasimon muskulli tilcha

qirg'ich bo'ladi. Tilchaning sirti kutikula va mayda tishchalar bilan qoplangan. Halqum bo'shlig'iga bir juft so'lak bezlarining yo'li ochiladi. Yirtqich mollyuskalarning so'lak bezlari suyuqligida 4% li sulfat kislota bo'ladi. Ushbu kislota yordamida mollyuska boshqa mollyuskalarni va ninatanlilarni ohakli pansirini yemiradi. Halqum ancha uzun qizilo'ngachga ochiladi. Qizilo'ngachning kengaygan qismi jig'ildon hosil qiladi.

O'rta ichakning kengaygan oldingi qismi oshqozon deyilib, unga jigar yo'li ochiladi. Qorinoyoqlilarda jigar bir juft, lekin gavdaning asimmetriyasi tufayli, o'ng tomon jigar qisqarib ketgan, chap tomondagisi saqlangandir. Jigar ovqatni hazm qilishda ishtirok etadi, chunki uning ajratgan fermentlari oqsil, yog' va uglevodlarni parchalaydi. Shunga binoan u oshqozon osti bezi vazifasini ham o'taydi.

Bundan tashqari, jigar naychasimon bez bo'lib, uning ichiga suyuq (atalasimon) oziqlar kiradi va unda so'riladi. Jigarda shuningdek yog' va glikogen to'planadi. Oshqozon davomi ingichka ichak buralgan holda joylashib, uning davomi orqa ichakka o'lanadi. Orqa ichak bosh yaqinida chiqaruv teshigi bilan tashqariga ochiladi. Ayrim qorinoyoqlilarda (ko'pincha tuban vakillarida) orqa ichak yurak qorinchasi ichidan o'tadi.

Nafas olish organlari birinchi navbatda ktenidial jabralardan iborat. Ular ko'pincha bir juft yoki ba'zan bitta bo'ladi. Ktenidiylar patsimon shaklda va tananing ikki yonida joylashgan.

Quruqlikda yashashga moslashgan mollyuskalarda (**Pulmonata** guruhi) mantiya bo'shlig'i atmosfera havosi bilan nafas olishga moslashgan o'pkaga aylanadi. Mantiya bo'shlig'ining devorlarida qon olib keluvchi va qon olib ketuvchi tomirlar ko'p bo'ladi.

Ko'pgina dengiz qorinoyoqlilarida ktenidiylar o'rniga adaptiv teri jabralari nafas olish vazifasini bajaradi. Bunday jabralar tananing orqa tomonida, yonlarida yoki anal teshigi atrofida bo'ladi. Qorinoyoqlilarning ba'zilarida hech qanday jabralar bo'lmaydi va ularning nafas olishi butun tana sathi (terisi) orqali amalga oshadi.

Qon aylanish sistemasi ochiq. Yuragi harxil tuzilgan. Sodda tuzilgan guruhlarida yurak qorincha va ikkita bo'lmadan iborat. Ayrim guruhlarida asimmetriya belgisining paydo bo'lishi munosabati bilan, o'ng tomon jabrani reduksiyasi tufayli o'ng yurak bo'lmasi ham qisqargan. Yurak qisqarganda qorinchadan qon aortaga o'tadi. Aorta ikkita tomirga ajraladi. Biri boshga boradi va ikkinchisi ichki organlarga boradi. Bu tomirlardan epiteliy devorli arterial qon tomirlari boshlanadi. Arteriyalardan qon arteriya sinuslariga o'tib, so'ng vena sinuslariga to'planadi. Yirik vena sinuslaridagi qonning ko'p qismi jabralarga olib keluvchi tomirlarga o'tadi. Unda tozalanib, jabralardan olib ketuvchi vena orqali yurak bo'lmasiga tushadi. Qonning qolgan qismi bo'yрак tomirlari orqali jabraga o'tib, o'zidagi keraksiz mahsulotlarni beradi va jabradan chiqib yurak bo'lmasiga quyiladi. Qorinoyoqlilarning qoni rangsiz va tarkibida amyobasit hujayralar ko'p bo'ladi.

Ajratish organlari bir juft uzun tasmasimon bo'yraklardan iborat. Lekin anchagina guruhlarida ularning bittasi reduksiyalangan. Bo'yrakning kengaygan kiprikli uchi selomga, ikkinchi uchi esa mantiya bo'shlig'iga ochiladi. O'pkali mollyuskalarning mantiya bo'shlig'i o'pkaga aylanganligi munosabati bilan ajratish teshiklari nafas olish teshigining yonida tashqariga ochiladi.

Nerv sistemasi. Tuban taraqqiy etgan guruhlarining nerv sistemasi xitonlarning nerv sistemasiga o'xshashdir. Yuqori taraqqiy etgan qorinoyoqlilarda nerv sistemasi birnecha juft tarqoq holdagi nerv gangliylaridan iborat. Aksariyat turlarida besh juft nerv gangliylari bo'ladi. Birinchi jufti serebral gangliy bo'lib, u halqum ustida joylashgan; ikkinchi jufti pedal gangliylar deyilib, oyoqning oldingi qismida, uchinchi jufti plevral gangliylar pedal gangliylar ustida, to'rtinchi jufti visseral orqa ichakning ostida va beshinchi jufti pariyetal gangliylar bo'lib, plevrovisseral nerv tomirining orqa qismida joylashgan. Nerv gangliylari o'zaro komissuralar va konnektivalar yordamida tutashgan bo'ladi. Aytib o'tilgan nerv gangliylari har bir ma'lum organlarni faoliyatini boshqaradi. Masalan, serebral nerv gangliylar halqum, paypaslagichlar, ko'zlar va statosistlarni, pedal gangliysi oyoq muskullarini, plevral gangliysi mantiyani, pariyetal gangliysi-ktenidiylarni va visseral gangliysi-ichki organlar ishini boshqarib turadi.

Sezgi organlari. Paypaslagichlari, mantiyaning chetlari tuyg'u vazifa-sini bajaradi. Kimyoviy sezish organi hisoblangan osfradiylar kteni-diylar asosida joylashgan. Paypaslagichlarning oldingi jufti ta'm va hid bilish organi hisoblanadi.

Muvozanat saqlash organi statosistlar bo'lib, gavdaning ikki yonida pedal gangliylar yaqinida joylashgan. Statosistlar devorida sezgir hujayralardan iborat pufakchalar bo'ladi. Pufakcha ichida turli miqdorda ohakli konkresiyalar yoki statolitlar bo'ladi.

Qorinoyoqlilarning ko'zlari sodda tuzilgan oddiy chuqurchalardan iborat. Murakkabroq tuzilgan ko'zlar ichida esa gavhari va shisha tanachasi bo'lgan ko'z pufagidan iborat.

Jinsiy sistemasi. Qorinoyoqlilarning ko'pchiligi ayrim jinsli, ma'lum guruhlari esa germafroditdir. Jinsiy organlari sodda tuzilgan. Jinsiy bezlar toq bo'ladi. Jinsiy mahsulotlar tananing old tomoniga yaqin o'ng nefridiylardan tashqariga chiqariladi. Germafrodit bezda ham tuxum va ham spermatozoidlar hosil bo'ladi. Bezdan umumiy germafrodit yo'l ketadi. Ushbu yo'l o'ziga maxsus oqsil bezi kanalini ham qo'shib oladi. Germafrodit bez naychasi ikkiga ajralib, tuxum va urug' yo'lini hosil qiladi. Tuxum yo'lining kengaygan qismi bachadon deyiladi. Bachadon jinsiy qin orqali jinsiy kloakaga ochiladi. Urug' yo'li muskulli qo'shilish organi (penis) ichidan o'tadi. Qo'shilish organi ham bachadonga ochiladi. Mollyuskalar germofrodit bo'lsa ham, har doim chetdan urug'lanadi.

Rivojlanishi. Qorinoyoqlilar urug'langan tuxumlarini to'p-to'p qi-lib, suv ostidagi narsalarga yopishtirib qo'yadi. Tuban guruhlarida tuxumdon halqali

chuvalchaglarnikiga o'xshash **troxofora** lichinkasi chiqadi. Bunday lichinkaning og'iz oldi kipriklari va tepa toji aniq ko'rinib turadi.

Troxoforadan yelkanli (veliger) lichinkasi rivojlanadi. Qorinoyoqli-larning ko'pgina guruhlarida tuxumdan birdaniga veliger lichinkasi chiqadi. Bunday lichinkaning og'zi oldida kipriklar bilan qoplangan 2-4 plastin-kalari bo'ladi. Bu plastinkalar hilpillovchi yelkanni hosil qilganligi sababli yelkanli (veliger) nomini olgan. Bu lichinka metamorfoz yo'li bilan rivojlanib voyaga yetadi. Qorinoyoqlilarning ayrim (o'pkalilar) guruhlarida rivojlanishni o'zgarishsiz amalga oshiradi.

Qorinoyoqlilar sinfi birnecha kenja sinflarga bo'linadi.

Oldjabralilar kenja sinfi – Prosobranchia

Ushbu kenja sinfga kiruvchi qorinoyoqlilarning bitta yoki bir juft jabralari bo'lib, yuragining oldida joylashgan. Dengizda, chuchuk suvda va quruqlikda tarqalgan. Kenja sinf ikkita turkumdan iborat.

Qadimgi qorinoyoqlilar yoki ikki yurak oldi bo'lmalilar turkumi - Diococardia. Bularning yurak oldi bo'lmasi ikkita, pedal nerv tomirlari bo'ladi, lekin uning gangliylari shakllanmagan. Vakillaridan dengiz quloqchasi (**Haliotis**) da asimmetrik belgilari paydo bo'lgan. Keng tarqalgan turlaridan yana biri dengiz likopchasi (**Patella**) deyarli hamma dengizlarda uchraydi.

Bitta yurak oldi bo'lmalilar turkumi – Monocardia. Mantiya organlari majmui bittadan va tananing chap tomonida joylashgan. Chuchuk suvda yoki quruqlikda yashashga moslashgan birqator turlarida ktenidiylar bo'lmaydi yoki ikkilamchi jabralar bilan almashinadi. Pedal gangliylari rivojlangan. Ushbu turkumning **Viviparus** va **Bithynia** avlodlarining turlariko'l va hovuzlarda keng tarqalgan. Dengizlarning litoral zonasida esa **Littorina** ko'p uchraydi. Turkumning **Buccinum** degan turi esa istemol qilinadi.

Orqajabralilar kenja sinfi – Opisthobranchia

Ushbu turkum vakillari faqat dengizlarda yashaydi. Aksariyatida chig'anoqlari reduksiyalangan. Yagona jabrasi yurak orqasida joylashgan. Germofrodit. Kenja sinf yopiqjabralilar (**Tectibranchia**) va yalang'och jabralilar (**Nudibranchia**) turkumlariga bo'linadi. Yopiqjabralilarning ktenidiysi va ayrimlarida chig'anoq bo'ladi. Masalan, dengiz avliyosi (**Slione limacina**). Uning chig'anog'i yo'q. Tanasi pushti-qizg'ish rangda. Yalang'och jabralilarning ktenidiysi yo'qolib ketgan. Adaptiv jabralar bi-lan nafas oladi. Chig'anoqlari ham reduksiyalangan. Turkumning shimoliy dengizlarida keng tarqalgan turlaridan biri **Dendronotus arborescens** bo'lib, teri o'simtalari jabra vazifasini bajaradi.

O'pkali qorinoyoqlilar kenja sinfi – Pulmonata

Bu kenja sinf mollyuskalarining jabralari yo'qolib, o'pkalarni hosil qilgan. Chuchuk suv va quruqlikda yashovchi turlarni o'z ichiga oladi. Germofrodit. Mantiya majmuiga kiruvchi organlari toq. Kenja sinf 2 ta turkumdan iborat.

O'troq ko'zlilar turkumi – Basommatophora. Bular aksariyat chuchuk suvlarda yashaydigan shilliqurtlarni o'z ichiga oladi. Ular nafas olish uchun vaqti-vaqti bilan suv yuzasiga chiqib o'pkasini havo bilan to'ldiradi. Ko'zlari ikkinchi juft paypaslagichlari asosida joylashgan. Ushbu turkumdan chuchuk suvlarda, ko'l va hovuzlarda **Lymnayeia truncatula** va **L. stagnalis** keng tarqalgan. Bu turlarning birin-chisi jigar qurtiga oraliq xo'jayin bo'lishi bilan e'tiborga sazovordir.

Poyachako'zlilar turkumi – Stylommatophora. Bu turkumning turlari quruqlikda yashovchi qorinoyoqlilar hisoblanadi. Paypaslagichlari ikki juft bo'lib, ko'zlari ikkinchi juft paypaslagich-larining uchida joylashgan. Ko'pchiligini yaxshi rivojlangan chig'anoq'i bo'ladi. Turkumning keng tarqalgan turlaridan biri tok shilliqurti **Helix pomatia**. U o'simlikning yashil qismlari bilan oziqlanganligi sa-babli, katta zarar keltiradi. Bizning sharoitimizda yalang'och shilliqurt - **Agriolimax agrestis** va **Arion** keng tarqalgan. Ular poliz ekinlari va boshqa madaniy o'simliklarning zararkunandalaridir.

Qorinoyoqlilarning ekologiyasi va ahamiyati

Oldjabralilarning ko'pchiligi va orqajabralilarning barchasi dengiz hayvonlaridir. Ayrim oldjabralilar chuchuk suvda va hatto quruqlikda yashashga moslashgan. Dengiz qorinoyoqlilari suvning turli chuqurligida yashaydi. O'pkalilar esa shimoliy kengliklarda qishning qattiq sovuq oylarini qishki uyqu bilan o'tkazadi. Janubda yashovchi turlari ham qishki sovuqda uyquga ketishadi. Buning uchun shilliq qurt chig'anoq ichiga kirib, ochiq tomonini epifragma pardasi (pardani hosil qiluvchi suyuqlik tarkibida ohak moddasi ko'p bo'ladi) bilan bekitadi.

Qorinoyoqlilar sinfi tarkibidagi parazit turlar faqat oldjabralilar kenja sinfi orasida bo'ladi. Ular ninaterililar terisida parazit-lik qiladi. Ushbu mollyuskalarda parazitlik bilan hayot kechirish, ularning ayrim organ va xususiyatlarini o'zgarishiga yoki yo'qolishiga olib kelgan. Masalan, chig'anoqning reduksiyasi, shuningdek ovqat hazm qilish, qon aylanish va boshqa ayrim sistemalarning ham qisqarishi kuzatiladi.

Qorinoyoqlilar ma'lum darajada amaliy ahamiyatga ega bo'lgan hayvonlardir. Sinfning ayrim turlari, jumladan tok shilliq qurti ba'zi Yevropa davlatlari aholisi tomonidan istemol qilinadi. Shuning uchun ushbu tur ba'zi xo'jaliklarda maxsus ko'paytiriladi. Istemol qilinuvchi qorinoyoqlilarga yana karnaysimon mollyuska (**Buccinum undatum**), qirg'oq shillig'i (**Littorina**) ham kiradi. Qorinoyoqlilardan **Turbo**, **Trochus**, **Helix** kabilarni chig'anoqlarini sadaf qavatidan bezak buyumlari, o'yinchoqlar va tugmalar tayyorlanadi.

8 Ma'ruza (4 soat)

Mavzu: Umurtqali hayvonlarning biologiyasini o'rganish dasturlari

Reja:

1. Umumiytashkiliy-uslubiyko'rgazmalar.
2. Amfibiylar va sudralib yuruvchilarning biologiyasini o'rganish dasturi.
3. Qushlarning biologiyasini o'rganish dasturi.
4. Sut emizuvchilarning biologiyasini o'rganish dasturi

Umumiytashkiliy-uslubiyko'rgazmalar

Ilmiy muammolarni o'rganish davayechishda ishlatiladigan texnik qo'llanmalar yig'indisi ga uslubiyat deyiladi.

Tadqiqotchining oldiga qo'ygan vazifasiga qarab uslub xarakterio'zgarib turadi.

Tadqiqot bosqichlari

Ilmiy-tadqiqot ishlarida bir qancha asosiy bosqichlardan - tayyorgarlik, dalada material to'plash, materiallarga ishlov berish, yakunlash, natijalarni amalga o'rnatish dasturlash topgan.

Bu bosqichlarning har biri muhimdir.

Bu bosqichlarning birortasiga ekinchida darajali debitorlik bilan qaralsa, ishning natijasiga salbiy ta'sir qilinadi.

Yosh tadqiqotchilarning ba'zilar tayyorgarlik bosqichiga ekinchida darajali bilan qaralsa, boshqalarida materiallarni to'plash bilan chegaralanadigan materiallarga kerakli darajada ishlov bermaydi, tahlil qilinmaydi.

Har bir ilmiy xodim o'zida boshlagan ish uchun javobgarlikni his qilishni ta'limiy jarayon sifatida o'zaro munosabatlarini o'rnatish zarur.

Bunday intizomsiz ilmiy ishning bo'lishi mumkin emas.

1. Tayyorgarlik bosqichi

Mavzu ga tayyorgarlik masalan o'rganilish darajasidan, ya'ni mavzu ga tegishli adabiyotlarni yig'ish va ularni o'rganish hamda dalatadqiqotlari ni olib boradigan joyni o'rganishdan boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichida avvalambori tadqiqot o'tkazish joyining faunasibilantani ishish kerak, hayvonlarning asosiy turlarini bilish lozim, undan keyin hayvonlarning asosiy ekologik xususiyatlarini - biotoplar bo'yicha tarqalishini, mavsumiy hayotini bilish talab qilinadi.

Undan keyin tadqiqot olib borilayotgan joyning xo'jaligibilantani bilish lozim. Bu bilan o'rganilish kerak bo'lgan turlarning iqtisodiy ahamiyatini bog'liqlash.

Tayyorgarlik bosqichida tadqiqot o'tkazilayotgan joyning geografiasibilantani o'rganilgan holatda,

avvalamboruning o' simliklari o'rganilganda yetarli deb hisoblanadi.

O' simliklar qoplamida hayvonlarni taqsimlashda muhim ahamiyat kasbatidavularning hayoti sharoitlarini aniqlashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Bundantashqarita tadqiqotchi uchun joyning iqlimi, tuprog' i relyefi, gidrografiyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Tayyorgarlik bosqichida hartomonlama o'ylanganda tadqiqot dasturi tuziladi.

Buning uchun quruqlikda yashovchi murtqali hayvonlarni faunistik-

ekologik bozorida tuziladi, tadqiqot uslubini, kalendar reja,

ekspeditsiya va ekskursiyalar uchun asbob-uskunalarni tayyorlanadi.

Faunistik-ekologik tadqiqot dasturi

Tadqiqot joyining hayvonot dunyosini o'rganishning faunistik ekologik bozorida boshlanadi. -

Bukelajak dahar birturva hayvon guruhlarining biologiyasini o'rganish uchun asos bo'ladir.

Agar tadqiqotishlaribir nechayildavomida olibborilsa, buturlar tarkibining o'zgarishi va yashash sharoitiga qarab sonining dinamikasining o'zgarishini aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqot joyida faunistik ekologik ishlar olibborish uchun joyning hayvonlarining buturlar tarkibini aniqlash, buturlarning uchrashuv darajasi, jinslarining nisbati, ko'pchilik va o'xshash buturlarning yillardavomida, yil mavsumlariga qarab o'zgarishi va buturlarning sabablarini bilish talab qilinadi. -

Yana hayvonlarning yashash muhitini ekologik tahlil qilish, tadqiqot joyini qaysi geografik zonaga mansubligi, tog'li joylarda vertikal zonalligini aniqlash lozim. Relyef, tuprog', gidrografik tarmoqlar, botqoqlik va ob-havo sharoitlariga bog'liq holda hayvonlarning yashash sharoitlari; asosiy guruhlarivaularning tuprog' va relyefga qarab taqsimlanishi; o' simlik guruhlarini hayvonlarni yashash joyideb baholash, yashash joylarining barqaror va yillardavomida ham mavsumlarga qarab o'zgarishi

, tadqiqot joyining xo'jalik tomonidan o'zlashtirish xarakteridavarasini hayvonlarning yashash sharoitlariga o'sirini o'rganish lozim.

Tadqiqot joyini biotoplarga bo'linishi, biotoplarning muhitomillariga qarab taqsimlanishi, har bir biotopning hayvon hayotidagi ahamiyati va maydoni, biotoplarning himoya va oziq-ovqat imkoniyatining yillar hamdamavsum davomida o'zgarishi; yildavomida biotoplarga qarab taqsimlanishi, har xil biotoplarda yashovchi hayvonlarning o'zaro aloqasini o'rganish kerak.

Muhim hayvon buturlarining biologik xususiyatlari, faunaning hayot shakllari (harakati, uyi, ovqatlanishi va ovqat tutishi usullari) ga qarab tahlil qilish lozim.

Nihoyatnazariyvaamaliyxarakterdagixulosalarqilishzarur,
ya'nikelajakdagitadqiqotyollari, engmuhimmasalalarnianiqlash,
mahalliyfaunadanfoydalanishuchuntakliflar, faunaningturlarsoninioshirish,
boshqarishkabimuammolarniyechishtalabqilinadi.

Faunistik-ekologikmavzuningqisqachatahliliningxemasishulardaniborat.
Quruqlikdayashovchiumurtqalihayvonlarningbiologiyasinio'rganishningumumi
ydasturinituzishnihoyatdaog'irvahattomumkinemas.

Chunkibuhayvonlarningmorfologiyasi, hayottarzi,
insonuchunahamiyatinihoyatdaxilma - xildir.
Shuninguchunbuhayvonlarnio'rganishdaharbirsinfbiologikxususiyatlariniinob
atgaolganholdaalohidadaasturtuziladi.

Amfibiyalarvasudralibyuruvchilarningbiologiyasinio'rganishdasturi

Mavsumiyhayoti. Yashashjoyi, ob-
havosharoitivaovqatiningbo'lishigaqarabqishkiuyqudanuyg'onishi.

Birinchivakillariningpaydobo'lishi, yoppasigauyg'onish.
Birinchivakeyingikunlardaxulq-atvori. Tullashmuddati, joyivaxillari.
Tullayotganhayvonlarningxulq-atvori. Yozgiuyqugaketishi (ba'ziturlari),
uningsabablari, muddatlari. Uyqugaketganhayvonningyotishjoyi.
Yozgivaqishkiuyqugaketishlariningxarakterlarinisolishtirish.

Harxilyashashsharoitlardahayvonningfaollikdavrividavometishi.

Qishkiuyqugaketishmuddatlarivaekologiksharoitlar. Qishlashjoylari.
Qishlashjoylariningekologiktavsifi. Hayvonlarningto'planishivaularningholati.

Yashashjoyivataqsimlanishi. Hayotningharxildavrlaridahayvonlarningya
shashhududlarigaqarabtarqalishi. Tarqalishiningvertikalchegaralari.
Yashashjoyiningtavsifi (relyefi, tuprog'i, suvliligi, temperatura, yorug'lik,
namlik, o'simliklari, ozuqaboyligi) yildavomidayashashjoylarini,
almashtiribturishi. Ko'chishvaqti, davometishi, yoppaligivako'chishyo'llari.
Noqulayob-havodanvadushmanlardanqutilishjoylari.

Tabiiyyashirinishjoylaridansutemizuvchilarninginlaridanfoydalanishiyokio'zlari
yashirinishuchunjoyqurishi. Inlarningegasibilanbo'lganmunosabati.
Yashirinishjoyiningtempuraturasivanamligi.

Ovqatlanishi. Ovqatiningtarkibivamiqdori. Ovqatniyilfasllariga,
kundavomida, hayvonningyoshiga,
yashashjoyigavaiqlimsharoitlarigaqarabo'zgarishi.
Asosiyvaikkinchidarajaliovqatlar, ovqatlanishjoyivavaqti.
Ovqatlanishdao'ljanitutishvao'ldirishusullarivajoyi. Ochlikkachidamliligi.
Semirishmassasiningdinamikasi.

Ko'payishi. Populyatsiyaningyoshvajinstarkibi. Ko'payishdavri.
Qo'shilishjoyi, ko'payishdavriningdavomiyligi, ekologiksharoitlarni
(temperatura, namlik, yorug'liq) ko'payishmuddatigavajadalliligata'siri.
Hayvonningko'payishvaqtidatashqiholati (ovozi, qichqirishvaboshqa),
jinslariningxulqivatashqiko'rinishi. Tuxumqo'yishjoyivavaqti, soni.

Tuxumining rivojlanish sharoiti (temperatura, namlik, quyoshniqizdirishi). Sharoitga qarab embrionning rivojlanish muddati. Tuxumlarining o'lchami, shakli, rangi. Tuxumning budbo'lishi.

Bolalarini tuxumdan chiqishi. Lichinka va bolalarini o'sishi va rivojlanishi. Ovqatlanishi, metamorfoz (o'zgarish) davrini davom etish vaqti. Itbaliqlarini, qishlashi va buning sababi, o'limi, yangi yashash joylariga ko'chish.

Sonining dinamikasi. Parazitlar bilan zararlanishi. Kasallanishi, o'limi va buning sabablari. Har xil iqlim sharoitida sonining o'zgarishi. Ko'chishi.

Xulq-atvori. Temperatura, namlik va yorug'likka qarab sutka davomida faolligi. Yashash sharoitiga qarab sutkalik areali. Harakat tezligi va xillari. Daraxtda, yerda va suvda harakat qilishi. Dushmandan o'zini muhofaza qilishi. Avtotomiya va regeneratsiya tezligi, rangini o'zgartirishi.

Moslanish xususiyatlari. Yashash sharoitiga va hayot tarziga qarab hayvonning morfologik moslanishlari.

Inson uchun ahamiyati. Qishloq, o'rmon, don, baliqchilik xo'jaliklari uchun foydasi va zarari, zaharlik darajasi. Zaharli ilonlardan odam va uy hayvonlarni davolash (qutulish) usullari.

Amfibiyalar va sudralib yuruvchilardan halq xo'jaligining turli tarmoqlarida oqilona foylanish istiqbollari.

Qushlarning biologiyasini o'rganish dasturi

Qushlar qishloq, o'rmon va ovchilik xo'jaliklarida muhim ahamiyatga ega. Qushlarni biologiyasini o'rganish, ularning hayot siklini hamma tomonlarini o'z ichiga oladi. Bir necha yillar davomida to'plangan ma'lumotlarni solishtirib tahlil qilish o'ta qiziqarli materiallar beradi. Qushlarni biologiyasini o'rganishda quyidagi dastur sxema tavsiya etiladi.

1. Bahorgi uchib kelishi, erta bahorda uchib keluvchi turlar, yoppasiga uchib kelish vaqti ob-havo sharoitiga qarab uchib kelish muddatlarini o'zgarib turishi. Qayta sovuq paytlarida uchib kelgan tomonga qaytishi, bu holatni davom etish vaqti, o'lish hollari. Uchib kelish tartiblari: juft, yakka, kichik va katta guruhlar bilan, erkagi va urg'ochisi birga yoki alohida-alohida, erkagi oldin, sutka vaqti, uchib kelgan qushlarning joylashgan joyi - uya qo'yish joylarini biridan tanlaydimi, yoki keyinmi? Uchib kelgan qushlarning dastlabki kunlardagi xulq-atvori. O'troq holda yashovchi qushlarning yashash joylarini almashtirishi. Semizligi va jinsiy bezlarining holati.

2. Uchib o'tish. Uya qo'yuvchi turlarining uchib kelish muddatlari, qancha vaqt davom etishi va shu turlarning uchib o'tishining boshlanishi. Avjiga chiqishi va tugashi. Har xil turlarning navbatma-navbat uchib o'tishi. Uchib o'tuvchi qushlarning galasi va galaning katta-kichikligi. Harakat xarakteri, balandligi, tezligi, vaqti va yo'nalishi. Bir nechta turlarning birga uchib o'tishi. Uchish frontining kengligi, uchib o'tish vaqtida to'xtash joyi, davom etish vaqti, bu qushlarning xulq-atvori, ovqatlanish joyi. Uchib o'tuvchi

qushlarning zararkunandalarga qarshi kurashdagi ahamiyati. Tasodifan uchib kelgan qushlar va buning sabablari.

3. Ko'payish davri. Uya qo'yish joylarida taqsimlanishi, uya qo'ish joyini va uya hududini qaysi jinsi birinchi bo'lib egallaydi, juftlari, o'tgan yilgi uya qo'ygan joylariga yoki uyalariga qaytadimi? Uya qo'yish davrida yashash joyiga qarab taqsimlanishi. Vertikal tarqalishining chegaralari. Yashash joyining xarakteri (o'simliklari, relyefi, suv, o'zlashtirilishi). Yashash joyining himoyalani sh holati. Har xil biotoplarda uya qo'yuvchi qushlarning zichligi. Juflarga bo'linishi, jinslarning sonlar nisbati. Qo'narg'a va boshqa nikoh o'yinlari va bu o'yinlar qachon, qayerda sodir bo'ladi, qancha vaqt davom etadi. Qo'shilish joyi, vaqti, davom etishi va takrorlanishi.

Ob-havo sharoitiga qarab uchib kelishi bilan ko'payish davrining boshlanishi orasidagi davr, sayrash davrining davom etishi. Uya hududini yozish. Har xil biotoplarda uya maydonining katta kichikligi. Bir turga kiruvchi qushlarning uyalari orasidagi masofa. Populyatsiya zichligining uya-maydoniga ta'siri. Uya qo'yish joyida tur ichida va turlar aro konkurensiya. Koloniya bo'lib uya qurish, uylarini yirtqichlarning uyasiga yaqinligi. Foydali turlarni suniy uylar qo'yish yo'li bilan zichligini oshirish usllari.

Uyasini qurish. Uya qurish muddati va tezligi. Uyaning joylashgan joyi, uning xilma-xilligi, yashash joyiga bog'liqligi. Jinslarning uya qurishni boshlashdan oldingi xulq-atvori, uya qurishga ishtirok etishi. Qurilish materiallari va ularni tutish joylari, eski uylardan foydalanish. Uyaning tashqi ko'rinishi, shakli va o'lchami, uyaning himoyalani shi (yirtqichlardan, yomg'ir, qor, shamol). Har xil suniy uylarlardan foydalanishi. Tuxum qo'yish va uni bosish. Tuxum qo'yishning boshlanishi va tugash muddatlari. Bu vaqtda tuxum qo'ygan qushlarning xulq-atvori, har xil obu-havo va ozuqa sharoitlarida o'zgarishi. Tuxumlarining o'lchami, massasi, shakli va rangi. Tuxumlarini qo'yish tempi (necha soat, sutkadan keyin, qo'yish kunning qaysi vaqtida bo'ladi). Tuxum bosishni boshlanishi, bu jarayonga erkagi va urg'ochisining ishtirok etishi. Tuxum bosish jarayonini jadalligi. Tuxum bosishda jinslarining ishtiroki. Xulq-atvorining o'zgarishi. Uyasiga va tuxumlariga teginganda, bezovta qilganda uyani tashlab ketishi. Jinslarning o'zaro munosabatlari, bir-birini ovqatlantirishi. Tuxumni bosish vaqtida uyada va tashqaridagi temperatura. Tuxumdan jo'janing ochiq chiqmasligi kuzatiladimi? bu holatni yomg'irga, sovuqqa va boshqa sabablarga bog'liqligi. Palag'da va embrioni nobud bo'lgan tuxumlarning soni. Tuxum bosuvchi qushning xulq-atvori, tuxum bosayotgan qushning ob-havo sharoitidan o'limi. Tuxumlarni bitta va har xil tur qushlarning tuxumlarini bir uyadan boshqa uylarga ko'chirib qo'yish tajribalari.

Jo'jalarining ochib chiqishi. Tuxumni qo'ygan sanalariga qarab ochib chiqish tartiblari, ochib chiqishni davom etishi. Endi tuxumdan chiqqan jo'janing massasi tashqi ko'rinish va o'lchami hamda holati. Jo'ja, jish jo'ja (ko'zi, qulog'inining ochiq - yumuq bo'lishi, tuxum tishi). Jo'jalarini

oziqlantirish. Ota-onalarining xulq-atvori, jo'jalarini boqishda erkak va urg'ochisining roli. Uyada yashash davrida jo'jalarini ovqatlantirish jadalligi. Ovqatining tarkibi. Ovqatlantirish qanday tarzda o'tadi. Jo'jalarini ovqatlantirishdagi navbat va tenglik, ovqat tutish joyi va uning o'lchami. Jo'jalarini dushmanlardan va ob-havoning noqulay sharoitlaridan himoyalaniishi. Jo'jalarini uyada ovqatlantirish davrining davomiyligi. Jo'jalarining o'sishi va rivojlanishi, tashqi ko'rinishi va xulqini o'zgarishlari. Uyada va jo'jalardagi temperatura rejimi. O'sish jarayonida jo'jalar orasidagi munosabat. Jo'jalarning o'limi va buning sabablari.

Jo'jalarni uyadan uchib chiqish yoki uni tashlab ketishi. Uyani tashlab, ketish vaqti va sanasi. Uchib ketish vaqtida ota-onalari va jo'jalarning xulq-atvori. Birinchi kunlari jo'jalarining joylashgan joyi. Ko'chishi. Ota-onalarining o'z bolalariga va boshqa jo'jalarga bo'lgan munosabati. Boshqa sag'ir jo'jalarni oilasiga qabul qilib olishi. Jo'jalarini boqishi va qo'riqlashi. Jo'jalarni mustaqil ovqat tutishga o'tishi.

Takroriy uya qurish hollari. Birinchi uya buzilgandan keyin tuxum qo'yish, normal takroriy uya qo'yishi. Yangi uya qurishi, eski uyadan foydalanishi.

Uya qo'yishdan keyingi davr va qishga tayyorlanish. Jo'jalarining tarqalib ketishi va boshqa oila jo'jalari bilan qo'shilishi. Yakka va gala jo'jalarning xulq-atvori. Galalarning hosil bo'lish xarakteri va tarkibi. Galadagi qushlarning soni, turlar soni. Uchib ketishga tayyorgarlik. Ko'chish va uzoq mamlakatlarga uchib ketishi. Mahalliy qushlarning uchib ketish muddatlari va o'sha tur vakillarining uchib o'tish vaqti. Uchib ketish va kuzgi uchib o'tish. Mahalliy turlarning uchib ketishi va shu turlarni uchib o'tishi, sanalari. Uchib ketish tartiblari: yakka, gala, kunduzi, kechasi.

Qishki davri. Qishki yashash sharoitlari: temperatura, sovuqlar va isib ketishlar, qor va uning xarakteri, shamollar, suvning muzlashi, himoyalaniish sharoitlarining o'zgarishi, ovqat topishi. O'troq holda yashovchi, ko'chmanchi va qishlovchi qushlarning turlar tarkibi. Qishlovchi qushlarning uchib kelish muddatlari. Bir xil va aralash turlardan hosil bo'lgan galalar (to'da). Galadagi qushlarning miqdori va galaning doimiyligi. Tur ichidagi munosabat va turlararo konkurensiya, sutkalik faolligi va bu holatning ob-havo sharoitiga bog'liqligi. Ovqatlanish joyi va ovqat tarkibi. Yakka yoki yoppasiga o'lish holatlari va buning sababali. Qishning oxirida xulq-atvorining o'zgarishi. Qishlovchi qushlarning uchib ketish muddatlari va xarakteri.

Ovqatlanishi. Ovqatning miqdori, tarkibi, yil fasllariga qarab o'zgarishi. Asosiy va ikkinchi darajali ovqatlar. Hayvon va o'simlik ovqatlarining nisbati. Ovqatning mineral tarkibi. Suv bilan ta'minlanishi. Ovqatni tutish joyi va vaqti. Ovqat tutish joylaridagi konkurensiya. Sonining dinamikasiga oziqa hosildorligi va ob-havo sharoitlarining ta'siri. Ekto- va endoparazitlar bilan zararlanishi. Yakka va yoppasiga zararlanishi. Dushman va konkurentlarning bo'lishi hamda

bularning qushlar soniga ta'siri. Populyasiya holatini va qush sonini oldindan tuzish. Foydali turlar sonini oshirish va zararli turlarga qarshi kurash yo'llari.

Tullash. Yil davomida tullash soni, tullash muddatlari, (erkagi, urg'ochisi, yosh qushlar). Tullash jadalligi. Pat guruhlarining almashinish tartibi. Qushning tashqi ko'rinishini o'zgarishi. Tullash joyi.

Moslanish xususiyatlari. Yashash va hayot tarzini morfologik belgilarini hosil bo'lishiga ta'siri. Inson uchun ahamiyati. Qushlarning qishloq, o'rmon, ovchilik don va boshqa xo'jaliklardagi foydali hamda zararli tomonlari. Zararli turlariga qarshi kurash yo'llarini ishlab chiqish va foydali turlarning sonini oshirish to'g'risida takliflar berish.

Sut emizuvchilarning biologiyasini o'rganish dasturi

Yashash joyiga qarab tarqalishi, teng va dog'li taqsimlanishi. Tog'li joylarda yuqori va pastki tarqalish chegaralari. O'simliklari, relefi, tuprog'iga qarab yashash joylarini tanlashi. Asosiy yashash joylarining oziqa va himoyalani sharoitlari. Populyasiyasining zichligi. Jinsi, yoshi, tashqi sharoit va populyasiya zichligiga qarab individual areal o'lchamlari.

Ini, vaqtincha yashash joyi. Inning xili va qurish joylari. Tabiiy joylardan foydalanish va shaxsiy in qurishi. Inlarining foydalanishiga qarab farq qilish - yakka yashaydigan, yozlik, ovqatlanadigan, bola boqadigan, qishlaydigan. Inlarining tuzilishiga tuproqning ta'siri. Indan foydalanish muddati. Begona inlardan foydalanishi. Yillar davomida in egalarining almashishi. Koloniyalarning mavjudligi. Indan chiquvchi va inga kiruvchi yo'llar. Yashaydigan va yashamaydigan inlarning farqlari.

Ovqatlanishi. Ovqatning tarkibi va uning hayvon yoshiga va yil fasllariga, oziqa unudorligi, ob-havo, qor qalinligi va boshqa omillarga qarab o'zgarishi. Asosiy va ikkinchi darajali ovqatlar. O'simlik oziqlari va hayvonlarning nisbati. Oziqlanish joyi va vaqti. Ovqatni tutish usullari. Kunlik ovqat rasioni. Ovqat bilan ta'minlanishi, konkurensiya, ovqat etishmasligi va buning oqibati. Oziqadan zahira to'plash, omborxona joyi. Zahiradan foydalanish. Semizligi va massasining mavsumiy o'zgarishi. Suv bilan ta'minlanishi va suv ichish joyi va vaqti.

Mineral oziqlanish, sho'r tuproq va o'simliklarni iste'mol qilish, suyak, shoxlarni kemirish. Ovqatlanish jarayonini o'simlik va hayvonot olamiga ta'siri.

Ko'payishi. Populyasiyaning yosh va jins tarkibi. Jinsiy yetilishning boshlanish vaqti. Jinsiy bezlarining mavsumiy dinamikasi. Ko'payish davrida bolalash soni va vaqti. Qo'shilish davridagi tashqi ko'rinish (qochish, baqirish, urushish). Qo'shilish tempi va muddatlariga ob-havo, oziqa sharoiti va hayvonning fiziologik holatlarini ta'siri. Qisir va homilador urg'ochilarining nisbati. Qisirlikning semizlik, kasallik, parazitlar bilan zararlanishi kabi hollar bilan cho'zilishi. Embriinning soni, onasining xulq-atvori. Otasining turar joyi va xulq-atvori.

Bola tug'ish vaqti va joyi. Bolalarining soni. Sut bilan boqish (emizish) davri va buning davom etishi. Bolaning qattiq oziqa bilan ovqatlanishiga o'tishi. Sutkalik ovqat ratsioni va rivojlanishi, jun qoplamining rivojlanishi, tish va shoxlarining paydo bo'lishi. Ko'zining ochilish vaqti. Bolalarini muhofaza qilish. Bolalarning indan chiqish vaqti. Bolalarini tarbiyalashda ota-onaning roli. Bolalik davrining davom etishi. Mustaqil hayot kechirishga o'tish vaqti.

Takroriy ko'payishning bo'lishi, uning doimiyligi. Bu holatni birinchisidan biologik farqlari. Bolalarining har xil taraqqiyot etaplarida o'limi va buning sababalri.

Parazitlari, kasalligi, dushmanlari va konkurentlari. Tashqi va ichki parazitlarning hayvon holatiga va xulqiga ta'siri. Parazit invaziyadan o'limi. Yoppasiga kasallanish va qirilish. Noqulay ob-havo sharoitidan qirilib ketish. Och qolish, avitominoz va bularning oqibati. Dushmanlarning bo'lishi. Bularning hayvon soniga ta'siri. Turlararo konkurensiya. Konkurensiyaning sabablari va shakllari. Konkurensiya oqibatlari. Tur ichidagi munosabat.

Sonining dinamikasi. Ekologik sharoitlarga qarab sonining o'zgarishi. Bir necha turlarning bir vaqtda sonini oshishi. Hayvonlarning soniga katastrof holatlari, suv bosish, sel, qurg'oqchilik, yong'inni ta'siri. Sonining oshishi va kamayish tempi, bu hodisalarni davom etishi, sabablari sonini oshishi va kamayishini oldindan aniqlash. Sonini mavsumiy o'zgarishi.

Migratsiya va ko'chish. Doimiy ko'chib turishni o'lchami, xarakteri va sabablari. Migratsiyaning yo'li, tempi va uzoqligi. Qishlash joyi. Migratsiyaning barqarorligi, yo'nalishi va vaqti. Migratsiya va ko'chishga ob-havoning ta'siri. Migratsiya davrining davomiyligi. Yo'lda o'lim va buning sabablari.

Harakati, izlari. Har xil holatlarda chiqaradigan ovozlari. Kun davomida harakatining davriyligi. Har xil ob-havo sharoitlarida sutkalik areali. Yirtqichlarning sutkalik hayotini, o'ljasini xulq-atvoriga bog'liqligi. Koloniyalik va galalik (stadnost) hodisalari. Galaning tarkibi. Aralash galalarning va koloniyalarning hosil bo'lishi va ularni turlar tarkibi. Izlari, ularni shakli va o'lchami. Sonini aniqlashda izning roli.

Mavsumiy hayoti. Yashash joyiga qarab yil mavsumlarida o'zgarishi. Tur hayotiga muhit omillarining ta'siri. Hayvonning noqulay muhit sharoitlariga (temperatura, qurg'oqchilik, ozuqa yetishmasligi) qarab qishki va yozgi uyquga ketishi. Erta bahordagi yashash sharoiti va xulq-atvori. Yozgi hayotining asosiy xususiyatlari. Qishga tayyorlanishi. Qishlash joyiga ko'chib o'tishi. Qishki hayoti. Tashqi qoplog'ichlarining holatini o'zgarishi. Bir yilda jun qoplamining tullash soni. Tananing har xil qismlarida tullashning borish qonuniyatlari. Teri tuzilishining mavsumiy o'zgarishlari. Erkak va urg'ochilarida tullash vaqti. Bahorgi va kuzgi tullashning farqlari. Tullash davridagi xulq-atvori. Tirnoqlari va shoxlarining mavsumiy o'sishi. Shoxlarining almashinishi.

Shox tashlash. Shoxning rivojlanishi, moslanish xususiyatlari. Yashash sharoiti hayot tarzini hayvonning tana tuzilishi va morfologiyasiga ta'siri.

Inson uchun ahamiyati. Xo'jalikning turli sohalarida iqtisodiy ahamiyati.

9 Ma'uza

Mavzu: Tadqiqot uslublarini ishlab chiqish. Kuzatishlarniqayd qilish.

Reja:

1. Uslublar ishlab chiqish
2. Tadqiqotlarning kalendar rejasi
3. Ekspeditsiya va ekskursiya jihozlari
4. Kuzatishlarni qayd qilish

Uslublar ishlab chiqish

Tadqiqot dasturini ishlab chiqish bilan birga bajarilishi kerak bo'lgan mavzu uchun asosiy uslubiy prinsiplar ham ishlab chiqilishi lozim. Hamma holatlarda bitta uslub bilan ishlash to'g'ri kelmaydi. Oldinga qo'yilgan vazifalarga, o'rganilayotgan obyekt xarakteriga va ish sharoitiga qarab har xil ishga kerakli tadqiqot uslublaridan foydalanish kerak.

Dala sharoitida ishning ikkita yo'nalishi mavjud: ekspeditsiya va statsionar. Bu ikkala yo'nalish o'rtasida keskin chegara yo'q. Ko'pincha uzoq davom etgan ekspeditsiyalar, bir nechta punktlarda to'xtab ish olib boriladi, ya'ni ma'lum darajada statsionar sharoitda tadqiqot olib boriladi. Aksincha, statsionar ishlar ba'zi keng joylarda uzoq ekskursiyalar o'tkazishni talab qiladi.

Asl ma'noda ekspeditsiyali tadqiqot marshrut bo'ylab tadqiqot qilish demakdir. Tadqiqotning ekspeditsiya uslubi asosan u yoki bu joyning faunasini, hayvonlarning yashash joylarini o'rganishda qo'llanadi. Ekspeditsiya vaqtida birnecha o'n, yuz km masofani bosib o'tgach hayvonlarning tarqalishi va taqsimlanishi, turlar tarkibi to'g'risida umumiy tushunchalar olish mumkin. Lekin shu joyda qisqa muddatda bo'lganimiz tufayli hayvonlarning yekologiyasi va dinamikasi to'g'risida ma'lumotlar to'plash juda qiyin. Ekspeditsiya davomida tayanch punktlarning bo'lishligi to'planayotgan materiallarning qimmatini oshiradi. Ekspeditsiyaning kamchilik tomoni shundaki, bu vaqtda asosan material to'planadi, chunki unga ishlov berish to'lig'icha laboratoriyada ishlashga qoldiriladi. Statsionar sharoitda material yig'ilganda esa, tabiatdagi kuzatishlar ularga ishlov berish har doim almashinib turishi lozim.

Shuning uchun ham zoologik tadqiqotlarning dastlabki bosqichlarida hayvonlarni turlar tarkibini aniqlashda, tarqalishi qonuniyatlarini o'rganishda

ekspeditsiya asosiy rol o'ynaydi. Lekin ko'pincha, hozirgi vaqtda asosiy e'tibor uzoq muddatli, yil davomida faoliyat ko'rsatayotgan statsionar tadqiqotlarga berilmoqda. Statsionar tadqiqotlar hayvonlarni biologiyasini o'rganishda muhim yo'l hisoblanadi va uni oldiga hayvon hayotini batafsil o'rganish vazifasi qo'yilmoqda.

Statsionar tadqiqotlar ekspeditsiya tadqiqotlarida mavjud bo'lgan ko'pgina kamchiliklarga ega emas. Bular tur yoki turlar kompleksini, biologiyasini to'liq va har tomonlama o'rganishga imkon beradi.

Dala sharoitida statsionar tadqiqotlarning rivojlanishi hayvonlarning eksperimental yo'llar bilan o'rganish, kuzatish uslublari bilan bir qatorda olib borish keng qo'llanilmoqda. Statsionar ekologik tadqiqotlar dala sharoitida solishtirma ekologik-geografik ishlarni bajarishda katta natijalar beradi. Solishtirish usuli hamma fanlarda keng qo'llaniladi.

Dala sharoitida ilmiy tadqiqotlar olib borishda solishtirma kuzatishlar va yeksperimentlarning ahamiyati juda katta. Bu ishlarsiz biologik tadqiqotlar olib borish mumkin emas. Faqat olingan solishtirma ma'lumotlarni tahlil qilinganda hayvon hayotini chuqur bilish, ularning yashash muhiti bilan bir butunligini o'rganish mumkin.

Biologiyada solishtirish usuli ekologik-geografik nom bilan aytila boshladi. Bu hayvonlarning tabiatda tarqalishi va taqsimlanishini teng emasligi bilan asoslanadi, chunki tabiiy va biotik sharoitlarni taqsimlanishi bilan bog'langan. Muhit omillari turlarni morfologik, fiziologik va ekologik xususiyatlarini aniqlaydi. Buning natijasida hatto bitta turning o'zi har xil joylarda tashqi qiyofasi, xulq-atvori, o'sish tempi, ko'payish vaqti, ko'payish soni, oziqlanishi, har xil muhit omillariga munosabati bilan farq qiladi. Bu farqlarning hammasini o'rganish shartning dinamikasi bilan bog'liq va bu o'zgarishlar solishtirma ekologik-geografik yo'l bilan o'rganiladi. Har xil geografik hududlardan olingan ekologik ma'lumotlarni solishtirib o'rganish bilan bir qatorda bir joyning o'zida lekin turli kunlarda, mavsumda va yillarda to'plangan ma'lumotlarni taqqoslab tahlil qilib o'rganish talab qilinadi. Shunga o'xshash qator taqqoslashlar o'rganilayotgan hayvonni xususiyatlarini ochib beradi.

Ma'lumki, ekologiya fani ajratib olingan yoki yakka organizmni o'rganmasdan, uni yashayotgan muhiti bilan birgalikda (o'simlik guruhlari, mikroklimat, tuproq, relef va boshqa ekologik omillar) o'rganadi, bunda tabiiyki hayvonlar yekologiyasi qator biologiya va geografiya, fanlari bilan chambarchas bog'langan. Masalan fitosenologiya, klimatologiya, tuproqshunoslik, tabiiy geografiya va boshqalar. Biz doimo bu fanlarning material va uslublardan foydalanamiz.

Bundan tashqari dala sharoitida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganda mahalliy aholi ichidan tabiatga qiziquvchi yordamchi kishilarni topib olish kerak va ularni o'z ishimizga jalb qilishimiz lozim. Avvalo ulardan o'tgan yillar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar olishimiz mumkin. Keyin, hayvonlar to'g'risida har xil ma'lumotlar va materiallar yig'ishga yordam beradi.

Kalendar reja

Tuzilgan dastur va keng uslubiy ko'rgazmalarga asoslanib, o'ylangan mavzuga uni bajarish uchun vaqt ajratish lozim hamda dala ishlarining mavsumi belgilanadi. Ko'pgina mavzular bir yil davomida bajarilishi mumkin. Ko'p yillik tadqiqotlar hayvonlar to'ldasining dinamikasini o'rganish, turlarning yekologiyasini yilning turli sharoitlarida o'zgarishini o'rganish uchun kerak. Shuning uchun tadqiqot o'tkazish muddatini avvaldan aniqlab olish lozim.

Undan keyin ishchi yoki kalendar reja tuziladi. Kalendar reja tadqiqotchiga ishning borishini nazorat qilishga yordam beradi, kerak bo'lganda kechikayotgan qismini tezlashtirishga imkon beradi.

Ilgarilari zoologik tadqiqotlarning ko'pchiligi yilning issiq vaqtida bajarilar yedi. Bu juda katta xatolik yedi. Hozir hayvonlarni biologiyasini o'rganish yil davomida olib boriladi. Tadqiqot ishlari hamma fasllarda olib borilgandagina hayvonning biologiyasi to'g'risida to'liq material olinadi.

Ekspeditsiya va ekskursiya jihozlari

Dala ishlarining muvaffaqiyatli bajarilishi ko'pincha zaruriy jihozlar bilan ta'minlanishiga bog'liq.

Zoologning dala ishlarini materiallar bilan ta'minlanish xarakteri, bir tomondan tadqiqot maqsadiga, ikkinchi tomondan mahsulot va imkoniyatga, uchinchidan dala ishlari olib boriladigan joyning geografik xususiyatiga bog'liq. Shunday qilib, mavzu, tadqiqot tipi (ekspeditsiya, statsionar), harakat turi (mashina, otulov, o'troq), ob-havo va boshqa tomonlar hisobga olinadi.

Jihozlarga bo'lgan talab ularning yengilligi, mustahkamligi, qulayligi, narxining arzonligi va tamirlash oson bo'lishiga etibor berish kerak.

Har bir ekspeditsiya xodimi yildan yilga o'zining shaxsiy ekspeditsion jihozlarini yig'ib borishi va o'z tajribalariga asoslanib takomillashtirib borishi zarur. Hammaga ma'lumki, har kimni o'z miltig'i, fotoapparati, kinokamerasi, ryukzagi, dala kiyimlari, chodiridan foydalanishi o'zi uchun juda qulay. Yillar davomida tadqiqotchida o'zi yasagan moslamalar paydo bo'lishi mumkin.

Dala ishlariga chiqishdan oldin hamma kerakli narsalarni tahlash kerak. Buning uchun avvaldan o'ylab ro'yxat tuziladi. Dala jihozlari asosan quyidagi guruhlariga bo'linadi: 1) Ilmiy jihozlar, 2) shaxsiy jihozlar, 3) ekspeditsiya jihozlari, 4) lager mulklari, 5) transport, 6) oziq-ovqat mahsulotlari.

Ilmiy jihozlarga joyning tabiiy geografik xaritasi, sinflar bo'yicha hayvonlarni aniqlovchi kitoblar, jurnal, daftar, dala daftarchasi (jilti qattiq bloknot), ruchka, qalam, durbin, fotoapparat, kinokamera, miltiq, tutqichlar (to'r, qapqon, sirtmoq), chizg'ich, o'chirg'ich, qog'ozlar, efir, formalin, spirt va boshqalar kiradi.

Shaxsiy jihozlarga kiyim-kechak, poyafzal, brezentli kamzul, soqolmo'ylab oluvchi asbob, peska, poki, oyna, sovun, sochiqlar kiradi.

Ekspeditsion va lager jihozlariga mashina, ot-eshak, ular uchun zarur bo'lgan yehtiyot qismlar va anjomlar, chodir va uning zarur qismlari, uxlash

qopi, bolta, bolg'a, arra, mix, kerosin, fonis, gazli ballon va plita, qozon, choynak, piyola, kosa, qoshiq, satil, jom va boshqalar kiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga tezda buzilmaydigan guruch, paxta yog'i, naxo't, mosh, kartoshka, piyoz, sabzi sariq yog'lar kiradi bu mahsulotlarni joylardan topish mumkin.

2. Kuzatishni qayd qilish

Kuzatish kundaliklari. Quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarni dala sharoitida o'rganishda olib borilgan kuzatish natijalarini yozib borish (kundalikni to'ldirib borish) muhim ahamiyatga ega. Faqat yozma ravishda qayd qilingan qimmatga ega va hech qachon bu hujjat o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Shuning uchun har bir zoolog dala ishlarini olib borish jarayonida tabiatda kuzatish natijalarini batafsil yozib borib, kundalik daftoriga qayd qilishi shart va bu ma'lumotlarni xotirada saqlashga odat qilmaslik kerak.

Yozishda, aniq ishongan, tasdiqlangan ma'lumotlar qayd qilinishi kerak, tahminlar, so'rab olingan ma'lumotlar yozilmasligi lozim. Yozish jarayonida quyidagi umumiy qoidalarga rioya qilish talab qilinadi: 1) kuzatilgan yoki olingan ma'lumot tezda daftarga yozilishi shart, 2) ma'lumotlarni o'ta aniq va tushinarli qilib yozish kerak, 3) sana, kunning vaqti, kuzatish joyi va sharoitini yozish kerak, 4) tushunarli va izohli qilib yozish lozim. Bu talablarni bajarmaslik ko'p qiyinchiliklar tug'diradi. Kuzatish natijalarini dala sharoitida jilti qattiq cho'ntak daftarchasiga qayd qilinadi. Bu daftarchani o'lchami - 8x12 sm bo'lsa qulay hisoblanadi. Yozuvlar yumshoq oddiy qalamlar yordamida olib boriladi.

Ko'pincha, dala sharoitida yozuvlar noqulay holatda (tik turib), shoshilinch holatda qisqartirilib yoziladi. Ayniqsa bunday holat kechasi, yomg'ir ostida, qattiq sovuqlarda kuzatiladi. Tunash joyiga qaytganda bunday yozuvlar kechiktirilmasdan kundalik daftoriga ko'chiriladi. Kundalik daftari odatdagi umumiy daftar hisoblanib bu to'r katakli, jilti qattiq bo'lishi kerak va bunday daftarlar nomerlanadi, har bir beti ham nomerlanishi lozim. Bunday kundalikdan bir necha yillar davomida foydalanish mumkin. Kundalikning jiltiga muallifning familiyasi, ish joyi va turar joyi hamda telefon nomeri yozilishi shart, chunki kundalik yo'qolib qolsa, bu ma'lumotlar qo'l keladi.

Kundalik asosan xronologik va turlar bo'yicha olib boriladi. Xronologik kundalik kuzatishlar har kuni yozib boriladi. Yozuvning boshida haftaning kuni, sanasi yoziladi, keyin ob-havoga qisqacha tavsif beriladi, undan keyin ekskursiyaning kunlik marshruti ko'rsatiladi va oxirida olib borilgan kuzatishlar batafsil yoziladi. Bu holatda kun bo'yi olib borilgan kuzatuvlarni ma'lum darajada guruhlariga ajratish lozim. Masalan: qushlarga, sut emizuvchilarga, sudralib yuruvchilarga va amfibiyalarga, bulardan esa ma'lum tartibda ayrim turlarga ajratiladi. Kundalikga bunday tartibda yozish, materialga ishlov berishda qo'l keladi.

Kundalik tutishning bu tipi zoologlar o'rtasida keng tarqalgan. Xronologik kundalikning muhim kamchiligi bu har xil turlar, biotoplardan ma'lumot tanlash juda murakkabligidadir. Material qanchalik ko'p bo'lsa, bunda oriyentir qilish qiyinlashib boradi. Bunday qiyinchilik holatidan chiqish uchun har-bir tugagan kundalik mavzu bo'yicha ko'rsatkich (hayvon turi biotop, o'simlik oziqalari, uyalarning taqsimlanishi, sonining dinamikasi, kundalik faoliligi, oziqlanishi) yoziladi.

Turlar bo'yicha yuritiladigan kundalik har bir turdan materiallar oldinmaykeyin to'planishi bilan kundalikni har bir betiga yozilib boriladi. Buning uchun har bir turga ma'lum miqdorda kundalikdan betlar ajratiladi.

Hozirgi zamon zoologlarining dala sharoitida olib borgan ilmiy tadqiqotlari faqat ko'rganlarini yozish bilan cheklanmaydi. Uning yozuvlarini ayrim betlarida rasmlar, xarita-sxema, grafik, foto-suratlar aks etdiriladi.

Xarita tuzish dala tadqiqotlarini olib borishda eng zarur hisoblanadi. Xaritasiz dala sharoitida ishlash mumkin emas. Shuning uchun ham avvaldan tadqiqot joyini xaritasiga ega bo'lish kerak. Xarita avvalam bor joyda oriyentir qilish uchun zarur. Xaritaga bosib o'tilgan yo'l (marshrut), hisoblash chizig'i hisob maydonchasi va boshqalar tushiriladi. Lekin, xaritaga asosan biotasvirlar tushiriladi, ya'ni unga har xil maxsus zoologik ma'lumotlar qayd qilinadi. Muhim hayvon turlarining tarqalishi, ularning ommaviy to'planish joyi, qishlash joyi, uya va inlarning joylashgan joylari, oziqa zahirasi resurslarining taqsimlanishi va boshqa ma'lumotlar tushiriladi.

Buning uchun ko'rgazmali, oddiy shartli belgilar ishlatiladi. Rasmona tasdiqlangan standart shartli belgilar hali mavjud emas. G.A.Novikov (1953) tomonidan taxminiy shartli belgilar ishlab chiqilgan. Biz ham shu belgilarni asos qilib oldik.

Ovlanadigan va sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan qush va darrandalardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun bularni ko'chish yo'llari va mavsumiy omavviy to'planish joylarini bilish muhim ahamiyatga ega. Bu holda ham xarita zarur qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Xaritaga biotoplarni taqsimlanishini tushirish maqsadga muvofiqdir. Joylarda biotoplarni ajratish uchun joylarni o'simliklari asos qilib olinadi va joyning geobotanik xaritasidan foydalaniladi.

Tog'li joylarda zoolog uchun balandlikni o'lchagich barometr asbobi joyni dengiz sathidan balandligini o'lchashda muhim rol yo'naydi. Tekislikda esa qadam o'lchagich ishlatiladi.

Agar ba'zi joylarni topografik xaritasi bo'lmasa, zoolog ayrim joylarni (o'zi uchun eng muhim bo'lgan) - suv havzasi, uyalar va inlar koloniyasi, kabi joylarni xarita-sxemasini chizishga kirishadi. Buning uchun uning ilmiy jihozlari ichida planshet, kompas uch qirrali chizg'ich, millimetrli qog'ozlar bo'lishi kerak.

Xarita-sxemani chizishga kirishishdan oldin zoolog o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalardan kelib chiqishi kerak. Katta maydonda xarita-sxema 1 sm

ga 50-100-1000 m bo'lishi mumkin, kichik maydonda esa 1 sm ga 50-100 m bo'lishi tavsiya etiladi.

Ilmiy chizmalar. Agar, zoolog hayvonlarni, ularning izi, uyasi, ini va boshqa faoliyatlarini chiroyli qilib qog'ozga chiza olsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Bu borada A.F.Formazovni ilmiy-chizmalari ko'pchilikka o'rnak bo'ladi. Lekin hamma ham bunday nodir talant bo'lavermaydi. Shunga qaramasdan har bir zoolog oz bo'lsada chizish texnikasini bilishi kerak. Hech bo'lmaganda uchayotgan qushlarning silueti, izi, uyasi, kemirishi, ko'rinish holatlarini chizish mumkin. Chizilgan rasmlar sxemali bo'lsada, hayvonning shakli, o'lchami va boshqa tomonlarini aniq ko'rsatishi kerak. Ko'pchilik vaqtlarda masshtabni ko'rsatish yoki natural o'lchamini berish foydalidir. Uyalarni chizganda, uni daraxt shoxlarida joylashish sxemasini ko'rsatish lozim.

Rasmga tushirish. Dala tadqiqot ishlarini olib borishda hayvonlarni va ularni hayotini rasmga tushirish kinoga olish va magnit tasmasiga ovozlarini yozib olish muhim ahamiyatga ega va haqiqiy ilmiy hujjat bo'lib xizmat qiladi, ya'ni kundalikka yozish, xarita, kolleksion nuxsa kabi foydalaniladi. Ba'zi xollarda, masalan u yoki bu hayvonning yashash joyini rasmi shu joyni uzun qilib yozishni o'rnini bosadi. Tushirilgan rasm jurnalga yozilishi va nomerlanishi shart.

Dastavval zoolog oldida eng muhim ob'yektlarni tasvirga tushirish masalasi turadi. Umuman tasvirga tushirish ob'yektlarini uchta guruhga ajratish mumkin: hayvonlar, ularni yashash joylari, izlari va faoliyati.

Yosh zoolog hayvonning hayotini xarakterli va qiziqarli tomonlarini tasvirga tushirishi kerak. Hayvonning tabiatda rasmga olish, biotoplarini, ayrim turlarning yashash joylarini, uya qo'yish joylarini, in qo'yishi, xarakterli daraxatlar va butalarni, ovqat qoldiqlarini tasvirga tushirish qimmatli va muhim hisoblanadi.

Undan keyin hayvonning izlarini (barmoqlarini loy, qum, qorda qoldirgan izlari), yo'llarini, yotish joyini, ini va uyasini, daraxat kovagini, ovqatlanish stolini, ovqatlanish maydonchasini rasmga tushirish talab qilinadi. Bularni hammasi harakasiz ob'yektlar bo'lib, ko'pgincha borish qiyin bo'lgan joylarda joylashadi, yoki yaxshi yashirilgan bo'ladi. Bularni hammasi rasmchidan o'ta ehtiyotkorlik, ustalik va chidamli bo'lishni talab qiladi.

Biologik suratlar masshtabli bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni ob'yekt yoniga chizig'ich, gugurt qutisi kabi narsalar qo'yiladi, chunki ob'yekt o'lchami shu predmetlarga qiyoslanadi. Aks holda rasm o'zining ko'rgazmaliligini yo'qotadi.

Fotoapparat bilan hayvonga ov qilishda (tabiatda) ba'zan odatdagi ov usullaridan (poylab turish, yurib turib rasmini olish, ovozi bilan jalb qilish, pistirmada turish) foydalaniladi chunki dala sharoitida hayvon bizni kutib turmaydi.

Uya, in, ovqatlanish yoki suv ichish joylarida pistirmada turib rasmga olish qiziqarli natijalar beradi.

Hayvonlarning tabiiy holatini va turli ko'rinishdagi hayot tarzini tasvirga tushirish uchun har xil fotoapparatlar va videokameralar mavjud.

Zoologik tasvirlar uchun eng qulayi, ob'yektiv almashtiriladigan oynali kamera hisoblanadi. Bunday kameraga teleob'yektiv ham qo'yish mumkin. Bu fotoapparat yordamida-hayvonlarning turli ko'rinishlarini - har xil masofa, yugurayotgan, uchayotgan holatlarini tasvirga tushirish mumkin. Hayvonlarning hayotini portativ kichik videokameralarga tushirish mumkin. Bulardan tashqari hayvonlarni ayniqsa, qushlarni ovozi magnit tasmasiga yozib olish (magnitofonga) qiziqarli materiallar beradi. Ya'ni, qushlarni ovozlari o'rganib, ularning tabiatdagi turlarini aniqlashga imkon tug'iladi.

10 Ma'uza (4 soat)

Mavzu: Hayvonlarni tutish va ishlov berish.

Reja:

1. Kolleksion materiallar yig'ish va ularga dastlabki ishlov berish
2. Amfibiyalardan va sudralib yuruvchilardan kolleksiya to'plash
3. Qushlarni tutish va ulardan kolleksiyalar to'plash
4. Sut emizuvchilarni tutish va preparovka qilish

Kolleksion materiallar yig'ish va ularga dastlabki ishlov berish

Hayvonlardan sistematik kolleksiyalar to'plash muhim ish hisoblanadi. Chunki kolleksiya to'plash yordamida hayvonlarni turlar tarkibi, ovqatlanishi (jig'ildon va oshqozondagi ovqatlar) va ko'payishi (jinsiy bezlarining holati) hamda yoshi, jinsi va tullashi o'rganiladi. Shuning uchun har bir zoolog hayvonlarni tutishi, unga ishlov berishi va ilmiy kolleksiyalar tayyorlash asosini bilishi kerak.

Hayvonlardan kolleksiyalar tayyorlash va shu jumladan ilmiy ov tadqiqotchi oldiga qo'yilgan mavzu va vazifalardan kelib chiqqan holda o'ylangan va rejalashtirilgan bo'lishi lozim. Kolleksiya uchun hayvonlar turli yoshida va yilning hamma faslida tutiladi.

Har bir tutilgan hayvon maxsus jurnalga yoziladi va unga yetiketga (pasport yoziladi). etiketka Etiketka vatman yoki kalka qog'ozidan tayyorlanadi va hayvonning o'lchamiga qarab 4-8x2 sm kattalikda bo'ladi. Etiketkaga oddiy qalam yoki qora tush bilan yoziladi. Unga kolleksiya nomeri, hayvonning ilmiy nomi, jinsi (♀ - urg'ochisi, ♂ - erkagi), yoshi (ad, juv), tutilgan sanasi, joyi, biotopi va kolleksiya tayyorlagan kishining familiyasi yoziladi. Bu ma'lumotlar etiketkaning ikki tomoniga yoziladi, etiketkaning yuziga nomer, hayvonning nomi, jinsi, yoshi, ushlangan joyi, sana va o'zining familiyasi yozilsa, orqa

tomoniga massasi umumiy o'lchamlari, urug'don holati, rangi, tullashi va boshqa ma'lumotlar yoziladi. Bu quyidagicha ko'rinishga ega.

Etiketkaning yuza tomoni

Lanius minor ♂ ad 2004.1.03.
Samarqand vil. Tayloq tumani
Zarafshon qo'riqxonasi
A.R.Jabborov

Etiketkaning orqa tomoni

Massasi 35 Z172 C86 A95
urug'don 5x3
uyasi olida tutilgan

Shuni unutmaslik kerakki, etiketka tutilgan hayvon nusxasining asosiy hujjati (pasporti) hisoblanadi, buning yo'qolishi bilan tutilgan hayvonning ilmiy bahosi ham yo'qoladi. Vaqtinchalik etiketkalar tutish qat'iy man etiladi.

Qushlar va sut emizuvchilarning terisini ajratib olish va tulup yasash, hamda o'lchamlarini olish uchun quyidagi asbob va materiallar talab qilinadi (10-rasm) dorixona tarozisi va toshlari, chizma, metallardan yasalgan yig'ma metr o'lchagich, santimetrli tasma yoki ruletka, shtangensirkul, qaychi (o'tkir va tumtoq uchli), skalpel, qisqich ombur, egov, har xil yo'g'onlikdagi sim, igna va ip, vatman qog'ozi, har xil qog'ozlar, ilmoq, paxta, kartoshka uni, mishyakli natriy, sochli cho'tka, tuz, naftalin, marli. Bu asbob va uskunalarining ko'pgina qismi amfibiyalar va sudralib yuruvchilar bilan ishlaganda ham ishlatiladi.

Shuni eslatib o'tish joizki, bu hayvonlarga ishlov berilganda yod yoritmasi va zelenka bo'lishi kerak. Bu eritmalar qo'l yoki boshqa joylar kesilib, yara paydo bo'lganda ishlatiladi.

Ushlangan hayvonlar (ayniqsa amfibiyalar va sudralib yuruvchilar) spirtida, formalinda va boshqa yurituvchilarda saqlanadi.

Eritma sifatida 70-75% li spirt ishlatiladi. Ob'yektlarni saqlash jarayonida spirtni kuchi pasayadi. Chunki hayvonning ichki organlaridan ko'p miqdorda suv ajralib chiqadi, bu spirtni kuchini pasaytiradi, natijada ob'yektdan qutilish uchun ob'yekt solingan idishni qo'zg'ab, ob'yektni ushlab ko'rish lozim. Qo'zg'ash natijasida spirt idishni hamma joyida tenglashadi. Ob'yekt qattiq bo'lsa konservatsiya (qotirish) normal bormoqda. Agar ob'yekt yumshoq bo'lsa u buzila boshlagan va spirtni almashtirish zarur.

Bitta idishga (shisha bankaga) ko'p miqdorda material solib haddan tashqari to'ldirmaslik kerak. Chunki material eziladi, to'lmagan bankani olib yurishi ham qiyin, sababi chayqalib to'kiladi.

Spirt, qotiruvchi suyuqlik sifatida qator afzalliklarga ega. Avvalambor spirtida formalinga nisbatan o'zining egiluvchanlik xususiyatlarini yaxshi saqlaydi. Spirtida ayniqsa, sudralib yuruvchilar yaxshi saqlanadi. Spirtni hidi yoqimsiz emas, ko'zni va burunning shilimshiq pardasini qichitmaydi, qo'l terisini yemirmaydi. Lekin spirt ob'yektni rangini uchiradi.

Dala sharoitida materiallarni qotirish, fiksasiya qilish uchun formalin ham ishlatiladi. Hayvonning rangiga formalin kamroq ta'sir qiladi, lekin to'qima va

organlarni ancha qotiradi. Formalin ko'zga, burunga, qo'l terisiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Va nihoyat formalin ozgina sovuq bo'lsa ham muzlaydi, odatda 2-5% li formalin ishlatiladi.

Dastavval tutilgan hayvonlarni 1-2 kun ichida formalinda, keyin 75% li spirtida fiksasiya qilish yaxshi natijalar beradi. Bunda material avval zichlanadi, rangi deyarlik o'zgarmaydi. Bundan tashqari hayvondagi har xil iflosliklar yuviladi.

Materiallar solingan shisha bankalarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda (daladan laboratoriyaga) ularni og'zi mahkam yopiladi. Og'zining qirralariga parafin yoki mum quyiladi.

Dala sharoitida materiallar joylashtirilgan shisha bankalarni maxsus ekspeditsion sandiqlarga joylashtiriladi.

Amfibiyalardan va sudralib yuruvchilardan kolleksiya to'plash

Amfibiyalar va sudralib yuruvchilarni to'plash uchun eng qulay vaqt bu bahor oylari hisoblanadi, chunki bu hayvonlar qishki uyqudan uyg'onadi va hali unchalik yashirin hayot kechirmaydi. Lekin hayvonlarning biologiyasini hamma tomonlama o'rganish uchun yilning hamma fasllarida kolleksiya to'plash kerak bo'ladi. Materialni doimo oldin tuzilgan reja asosida to'plash kerak.

Baqa, qurbaqa va kaltakesaklarni ularni faol vaqtida qo'l bilan tutish osondir. Baqa va qurbaqalarni ushlash uchun uzunligi va yoni 15 sm dan hamda chuqurligi 40 sm bo'lgan chuqurchalar kovlash tavsiya etiladi. Bu chuqurchalarning biri ikkinchisidan 100-200 metr uzoqlikda shaxmat tartibida uch qator qilib, amfibiyalar yashayotgan joylarga, ularning davriy ko'chib yurish yo'llariga qo'yiladi. Bu chuqurchalar nafaqat baqa va qurbaqalarni tutish, balki ularning sonini aniqlashda ham foydalaniladi. Bundan tashqari bu hayvonlarni matrap (sachok), yoki uchiga sirtmoq bog'langan tayoqlar yordamida yoki qo'l bilan ushlanadi.

Kaltakesaklarni tutish uchun juda ehtiyotkorlik talab qilinadi. Asta-sekin pisinib, bekinish ularning boshiga o'z soyasini tushirmasligi kerak, hayvonga yaqinlashish bilan uni matrap yoki kichik bosh kiyimi bilan yopish yoki uchi ayri tayoq bilan yerga bosish kerak. Kaltakesaklarni ot dumidan tayyorlangan yoki ingichka kapron ipidan tayyorlangan sirtmoqli xivchin uchiga biriktirib qo'yish bilan ham tutiladi. Sirtmoqni (diametri 3 sm bo'lishi kerak) asta-sekin hayvonning boshiga yaqinlashtiriladi va tez harakat bilan bo'yin atrofidan tortiladi. Kaltakesaklarni dumidan emas, balki panja yoki tanasidan ushlanadi (chunki dumi uzilishi mumkin) va qopqog'i bor satilga, qopqoqli bankaga yoki matodan tayyorlangan va maxsus ip bilan og'zi bog'lanadigan xaltachaga solinadi.

Zaharsiz ilonlarni uchi ayri tayoqlar bilan yerga bosib, qo'l bilan bo'ynidan ushlanadi. Zaharli ilonlarni tutib olish uchun maxsus ehtiyotkorlik choralarni ko'rish talab qilinadi. Ular chaqmasligi uchun har qanday ilonni ochiq qo'l bilan ushlamaslik kerak. Uchi ayri bo'lgan tayoq yoki etik kiyilgan

oyoq bilan bosish kerak, yoki bo'lmasa tayoq bilan urib, karaxt qilish lozim. Bu holatda ilonning boshiga jarohat yetkazmaslik talab qilinadi, aks holda bunday nuqson o'zining ilmiy qimmatini yo'qotadi. Zaharli ilonlarni oyog'ida rezina etigi bilan bosib, ilonni bo'ynidan, boshiga yaqin joyidan qo'l bilan ushlanadi va yuqoriga ko'tariladi. Keyin dumi bilan idishga solinadi, boshi oxirida idishga siltab tashlanadi va idish qopqog'i yoki xaltacha og'zi tezda yopiladi. Zaharli ilonlarni chaqishi mumkinligi (qochib ketish ehtimoli mavjudligi) hisobga olinib, ushlangandan so'ng darhol spirt yoki formalinga solish tavsiya etiladi.

Agar zaharli ilonlarni chaqish hollari sodir bo'lsa darhol choralar ko'rish lozim. Buning uchun avvalambor o'z imkoniyatlaridan foydalanib, keyin tezda malakali tibbiy yordam berish choralarini ko'rish zarur. Yordamsiz vaqtni o'tkazish og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Dastlabki ko'rsatilgan yordamdan asosiy maqsad, zaharni tarqalishiga yo'l qo'ymaslik bo'lib, zaharni organizmdan chiqarib tashlash yoki neytrallashtirishdan iborat. Buning uchun birinchidan ilon chaqqan joydan biroz yuqori joydan bog'lash kerak. Bog'lash uchun ko'ylak, ro'mol, tasma, ip, rezina ishlatiladi. Bog'lash 20-25 minut davom etadi, keyin u yechib olinadi va yuqoriroqdan bog'lanadi. Bog'lash o'ta qattiq bo'lmasligi kerak. Aks holda qonning harakati to'xtaydi. Chaqilgan joyga spirt surtiladi, natijada zahar yuviladi. Ikkinchidan yara kesilib, kengaytiriladi va qon bilan zahar tanadan chiqib ketadi. Uchinchidan og'iz bo'shlig'ida (tish milkida) yara yo'qligiga ishonch hosil qilgandan keyin yara so'riladi va tuflab tashlanadi. Ilon chaqqan joyni kuydirish yoki alkogol istemol qilish qat'iy man etiladi. Shu bilan parallel holda shifokorga murojat etiladi.

O'ldirilgan zaharli ilonlar bilan ham ehtiyotkorlik choralarini ko'rgan holda munosabatda bo'lish kerak. Chunki zahar uzoq vaqtgacha o'z kuchini yo'qotmaydi. Zaharning kuchi issiq kunlarda oshib boradi.

Tutilgan ilon yoki kaltakesaklar dala sharoitida xaltada saqlanadi. Baqalar og'zi berk satilcha, bedonga solinadi. Zaharli ilonlar spirtli idishlarga solinadi. Chaqish yoki qochib keyingi xavflaridan qutilish uchun ilonning tanasi spirtli idishga solinadi va uni og'zi yopiladi. Ilon, kaltakesak va baqalarni ichki organlarini aynimasligi uchun hayvonni qorin tomonidan yoriladi, bu yoriqdan spirt yoki formalin kirib, hayvonning ichki organlari konservatsiya qilinadi.

Qushlarni tutish va ulardan kolleksiyalar to'plash

Qushlarni tutib olishning oddiy usuli- miltiq bilan sochma o'q yordamida otib olishdir, buning uchun davlat ovchilik inspeksiyasining tegishli ruxsatnomasiga ega bo'lish kerak. Sochma o'qlarni tayyorlashda G.A.Novikov (1953) qo'llanmasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Ov qiluvchi kishi miltiqdan foydalanish qoidalariga to'liq rioya qilishi shart. Yani, hatto miltiq o'qlanmagan bo'lsa ham uni bir kishiga qaratish mumkin emas. Miltiq yelkaga osib yuriladi va uning uchi yoki yerga yoki

osmonga qaratilgan bo'lish kerak. Ovdan qaytganda albatta o'q miltiqdan ajratib olinishi kerak.

Ilmiy ov (kolleksiya to'plash uchun) yil davomida, hatto ov qilishi mavsumi hali ochiq bo'lmaganda ham olib boriladi. Buning uchun ovchilik jamiyatidan maxsus ruxsatnoma olinadi. Tadqiqotchi zoolog qushni nafaqat otib olishi, balki uni butun, toza qilib tutishi lozim.

Qushni miltiq yordamida otib olishdan tashqari, har xil moslamalar: qopqon, sirtmoq, to'r va boshqalar ham ishlatiladi.

Yarador yoki tutib olingan qush o'ldirilishi kerak, buning uchun bosh va ko'rsatkich barmoqlarni uning orqa tomonidan qanotlari asosiga o'tkaziladi. So'ng qushning yuragi urishdan to'xtagunga qadar ko'krak qafasi qisib turiladi. Tumshug'idan oqayotgan suyuqlik patlarni ifloslantirmasligi uchun, qushning boshi pastga qaratib turiladi. Katta qushlarni o'ldirish uchun yo'g'on ignalardan foydalaniladi. Ignani qushning ensa qismiga tiqib, uzunchoq miya jarohatlanadi. Yoki mahkam yopiladigan qopqoq satil yoki banka ichiga efir bilan ho'llanilgan paxta tashlanadi va uning ichiga qush solinib uxlatiladi.

Jonsizlangan qush sinchiklab qarab chiqiladi, kichik yaralariga kraxmal sepiladi, katta yaralarga, tumshug'iga va kloakasiga tampon tiqiladi. Keyin qushni boshini pastga qaratib, chetlari bukilgan qog'oz xaltachaga solinadi.

Jonsizlantirilgan qushga ishlov berish. Qushlarni odatda yeritmalarda (spirt, formalin) qotirilmaydi. Faqat anatomik-morfologik materiallar to'plash uchun fiksasiya qilinadi.

O'ldirilgan qushlarni terilaridan zoologik tushka (ichi tozalangan qush terisi) yoki tulum (chuchula) tayyorlanadi. Terisi shilinib olinishidan oldin qush tarozida tortiladi va o'lchanadi. Quyida eng muhim o'lchamlar ko'rsatilgan.

1. L - tanasining uzunligi - tumshug'ining uchidan eng uzun dum patlarining uchigacha. Buning uchun qushni oddiy o'quvchilar chizg'ichi yoki santimetrli tasma ustiga orqasi bilan qo'yiladi.

2. A - qanotining uzunligi - qanot yig'ilgan holatda kaft bukilishdan qanotni uchigacha. Bunda uzun chizg'ich qanot ostiga qo'yiladi.

3. 2A - Qanotlarning yozilgandagi uzunligi - santimetrli tasma ustiga orqasi bilan yotqiziladi, qanotlari tortiladi va ikkala qanotning uchlari orasidagi masofa o'lchanadi.

4. S - dumining uzunligi - rul patlarini teridan chiqqan joyidan uzun patlarining uchigacha bo'lgan masofa chizg'ich yordamida o'lchanadi.

5. Sevkasiining uzunligi Pl - sevkaning son bilan birikkan oldingi qismidagi chuqurchadan o'rta barmoqning asosigacha bo'lgan masofa shtangensirkul bilan o'lchanadi.

6. Tumshug'ining uzunligi Cul - peshonasidagi parlarni yoki burun teshigining oldingi qirrasidan tumshuqni uchigacha bo'lgan masofa shtangensirkul yoki santimetrli tasma yordamida o'lchanadi.

Qushning og'irligi va o'lchamlari olingandan keyin, bu ma'lumotlar jurnalga, ba'zilar esa etiketkaga yoziladi. Etiketka yoki qushning pasporti ingichka ip yordamida qushni oyog'iga bog'lab qo'yiladi.

Shundan keyin qushni tanasi sovutiladi, muskullari elastik holatga kelgach, qushni terisini tanasidan ajratishga kirishiladi. Qush toza stol ustiga orqasi bilan yotqiziladi. Stol, ustiga kerakli qurollar (qisqich, qaychi, skalpel va boshqa materiallar) tartib bilan terib qo'yiladi.

Chap qo'lning katta va ko'rsatkich barmog'i bilan qushning qorin tomonidagi patlari yon tomonga qarab ochiladi. Natijada teri ko'rinadi. Keyin skalpel yoki qaychi yordamida o'ng qo'l bilan to'shning pastki uchidan kloakasining oldingi qirrasigacha terisi kesiladi.

Lekin bu holatda kloakani va qorin bo'shlig'ining yupqa devori jarohatlanmasligi kerak, aks holda bu joylardan ichagi chiqib ketadi va suyuqlik chiqib, keyingi ishlashga xalaqit beradi. Agar bordiyu teshik hosil bo'lsa bu joyga paxta tiqib qo'yiladi. Kesma qilingandan keyin teri tanadan ajratila boshlanadi. Buning uchun barmoq yoki o'tmas qisqich yordamida to'shni pastidan yon tomonga qarab teri siljiriladi va bir oz yuqoriga ko'tariladi. Yuqoriga ko'tarilgan joyga qisqich yoki skalpelni o'tmas uchi kiritiladi. Qorin tomoni bo'ylab kesilgan joydan teri yon tomonga qarab teri tanadan ajratiladi. To'qima tolalari qaychi bilan kesiladi. Terini ortiqcha tortib cho'zmaslik kerak aks holda teri va undagi pat dastlabki holatiga kelmaydi. Ochilgan joyda qon yoki suyuqlik paydo bo'lsa, paxta bilan artiladi va kraxmal sepiladi. Teri astaseki yon tomonga qarab tanadan ajratilib boriladi va tizza bo'g'imiga borib taqaladi. Tizza bo'g'imidan qaychi bilan kesiladi, son suyagi esa tanada qoladi. Son suyagi go'shtdan tozalanadi va songa go'shtni o'lchamidek paxta o'ralib son teriga kiygiziladi. Undan keyin ikkinchi oyoqqa ham xuddi shunday ishlov beriladi. Keyin dum tomonga o'tiladi, buning uchun qushning boshi pastga qaratilib, chap qo'l bilan dumi pastga qarab bukiladi va o'ng qo'l bilan qaychi yordamida qorin tomonining dum asosidan kesiladi. Bunda kloakaga ochiladigan ichakni kesib qo'ymaslik lozim. Endi qushning keyingi tomonidagi terisi tanadan xoli qilinadi. Tanaga kraxmal sepilib, bir qo'l bilan ushlanadi va boshi pastga qaratiladi. Ikkinchi qo'lning bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan teskari ag'dariladi, natijada terining patli tomoni ichkarida qoladi. Teri tananing bosh tomoniga qarab ajratib boriladi va qanotlarni terisi yelka suyagidan ajraladi, yelka suyagiga paxta o'raladi va tanada qoldiriladi, yelka suyagining to'g'a suyagi bilan tutashgan bo'g'imidan qaychi bilan kesiladi. Undan keyin, teri bo'yinining oldingi uchigacha tanadan teskari qilib ajraladi.

Ko'pchilik qushlarning terisi qulog'igacha osonlik bilan tanadan ajraladi. Lekin bundan oldin qushning butun boshiga ko'ziga va qulog'iga kraxmal sepiladi. Undan keyin teri quloq pardasidan va ko'zidan ajratiladi. Endi teri tumshuq asosigacha ajratib olinadi.

Boshiga nisbatan bo'yni ingichka bo'lgan qushlar (qizilishton, o'rdak)ni terisini ag'darishdan oldin terisini bo'ynini ustki tomonidan uzunasiga kesiladi. Kesilgan joydan qushning boshi ensa tomoni bilan tashqariga chiqariladi.

Qushning boshi to'liq ochilgandan keyin, bo'yni ensa tomondan qaychi bilan kesiladi. Qushning tanasi yorilib, jinsi aniqlanadi, jinsiy bezlari o'lchanadi va oshqozoni hamda jig'ildoni (agar bo'lsa) ajratib olinadi. Undan keyin boshi va bosh miya, ko'z kosalaridan va til ajratib olinadi. Buni uchun qisqich, qaychi va skalpeldan foydalaniladi. Ko'z kosasi orasidagi suyak to'siq kesib olinadi, keyin miya ajratib olinadi.

Qanotlaridan terisi yelka oldi bo'limining asosiga ajratiladi. Keyin yelka suyagi muskullardan tozalanadi. Mayda qushlarning yelka oldi bo'limi osonlik bilan tozalanadi. Lekin yirik qushlarni yelka oldi terisi kesiladi va tirsak va bilak suyaklari muskul hamda paylardan tozalanadi. Undan keyin bu joyga shpris bilan margimush yeritmasi yuboriladi.

Oxirida dum umurtqalari muskullar va dum bezi olib tashlanadi. Teridan mayda muskul bo'laklari, biriktiruvchi to'qima pardalari va teri osti yog' qatlami tozalanadi. Ozgina yog' qatlami qolib ketsa, u teri tez kuyadi. Tozalangan teriga margimush yeritmasi surtiladi.

Tayyor bo'lgan teri dog'lardan ho'l paxta bilan tozalanadi. O'ta iflos bo'lsa teri hatto suvda sovun bilan yuviladi. Keyin teri quritiladi, buni uchun teriga 2-3 marta un sepiladi.

Teri tayyor bo'lgandan keyin boshidan boshlab kiygiziladi. Bunda avval bosh skeletiga tashqi tomonidan yaxshilab margimush surtiladi. Ko'z kosasi o'rni paxta bo'lagi bilan to'ldiriladi, bosh skeleti esa tashqaridan yupqa qatlamli paxta bilan uraladi. Bo'yin qismidagi terisiga ham margimush surtiladi. Bo'yin qismidan kesilgan teri tikiladi.

Boldir suyagi yana tashqariga chiqariladi, margimush surtiladi va paxta o'raladi. Keyin teriga kiygiziladi. Qanotga ham shunday ishlov beriladi, ya'ni yelka suyagiga margimush surtiladi va unga paxta o'rab, teriga kiygiziladi.

Teri qanoti va oyog'i kiygizilgandan keyin, patlar tashqariga qaratiladi, teriga ichki tomondan margimush surtiladi va qorin tomonini yuqoriga qilib, stolga qo'yiladi.

Umurtqa pog'onasi cho'p yoki sim bilan almashtiriladi. Cho'p va simning uzunligi qush gavdasining uzunligiga teng bo'lishi lozim. Simning oldingi uchiga tana bo'yniga o'xshatib paxta tiqiladi. Keyin tiqma orqasi bilan stolga yotqiziladi, sim bilan teri orasiga paxta qo'yiladi. Simning keyingi uchi kloaka xalqasiga kiritiladi va paxta bilan o'raladi. Undan keyin terisi ikki tomondan tiqmaning o'rtasiga qarab tortiladi va tiqmaning bo'sh joylariga paxta tiqiladi, shunday qilib tiqmaga shakl beriladi.

Qushlardan tiqma yasashning umumiy usuli shu aytilganlardek. Lekin tutilgan qushga ishlov berish jarayonida bir qancha yangi usullar ham ishlatiladi. Masalan mayda qushlarni ichiga sim yoki cho'p ishlatmasdan paxtani o'zini tiqish mumkin. Buning uchun paxta o'ralib, konus holiga keltiriladi va uning o'tkir uchi

ensa teshigiga kiritiladi. Yirik qushlarni terisini qorin kesimi tikiladi. Tiqma qushning tumshug'i albatta bog'lab qo'yiladi, buning uchun burun teshigidan ingichka ip o'tkazib bog'lab qo'yiladi. Keyin tiqma qo'lga olinib, barmoq va qisqich yordamida unga shakl beriladi, patlari tekislanadi to'g'rilanadi. Keyin tiqma shakli buzilmasligi uchun qog'ozga urab qo'yiladi. Siqma qurigandan keyin o'rab qo'yilgan qog'oz yechib olinadi.

O'lchami katta bo'lgan qushlardan tiqma tayyorlash yuqorida aytilganlardan bir oz farq qiladi. Bu yerda ingichka sim o'rniga o'rtacha qattqlikdagi sim ishlatiladi. Simning uzunligi tumshuq uchidan dum uchigacha bo'lgan uzunlikda bo'lishi kerak. Simning oldingi uchi o'tkir qilib egovlanadi va tozalangan bosh skeletni tepa suyagga tiqiladi. Sim bukilib, bo'yin va qorin tomonda halqa hosil qilinadi. Keyin simning bo'yin qismiga paxta o'raladi. Undan simga paxta emas, balki poxol, yoki shunga o'xshash dag'al materiallar bilan o'raladi, bo'yin, qo'ltdagi bo'shliqlarga paxta tiqiladi qorin tomonda kesilgan teri tikiladi va qo'l hamda qisqich bilan patlar tekislanadi. Boshidan chiqib turgan simning o'tkir uchi kesib tashlanadi. Tayyor bo'lgan qush tiqmasi soya joyda quritiladi.

Undan keyin qushning jinsi aniqlanadi. Buning uchun terisidan ajratilgan qushning tanasi qorin tomonidan bo'yiga qarab qaychi bilan yoriladi va ichki organlari (oshqozon, ichagi) olib chetga qo'yiladi. Murakkab dumg'azaning ostida buyrak va uning oldi tomonida jinsiy bezlar joylashadi. Erkaklarining urug'donlari doimo juft, oval va tashqi yuzasi silliq bo'ladi. Urg'ochilarining tuxumdoni odatda toq bo'lib, chap tomonda joylashadi va donador bo'ladi.

Qushlarning ko'payishi va taraqqiyoti bo'yicha material to'plash

Ba'zan qushlarni sistemaga solishda va biologik xususiyatlarini o'rganishda ularning tuxumlarini yig'ib kolleksiya qilish mumkin.

Qushlarning tuxumini yig'ish uchun avvalambor tuxum qaysi turga mansub ekanligini aniqlash kerak. Agar tuxumni aniqlashning iloji bo'lmasa, shu qushdan bir-ikki donasi tutib olinib, tiqma tayyorlanadi.

Uyasi bilan olingan tuxumlarni ilmiy ahamiyati katta bo'ladi. Lekin bunday kolleksiyalar to'plashga ko'p ham berilmaslik kerak. To'plangan tuxumlarni o'lchamlari olinadi va rangi yoziladi.

To'plangan tuxumlarga tegishli ishlov beriladi. Buning uchun umumiy asboblardan tashqari tuxum po'slog'ini teshish uchun parma va tuxum ichidagi eritmani tortib oluvchi naycha talab qilinadi. Parma o'rniga har xil kattalikdagi mixlardan foydalanish mumkin.

To'plangan tuxumning ichidagi suyuqligi tortib olinadi. Buning uchun tuxumni yon tomonidan teshik qilinadi. Shu teshikdan tuxumning ichidagi suyuqlik tortib olinadi. Teshikning diametri naycha diametridan bir oz katta bo'lishi kerak.

Sut emizuvchilarni tutish

Sut emizuvchilar qushlarga nisbatan hayot shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ularni tutish ham xilma-xildir. Bu usullarni hammasini yozib o'tirishga unchalik hojat yo'q.

Hozirgi vaqtda mayda sut emizuvchilarni biologiyasini o'rganish keng tarqalgan. Masalan, dala sichqonlari, sichqonlar, yerq'azirlar, qumsichqonlar qo'shoyoqlar, yumronqoziqlar va boshqalar. Bu hayvonlar asosan har xil qopqonchalar, yordamida tutiladi. Bunday qopqonchalarning taxtasi 15x60 mm kattalikda bo'lib, qalinligi 10 mm dan oshmasligi kerak. Kalamush va qumsichqonlar uchun taxtasi ustidagi yoyning uzunligi 85 mm gacha bo'lishi lozim. Yoyni ushlab turadigan ilmoqcha to'g'ri bo'lishi kerak.

Sut emizuvchilarni qopqonchalarga jalb qilish uchun yoqqa qovurilgan non bo'laklari, kolbasa, go'sht, baliq, mayda qush kemiruvchilarning tana qismlari hamda meva va sabzavotlar ishlatiladi. Bu narsalar qopqonchalarning ilmog'iga ilib qo'yiladi.

Sichqonsimon kemiruvchilar va yerqazirlarni tutishda ushlovchi shisha bankalar yoki zanglamaydigan temirdan tayyorlangan silindr idishlar yaxshi natija beradi. Bunday silindrlarning bo'yi 30 sm, yeni 10 sm bo'lishi kerak. Silindr va bankalar yerga ko'miladi. Idishlarni ustki qirrasi yer sathidan 3-5 sm pastroq bo'lishi lozim. Tutqichlar tomonga qarab uzunligi 12-15 sm, chuqurligi 2-3 sm yo'laklar o'tkaziladi. Tutqichlarni shaxmat tartibida bir-biridan 5-10 m uzoqlikda o'rnatiladi va bir-birini yo'laklar bilan tutashtiriladi.

Yoki hayvonlar uchraydigan joylarda uzunligi 15 m, chuqurligi 40 sm transheya qaziladi. Transheyaning bir tomon devori osilgan, ikkinchi devori egilgan bo'ladi, bunday holatda transheyaning usti 30 sm kenglikda, tagi 20-25 sm kenglikda bo'ladi. Transheyani tuprog'i osilgan devor tomonga tashlanadi. Transheyaning tagida ikki uchidan 1 m dan qoldirib, balandligi 50 sm va diametri 20 smga teng bo'lgan ikkita shishali banka qo'yladi. Transheyaga tushgan darrandalar transheya bo'ylab yuradi va bankalarga tushadi.

Kichik kemiruvchilarni tirik tutkich kataklar bilan ham tutiladi. Bunday tiriktutkich kataklarni ustiga barg, o't yoki latta bilan yopilib yashirib qo'yiladi. Hayvon katakni ichiga kirganda ovqatni tutishi bilan katakni eshigi yopiladi.

Tutqichlarni hayvon inlari atrofiga o'rnatiladi yoki ularni ovqatlanayotgan joylari, yo'llariga qo'yiladi. Qo'yilgan tutqichlar yashirib qo'yiladi va har kuni ulardan 1-2 marta xabar olinadi tutqichlarni xolatlari tekshirilib turiladi. Har 3-5 kunda bir marta tutqichni joyi almashtirilib turiladi, chunki hayvonlar tutqichlarga o'rganib, tushmasdan qoladi.

Yumronqoziqlarni har xil usullar bilan tutish mumkin. Po'latdan yasalgan yoyli qopqonlar keng qo'llanadi. Bu qopqonlar inga kirish atrofiga o'rnatiladi. Yana ingichka simdan yasalgan ilmoq ham, ko'p ishlatiladi. Agar yumronqoziq ini yaqinida suv bo'lsa, inga 2-7 satil suv quyiladi va indan chiqqan yumronqoziqni sachiq (uzun yog'och uchiga doira qilib bog'langan surp) bilan tutiladi.

Qo'shoyoqlarni ham yoyli qopqon va qayta tutqichlar (davlka)ni ini atrofiga qo'yib tutish mumkin. Bularni yana kechasi fonar yorig'ida sachiq bilan tutish ham mumkin. Yoyli qopqonlar 29-30-rasmlarda ko'rsatilgan holatda ishlatiladi.

Yirik darrandalarni tutish uchun yirik sochma yoki o'qli patrondan miltiqda otiladi. Bu ov odatda maxsus ruxsatnoma bilan bajariladi.

Kolleksiya to'plashning yana bir samarali usuli bu ovchilar, ishqiboz ovchilar bilan shartnoma tuzishdir. Ular bilan yaqin aloqa o'rnatib, darrandaning butun boshi, oshqozoni, butun tanasini olish mumkin.

Kolleksiya uchun har xil yoshdagi erkagi va urg'ochisi yil davomida tutiladi.

Yaralangan yoki tutqich va qopqonlarga tushgan darrandalarni jonsizlantirish uchun ularni yo uzunchoq miyasi va miyachasiga yo'g'on igna tiqiladi yoki ko'krak qismidagi qovurg'alari qisiladi. Jonsizlantirilgan darranda ektoparazitlardan tozalanadi. Har bir tur hayvonning ektoparazitlari alohida probirkalarga solinib yozib qo'yiladi.

Tutilgan hayvonni jonsizlantirish uchun kichiklarini bo'yin tomonidan ushlab (tishlamasligi uchun), ko'kragi qisiladi. Yumronqoziq va undan kattalarini qopqondan ajratib olgach, qorni bilan yerga qo'yib bo'yni ustidan oyoq bilan bosiladi va umurtqasi sindiriladi. Burniga, qulog'iga paxta tiqiladi yaralariga kraxmal sepiladi. Tutilgan hayvonning har biri materialdan tikilgan xaltalarga solinadi va xaltaning og'zi mahkam bog'lanadi.

Kichik sut emizuvchilar faunasini o'rganishda ukkilar, lochinsimonlarning pogadkalari (qayt qilib tashlagan ovqat qoldiqlari) va tezaklarini tahlil qilish natijasida boy materiallar to'plash mumkin. Pogadkalarni yirtqich qushlarning uyasi ostidan va uning atrofidan oxtarish kerak. Pogadkalar har bir uyadan olinib, material yoki qog'ozga o'rab bog'lanadi va unga etiketka yoziladi. Pogadkalar oftobda yoki pechka (o'choq)da quritiladi. Pogadkalarni tarkibini (suyak siniqlarini) aniqlash uchun tadqiqotchidan anchagina bilim talab qilinadi.

Kemiruvchilar bilan ishlaganda kerakli ehtiyotkorlik shartlariga rioya qilish lozim, chunki kemiruvchilar inson uchun o'ta xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklarni o'zida olib yuradi. Kemiruvchilarni parazitlari, ini, oziqa zaxiralari, tezaklari va yirtqich qushlarning pogadkalari ham kasallanish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kemiruvchilar bilan ishlayotgan tadqiqotchi brizentli libos, rezinali yetik, rezinali qo'lqop kiyishi shart. Ochiq qo'l bilan ko'z, burun artmaslik kerak hamda dezinfeksiya qoidalariga rioya qilish kerak.

Sut emizuvchilarni preparovka qilish

Preparovka (preparat, tiqma) qilishdan oldin hayvon tarozida tortiladi va o'lchanadi. Bunda chizg'ich, shtangenserkul simli tasmadan foydaniladi.

Hamma sut emizuvchilardan ularning katta-kichikligidan qat'iyy nazar, quyidagi o'lchamlar olinadi:

1. Gavdasining uzunligi - simli tasma yordamida tumshug'ining uchidan orqasi bo'ylab to orqa chiqaruv teshigigacha o'lchanadi (a,1);
2. Dumining uzunligi - orqa chiqaruv teshigidan dum umurtqalarining uchigacha (dumi uchidagi junlar hisobga olinmaydi);
3. Keyingi oyoq tovonining uzunligi-tovonining keyingi qirrasidan eng uzun barmog'ining uchigacha o'lchanadi (tirnog'i hisobga olinmaydi);
4. Qulog'ining uzunligi - quloq teshigining pastki qirrasidan quloq suprasini uchigacha (quloq suprasining uchidagi junlar hisobga olinmaydi) o'lchanadi. Agar quloq suprasining asosi qo'shilib ketgan bo'lsa (tovushqon, qo'shoyoq), quloq suprasining asosidan uchigacha o'lchanadi.

Bundan tashqari yirik darrandalardan quyidagi o'lchamlar olinishi tavsiya etiladi:

1. Boshining uzunligi - tumshug'ining uchidan boshni orqa tomonidan bosh skeleti umurtqa pog'onasi bilan qo'shilgan joyigacha simli tasma yordamida o'lchanadi.
2. Tana aylanasi - oldingi oyoqlarning asosidan yelkasigacha aylana shaklda o'lchanadi.
3. Yag'rin balandligi - oldingi oyog'i gavdasiga perpendikulyar cho'zilgan holda yolining ustidan tuyag'ining uchigacha o'lchanadi.
4. Oldingi oyog'ining uzunligi - kuragining ustki qirrasidan tuyog'ining uchigacha o'lchanadi.
5. Keyingi oyog'ining uzunligi - chanoq son bo'g'imidan tizza va tovon bo'g'implari orqali tuyog'ining uchigacha o'lganadi.

Kichik sut emizuvchilarni preparovka qilish

Kichik sut emizuvchilarni terisini shilish umuman qushlarni terisini shilishga o'xshash lekin bir oz osonroq, chunki jun qoplami pat qoplamiga nisbatan kam tashvishli.

Terisini shilish uchun uning qorin tomonini tepaga qilib stol ustiga yotqiziladi va qisqich yordamida anal teshigidan to'sh suyagining keyingi uchigacha bir oz yuqoriga ko'tariladi, keyin qaychining o'tkir uchini teriga kiritib, anal teshigidan to'sh suyagining pastki uchigacha kesiladi. Qorin bo'shlig'ining yupqa pardasini kesib yubormaslik kerak. Keyin teri ikki tomonga qarab tanadan ajratiladi va bu jarayon skalpel yoki qisqichni dastasi bilan bajariladi, keyin tizzasidan qaychi bilan kesiladi. Oyoqlari tizzadan ajralgach, dumi asosigacha teridan ajratiladi. Keyin to'g'ri ichak kesilib, bog'lab yoki paxta tiqib qo'yiladi. Dumi umurtqadan ajratiladi yoki asosidan kesib olinadi. Buning uchun qaychi bilan dumi asosining ichki tomonidagi umurtqani teri bilan bog'lab turuvchi tolalar kesiladi. Terisi teskari qilinib dum umurtqasidan ajratiladi. Undan keyin terisi oldingi oyoqlarga qarab teridan ajratiladi. Oldingi oyoqlari tirsak bo'g'imidan kesiladi. Undan keyin terisi teskari qilinib, bo'ynidan va boshidan ajratiladi. Bunda quloq ko'z pardalari kesiladi. Undan keyin lab qirralaridan teri kesiladi.

Tanadan ajratib olingan teri qisqich yoki skalpel bilan go'sht bo'laklari va yog'dan tozalanadi. Keyin oldingi va keyingi oyoq suyaklari muskullardan tozalanadi.

Dumning ichiga umurtqa o'rniga yo'nilgan tayoqcha qo'yiladi. Shunday qilib tayyorlangan terining ichki tomoniga margimush surtiladi va terini juni tashqariga qaratiladi. Terida qoldirilgan oyoq suyaklari yupqa qavatli paxta bilan o'raladi va tiqмага shakl beriladi. Paxtadan hayvonning tanasi yasaladi va oldingi uchi o'tkirlashtirilib qisqich yordamida boshiga tiqiladi. Og'zi tomondan ham paxta tiqiladi. Tananing (tiqma) boshqa qismlariga ham kerakli miqdorda paxta tiqilib shakl beriladi. Dumiga tiqilgan tayoqchani uchiga qorin tomondagi paxtacha o'raladi.

Tiqma tayyor bo'lgach uning qorin tomonidagi kesma ingichka ipda tiqiladi va etiketkasi oyog'iga bog'lab qo'yiladi. Tayyor bo'lgan tiqma quritishga qo'yiladi. Oldingi oyoqlari oldinga, keyingi oyoqlari keyingi tomonga qarab tortiladi. Quloqlari yoziladi. Shu holatda tiqmani to'rtta oyog'i va dumi to'g'nag'ich bilan taxtaga biriktirilib qo'yiladi.

Ko'rshapalaklarning tiqmasi bir oz boshqacha tayyorlanadi. Uchish apparati (qanoti)ni tovonga birikishi alohida xarakterga ega, shuning uchun ham ularning bitta qanoti yozilgan, ikkinchi qanoti yig'ilgan holatda quritiladi. Ko'rshapalaklarni tiqmasi kartonga tikilib quritiladi.

Tiqmaga darrandaning bosh skeleti bog'lab qo'yiladi. Buni katta ahamiyati bor. Chunki bosh skeleti turni sistematik holatini va yoshini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun hayvonni boshi bo'yin umurtqasidan ajratib olinadi, ko'zi ajratiladi, keyin tili, katta muskul bo'laklari va miyadan tozalandi. Bosh skeletiga tuz sepiladi yoki margimush surtiladi. Bosh skeletga tiqma raqami qo'yilib, marliga o'raladi va tiqmaning oyog'iga bog'lab qo'yiladi.

Hayvonning jinsini aniqlash uchun hayvonning qorin bo'shlig'i yoriladi va keyingi qismidan siydik pufagi axtarib topiladi. Erkaklarining siydik pufagini keyingi yuzasiga to'g'ri ichak tegib turadi, urg'ochilarini siydik pufaklari va to'g'ri ichagi orasida bachadoni joylashadi.

Yirik sut emizuvchilarning terisini shilish

Tulki va undan katta bo'lgan darrandalarni stol yoki taxta ustiga orqasi bilan yotqiziladi. Taxtaning burchaklariga mix qoqib hayvonning to'rt oyog'i ham bog'lab qo'yiladi. Keyin o'tkir pichoq yoki skalpel bilan: 1) pastki labidan anal teshigigacha, 2) oldingi oyog'i to'voni (tuyog'i)dan orqa tomoni bo'ylab ko'krakkacha, keyingi oyog'i anal teshigining old tomonidan tovonigacha, 3) dumi bo'ylab qorin kesimigacha kesiladi.

Bu kesmalar bajarilgandan keyin avval ko'krak va qorin tomonning terisi tanadan pichoq yoki oyoqlaridan terisi tirnoq yoki tuyog' asosigacha ajratiladi. To'g'ri ichakning uchi tugib qo'yiladi. Teri ichki tomondan yog' tanalaridan, biriktiruvchi to'qima tolalaridan va go'sht parchalaridan tozalanadi. Bosh skeletidan quloq suprasi ajratiladi va boshi ortiqcha go'sht va miyadan

tozalanadi. Terisiga namakop surtiladi. Bosh skeleti teridagi oyoqlardan biriga bog'lab qo'yiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Банников А.Г. Даревский И.С. Определитель земноводных и пресмыкающихся фауны СССР. - М.: Высшая школа, 1977.
2. Беме Р.Л., Кузнецов А.П.. Определитель млекопитающих СССР. - М.: Просвещение, 1965.
3. Дементьев Г.П., Гладков Н.А. и др. Определитель птиц СССР. - М.: Высшая школа, 1964.
4. Дементьев Г.П., Гладков Н.А. Птицы Советского Союза. - М.: Советская наука, 1951-1954 - т. 1-6.
5. Лаханов Ж.Л. Ўзбекистоннинг умуртқали ҳайвонлари аниқлагичи. Ташкент, 1989.
6. Лаханов Ж.Л., Жабборов А.Р. Умуртқалилар зоологиясидан лаборатория машғулоти. Самарқанд, СамДУ нашри, 2003.
7. Лаханов Ж.Л., Жаббаров А.Р. Куруклик умуртқали ҳайвонларининг тадқиқот услублари. Самарқанд, СамДУ нашри, 2007.
8. Мартынов Е.Н. Определитель видов орнитофауны по гнездам и кладкам. - Л., 1968.
9. Новиков Г.А. Полевые исследования экологии наземных позвоночных животных. - М.: Советская наука, 1949.
10. Терентьев П.В., Чернов С.А. Определитель пресмыкающихся и земноводных. - М.: Советская наука, 1949.
11. Фундукчиев С.Э., Жаббаров А.Р. Методическое руководство к летней практике по зоологии позвоночных. – Самарканд: Изд. СамГУ, 2007.
12. Jabborov A.R., Fundukchiev S.E. Umurtqalilar zoologiyasidantalabalarning ilmiy va o'quv-tadqiqotishlari.- Samarqand: SamDU, 2007.

Қўшимча адабиётлар

1. Богданов О.П. Животные Узбекистана. - Ташкент: Укитувчи, 1980.

2. Захидов Т.З., Мекленбурцев Р.Н. Природа и животный мир Средней Азии - Ташкент: Ўқитувчи, 1971.
3. Мальчевский А.С. Орнитологические экскурсии. - Л., 1981.
4. Михеев А.В. Определить птичьих гнезд. - М., 1975.
5. Промптов А.Н. Птицы в природе. - М.: Учпедгиз, 1960.
6. Флинт В.Е., Беме Р.Л. и др. Птицы СССР. - М.: Мысль, 1968.
7. Флинт В.Е. и др. Млекопитающие СССР. - М.: Мысль, 1970.

Web сайтлар

1. http: www.ziyonet.uz.
2. [www. pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. www.edu.ru